

ISBN: 978-93-54653-56-3

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PORTRAIT OF THE FUTURE PSYCHOLOGIST



Published by

Novateur Publication

466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030
novateurpublication.org

Author:

N.A.MIRASHIROVA

N.A.MIRASHIROVA

BO‘LAJAK PSIXOLOGNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK PORTRETI

India-2023

Annotatsiya

Mazkur monografiyada professional mutaxassis kadrlarni muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish, ularda psixolog kasbiga xos bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdan iboratligi asoslangan. Buning uchun avvalo tanlangan kasbning mohiyat mazmunini anglab yetish hamda o'ziga xos muhim xususiyatlarni shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Kasbiy muhim sifatlarini tarkibi nimadan iborat va shakllanishi qanday psixologik omillar bilan bog'liqligini o'rganish muammoni hozirgi kun uchun dolzarb ekanligini belgilab beradi. Ayniqsa, psixologning ijtimoiy –psixologik portretida kommunikativ, intellektual, emotsional hamda shaxsni o'zini o'zi tartibga solish omili yetakchilik qiladi. Ushbu monografiya mutaxassis psixologlarda aynan shu kabi sifatlarini ochib berishga qaratilgan.

Mas'ul muharrir:

Psixol. f.d. professor N.S.Safayev

Taqrizchilar:

Rasulov A. – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU "Psixologiya" kafedrası
professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Haydarov F. – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrası professori, psixol.f.n.

KIRISH

Jahonda psixolog-mutaxassis inson ruhiyatining davolovchisi sifatida qaraladi. Psixolog odamlarni murakkab yoki nostandart vaziyatlarda qo'llab-quvvatlaydi, ularga o'zini baholash, o'z xatolarini tushunish, anglash, o'z «Men»ini himoya qilish kabi bir qator vazifalarni bajaradi. Shu bois bugungi kunda nazariyotchi psixolog, amaliy psixolog, psixolog-tadqiqotchi, klinik-psixolog, yurist-psixolog, ta'lim muassasasi psixologi va boshqa faoliyat yo'nalishida ishlayotgan psixologlar kategoriyalari mavjud. Bu borada psixologlar faoliyatini tizimlashtirish va tartibga solish uchun zarurati yuzaga kelmoqda. Mehnatning kasbiy qadriyatlarini shakllantirish dinamikasini belgilovchi omillar va shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, psixolog mutaxassisning faoliyatini yo'lga qo'yishda ikkita asosiy guruhga: 1-ijtimoiy-psixologik omillar; 2-kasbiy omillar¹ ajratish muhim ekanligi belgilangan bo'lib, xalqaro miqyosda psixologlar faoliyatiga qo'yiladigan talablar mutaxassisning qiyofasi va kasbiy kamolotini muttasil o'rganib borish masalasini hanuz dolzarblashtiradi.

Jahon ta'lim va tadqiqot maskanlarida psixologik madaniyat, shaxsiy-kasbiy psixologik sifatlar, har-xil soha mutaxassislarning kasbiy qiyofasi hamda kasbiy kamoloti orqali psixologik portretlari, mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlovchi psixologik omillari, mutaxassisning o'zini-o'zi anglashi va o'zini-o'zi tushunishi, kasbiy qobiliyatlari, individual-tipologik xususiyatlariga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada ijtimoiy-psixolog portret psixolog kasbiy kamolotini belgilovchi omil ekanligi, xususan, kasbiy deformatsiya, mutaxassislarning kasbiy so'nishi, psixologlarning kasbiy tayyorgarlik bosqichi uchun zarur sifatleri masalasi kam o'rganilgan soha sifatida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

¹ Халиулина Д. З. Факторы определяющие динамику профессиональных ценностей субъекта труда.//Теория и практика общественного развития 2014г. № 21. 326 ст. <https://cyberleninka.ru/article/n/>

Respublikamizda so'nggi yillarda psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish xizmati masalalarining huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. «Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi, degan g'oya...»² ta'lim sohasidagi islohotlarning strategik vazifalarini belgilab berilganligi va ta'limning barcha bosqichlarida psixologik xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish asosida jamiyat taraqqiyoti uchun fanning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga e'tibor ko'rsatish orqali ularni ilmiy tadqiq etishda yetarli asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Farmonlar, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406-son «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» Qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida» Qaror va mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

²Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь. / “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 30 декабрь.

I BOB. TALABA-PSIXOLOGLAR IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK PORTRETI MUAMMOSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

§ 1.1. Ijtimoiy-psixologik portretni shakllantirish psixologik muammo sifatida

Psixologik yoki ijtimoiy-psixologik portret muhim psixologik fenomen sanaladi. Shu sababli uning mohiyatini yetarlicha yoritish uchun portret soʻzining kelib chiqish asosiga murojaat qilish lozim boʻladi. Portret soʻzi fransuzcha *portrait* soʻzidan olingan boʻlib, chizish, chizmoq degan maʼnoni anglatadi. Oʻz navbatida fransuzcha «*portré*» («*portrait*») lotincha «*protrágere*» («*protrahere*») — «koʻchirmoq», «tashimoq» soʻzi bilan bogʻliq. Tashqi koʻrinishiga koʻra, portretlarni ifodalash uzoq vaqtdan beri inson tasvirini qogʻoz yoki matoga oʻtkazish sifatida qabul qilingan. «Portret», «traktat» va «traktor» soʻzlar bir ildizga, ularning barchasi lotincha «*trahere*» — «tashimoq», «ergashtirmoq» soʻzidan kelib chiqqan [161].

Portret (fr. *portrait*, eski fransuzcha. *portraire* — «biror belgi yoki qirraning chizgilarini ifodalash; eski. *parsuna* — lot. *persona* — «shaxs; kishi, kimsa») — mavjud yoki real voqelikdagi biror bir inson yoki insonlar guruhini ifodalash yoki tasvirlashdir. Tushunchaning qoʻllanilishi badiiy vositalar (rassomchilik, grafika, gravyura, haykaltaroshlik, fotografiya, poligrafiya, video), adabiyot va kriminalistika (soʻzli portret)da uchraydi [161].

Adabiyotdagi portret-badiiy tavsiflash vositalaridan biri boʻlib, yozuvchining oʻz qahramonlarining tipik xarakterini ochib berishi va qahramonlarning tashqi qiyofasi tasviri orqali ularga gʻoyaviy munosabatini ularning siymolari, yuzlari, kiyimlari, harakatlari, imo-ishoralari va xulq-atvorini tasvirlashdan iborat [161].

Tasviriy sanʼatda portret mustaqil janr boʻlib, uning maqsadi modelning tasviriy xususiyatlarini namoyish qilishdir. «Portretda oʻtmishda mavjud boʻlgan yoki hozirgi odamda mavjud boʻlgan aniq, haqiqiy tashqi koʻrinish (va u orqali ichki dunyo) tasvirlangan» [161]. Portret-jonli yuzning

plastik shakllari, chiziqlari va ranglarida takrorlanish va shu bilan birga uning g'oyaviy-badiiy talqini [161].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib portretning zamonaviy psixologiyada qo'llanilayotgan ilmiy atamalar mazmuniga ko'chirish kerak bo'lsa, ular quyidagicha bayon etiladi:

Psixologik portret yoki insonning psixologik portreti – bu shaxsning shaxsiy xususiyatlarini so'z yoki yozma ravishda ifodalashdir [158]. Psixologik portretni ijtimoiy-psixologik portret bilan uyg'unlashtirishda shaxsning xislat va xususiyatlari ijtimoiy muhit yoki ijtimoiy munosabatlar asosida talqin etiladi. Bu esa shaxs xususiyatlarini ham o'rganishni taqazo etadi. Bunga shaxs nazariyasi, shaxs tiplari va shaxs tuzilmasiga doir ilmiy izlanishlar xizmat qiladi [161].

Ijtimoiy psixologiyaning ob'yektlaridan biri ijtimoiy munosabatlarning ob'yekti, ham sub'yekti sifatida faoliyat yurituvchi shaxsdir. Rus psixologiya fani shaxsning ijtimoiy psixologiyasi muammosiga bir qator nazariy yondashuvlarni ishlab chiqdi. Biz ushbu maktab vakillari L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, V.N.Myasishev, K.K.Platonovlarning shaxs xususidagi ta'riflarini taqdim etishimiz o'rinli. Bu esa o'rganilayotgan muammo doirasidagi masalaning nazariy-metodologiyasi bilan bog'liq tushuncha, metodika va tuzilmalarni aniqlashtirish imkonini beradi [111].

Sobiq ittifoq psixologiyasi vakili S.L.Rubinshteyn: «shaxs faoliyatda namoyon bo'ladi va shakllanadi, shuning uchun xulq-atvorning turli jihatlari shaxsning namoyon bo'lishi va uning shakllanishiga hissa qo'shadi» deb izohlaydi [111, B.18] .

V.N. Myasishevning fikriga ko'ra, shaxsning birligi va xilma-xilligi munosabatlarning o'zaro bog'liqligi va xilma-xilligi orqali aniqlanadi. U o'zining yo'nalishini (odamlarga, o'ziga, tashqi dunyo ob'yektlariga bo'lgan munosabatini) tavsiflovchi shaxs tuzilishidagi ustuvor munosabatlarni tanlaydi [111, B.26].

A.N. Leontevning fikricha, shaxs faoliyat bilan bog'liq bo'lib, uning holati va mahsuloti sifatida harakat qilishi mumkin. Shaxsning faoliyatini tahlil qilish uni ko'p bosqichli tizim sifatida yoritishga olib keladi. Ta'lim shaxsning rivojlanishi va faoliyatini belgilaydigan tizimning asosi sub'yektiv faoliyatdir [111, B.29] .

B.G. Ananev esa, shaxsning ijtimoiy munosabatlar va funksiyalar orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Olimning g'oyasiga ko'ra, shaxs axloq va huquq normalari, xulq-atvor standartlari, ijro etiladigan rollar bilan bog'liq motivlar va ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra yoritiladi [19, 111, B.34].

K.K. Platonov faqat jamoatchilik bilan munosabatlarda inson butun yaxlitligida harakat qiladi, barcha holatlarini namoyon qiladi deb, taxmin qiladi. Uning fikriga ko'ra, shaxs ijtimoiy psixologiya tomonidan o'rganilayotgan har qanday hodisada doimo mavjud va namoyon bo'ladi [103, B.77]. L.S.Vigotskiyning madaniy va tarixiy konsepsiyasiga ko'ra, shaxsning shakllanishi insonning madaniy rivojlanishi jarayonida sodir bo'ladi [111, B.26].

Muallif (L.Kulikov) shaxs muammolarini tahlil etish asosida uning o'rganish tuzilmasini quyidagi munosabatlar tartibida izohlashga erishdi. Tadqiqotda shaxsni o'rganishda yangicha munosabatlar, izchil va muhim alomatlarini hisobga olgan holda shaxsni yetarlicha va asosligi o'rganish muhimligini ko'rsata oldi [111].

Shaxs ontogenetik taraqqiyotining mohiyatida ta'lim-tarbiya muhitini ta'minlash inson tabiatini uning kamolot darajasini talqin etish mumkinligini tushuntirib o'tadi [24].

Ijtimoiylashuv – shaxs shakllanishi va kamolotining o'ziga xos ijtimoiy tizimidir. Bu borada psixoanaliz asoschisi Z.Freydning o'ziga xos munosabatlari mavjud. U ijtimoiylashuvni insonning ijtimoiy o'zaro munosabatlarda majburiy ishtiroki va uning ijtimoiy qonunlariga bo'ysunishi deb hisoblagan [111].

I.S.Kon ijtimoiylashuvni ijtimoiy tajriba, ijtimoiy rollar va madaniyatning muayyan tizimi tomonidan assimilyatsiya qilish sifatida belgilaydi va bu jarayonda muayyan shaxs shakllanadi [62].

Oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalari shaxs ijtimoiylashuvining asosiy institutlaridir. Shu bilan birga bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonida ularning roli yoshga qarab o'zgaradi va turli madaniyatlarda farq qiladi. Ijtimoiylashuvning quyidagi parametrlarini ajratish mumkin: tarkib, kenglik, mexanizmlar, ijtimoiy institutlar, omillar, ijtimoiylashuv bosqichlarini tadqiqot muammosini o'rganishda inobatga olish lozim bo'ladi.

Ijtimoiylashuvning mazmuni – shaxs hayotining dastlabki daqiqalaridan boshlangan va uch sohada: faoliyat sohasida, munosabatlar sohasida va o'z-o'zini anglash sohasida amalga oshiriladigan shaxsni shakllantirish jarayoni. Bu uch sohaning umumiy tavsifi shaxsning tashqi dunyo bilan ijtimoiy aloqalarini kengaytirish, ko'paytirish jarayonidir. A.N.Leontev faoliyat sohasidagi ijtimoiylashuvni insonning egalik qiladigan faoliyat sohalarini kengaytirish, ya'ni madaniy xulq-atvorning bosqichma-bosqich rivojlanishi sifatida aniqladi [111, B.29-34].

Muloqot sohasida ijtimoiylashuv muloqot doirasining asta-sekin kengayishi va uning mazmuni va shakllarining o'zgarishi davomida yuzaga keladi. Muloqot ommaviy, guruh, shaxslararo, biznes sohasida bo'lishi mumkin. O'z-o'zini anglash sohasida ijtimoiylashuv o'ziga xos obrazni shakllantirish nuqtai nazaridan harakat qiladi.

Ijtimoiy psixologiyaning yetuk vakillaridan biri amerikalik psixolog va sotsiolog Ch.Kulining fikricha, «Men» konsepsiyasini ishlab chiqish uzoq jarayon davomida amalga oshiriladi va boshqa shaxslarning ishtirokisiz, ya'ni ijtimoiy muhitsiz, guruh tajribasisiz amalga oshirilmaydi. Ch.Kulining taxminiga ko'ra, inson «Men»ni o'zi tomonidan qabul qilingan boshqa odamlarning reaksiyalariga asoslangan holda shakllantiradi. «Men»ning bu

yondashuvi «Men ko‘zgu» deb ataldi [161]. Ch.Kulining «Men ko‘zgu»si uch bosqichdan iborat tuzilmaga ega:

- boshqalarni idrok etishimiz;
- boshqalarning fikrlarini idrok etishimiz;
- bu fikrimiz haqidagi hissiyotlarimiz.

«Ijtimoiy ko‘zgu» doimo oldimizda va doimo o‘zgarib turadi. Turli shaxslar inson haqida o‘z fikrlarini bildiradilar, ularning reaksiyalarini kashf etadilar. Natijada, vaqt o‘tishi bilan bu uning qobiliyatini his qilishining o‘zgarishiga olib keladi. Rivojlanayotgan shaxs, «ijtimoiy oyna» rolini bajaradigan shaxslar guruhini tanlashda yanada talabchan bo‘ladi, uning fikri qadrlanadi. Shu bilan birga, agar shaxs bir yoki bir nechta fikrni noto‘g‘ri talqin qilsa, «ko‘zgu» buziladi [160].

Ch.Kulining nazariyasini rivojlantirgan holda J.Mid «muhim kishi» konsepsiyasini ishlab chiqdi. «Muhim kishi» konsepsiyasiga ko‘ra atrofdagilar tomonidan boshqa bir shaxsning idrok etish mohiyatini tushuntiradi. «Umumlashgan boshqa» – bu mazkur guruh a‘zolari o‘rtasida shaxs «men»ining shakllanishiga yordam beruvchi muayyan guruh xulq-atvorining umuminsoniy qadriyatlari va me‘yorlarini ifodalaydi. Shunday qilib inson o‘z xulq-atvorini boshqalarga nisbatan ko‘rishni va ularning reaksiyalarini his qilishni o‘rganadi. Shu boisdan talabalar ijtimoiy-psixologik portreti ustida izlanish olib borishda J.Midning konsepsiyasiga tayanamiz. Bunda talabalarning guruhidagi jipslik, ularning qadriyatlari va psixologik qiyofalarining ahamiyatini o‘rganishga to‘g‘ri keladi.

L.D.Gorbova ijtimoiylashuvning quyidagi bosqichini belgilaydi, jumladan:

- tug‘ilishdan to o‘smirlik davrigacha davom etadigan birlamchi ijtimoiylashuv bosqichi yoki moslashish bosqichi;
- o‘smirda boshqalardan ajralib turish istagi paydo bo‘lgan individuallashtirish bosqichi [160].

G.M. Andreeva ijtimoiylashuvning uch bosqichini aniqlaydi: mehnatdan oldingi, mehnat va mehnatdan keyingi. Ushbu yondashuv ijtimoiylashuv ijtimoiy tajribani, birinchi navbatda, ish jarayonida o'zlashtirishni nazarda tutishini hisobga oladi.

Mehnatdan oldingi bosqich inson hayotining mehnat faoliyati boshlanishigacha bo'lgan davrini qamrab oladi va o'z navbatida ikki davrga bo'linadi:

- erta ijtimoiylashuv davri: bolaning tug'ilishidan maktabga qabul qilinishigacha;

- o'qish davri: maktab, universitet yoki boshqa ta'lim muassasasida o'qishning barcha vaqti [20].

Shaxsning ijtimoiy-psixologik talqini umumpsixologik qonuniyatlar bilan singishgan holda yaxlit tuzilmani hosil qilishga sabab bo'ladi. Shu boisdan ham shaxs ijtimoiy kamolotga erishsa, ijtimoiylashuv jarayoni ma'lum darajadagina tugallanadi. Ko'pgina psixologlarning ta'kidlashicha, ijtimoiylashuv jarayoni insonning butun hayoti davomida davom etadi, lekin kattalarning ijtimoiylashuvi bolalarning ijtimoiylashuvidan farq qiladi. Kattalar ijtimoiylashuvi tashqi xatti-harakatni o'zgartiradi va insonga ma'lum ko'nikmalarni egallashga yordam berish uchun mo'ljallangan. Bolalarning ijtimoiylashuvi qadriyat yo'nalishlarini shakllantiradi va xatti-harakatlarning motivatsiyasi bilan shug'ullanadi. Ularning ijtimoiylashuvi jarayonida deviant xulq-atvorda namoyon bo'ladigan muvaffaqiyatsizliklar bo'lishi mumkin.

Ko'p jihatdan psixologik portret haqida so'z borganda uning qirralarini belgilovchi shaxs tuzilmasiga tayanish muhimdir. Shuning uchun shaxs tuzilmasi tahliliga murojaat qilamiz.

Shaxsning konseptual tuzilmasining tarkibidagi xususiyatlarni yoritish hisobiga ijtimoiy-psixologik portretni tuzish imkoniyati oshadi. Shaxs konseptual tuzilmasiga ko'ra psixologik portretni quyidagi jabhalarga ajratishimiz mumkin:

Shaxs yo‘nalganligi: egoizm, natija, hokimiyatga ega bo‘lish, altruizm, jarayon, erkinlik, mavjud bo‘lish.

Shaxsning ijtimoiy psixologiyasi orqali uning tipologik xususiyatlarini yoritish mumkin bo‘ladi. Oqibatida esa shaxsning ruhiy barqarorligi, boshqaruv faoliyatidagi o‘rni, faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra tiplashtirish uning tabiatini talqin etishning eng qulay yo‘li hisoblanadi (*ijtimoiy-psixologik*).

Shaxs tiplari va qirralari masalasi uni umumiy psixologik va psixodiagnostik jahdan talqin etishning eng maqbul tamoyili hisoblanadi (*shaxs psixologiyasi*).

Psixofiziologik darajada: ijtimoiy temp, temp, ijtimoiy erglik, erglik (quvvat, kuch, mehnat), plastiklik, ijtimoiy plastiklik, emotsionallik, ijtimoiy emotsionallik. Ushbu shaxs tuzilmasining tarkibiy qismlaridan talaba-psixologlarning ijtimoiy-psixologik portretining kasbiy kamolotidagi ahamiyatini o‘rinli holatlarida o‘rganishda foydalaniladi [116].

Psixologik portretni tuzish bilan bog‘liq masalalarni yoritishga zarurat tug‘ilganda uning algoritmini inobatga olish lozim. Rossiyalik psixolog Svetlana Troshina tomonidan taqdim etilgan maqolada psixologik portretni tashkil etuvchilari qayd etilgan [129].

Psixolog D.Milay tomonidan taqdim etilgan psixologik portret tuzilmasi quyidagilardan iborat [89]. Shaxs tuzilmaning fan tizimidagi o‘rni barcha davrlar uchun ahamiyatga ega bo‘lgan unsurlarning o‘zining tarkibiga qamrab oladi. Shu sababli ham shaxs tuzilmasini tahlil qilishga xizmat qiluvchi kognitiv (diqqat, xotira, idrok, tafakkur va intellektuallik); individual-psixologik xususiyatlari (temperament, xarakter, qobiliyatlar), kommunikativ va konativ xossalari hisobida ijtimoiy-psixologik portretni talqin etish mumkin bo‘ladi.

Ijtimoiy-psixologik portret talaba-psixologning shaxsiy-kasbiy rivojlanishining biosotsial jabhalari hisobi talabaning psixologik portretini tahlil qilish shaxs tuzilishining umumiy ko‘rinishini izohlashga olib keldi,

ya'ni tabiiy va ijtimoiy muhit ta'sirida faoliyatning shakllanishi ta'minlanadi;

shaxs xislatlari asosida yakka tartibdagi xususiyatlari, qarashlarining kengligi, ijtimoiy munosabatlari ifodalanishi individual-psixologiyasi, dunyoqarashi, ijtimoiy-psixologiyasi;

inson ruhiyati bilan bog'liq yakkahol xususiyatlar;

axloq-odobi, xulqi, sha'ni;

shaxslararo munosabat, statusi, kutilmalari, yo'nalganligi.

Shundan kelib chiqib talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretini tadqiq qilish ahamiyatining muhimligi, kelgusida psixologik faoliyatni yo'lga qo'yish hamda psixolog uchun zarur bo'lgan kasbiy sifatlarning to'laqonli shakllanishini ta'minlash maqsadida professional psixolog timsolida talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretini tuzish ehtiyoji yuzaga keladi.

Quyidagi paragrafda talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik timsolini o'rganish asosida psixologik portretni shakllantirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar tahlili haqida so'z yuritiladi.

§ 1.2. Jahon psixologiyasida ijtimoiy-psixologik portret tuzish muammosining tadqiq etilganlik holati

Psixiatr Jeyms A.Brussel tomonida psixologik timsol (psixologik portret) bilan bog'liq ilk izlanish inson qiyofasining o'ziga xos chizgilarini yaratishga sabab bo'ldi. U 1956-yilning dekabr oyida birinchi marta haqiqiy jinoyatchi – Jorj Meteskining psixologik profilini tuzadi. «Telba bombardimonchi» laqabli bu odam Nyu-Yorkda o'n yildan ortiq terroristik harakatlarni amalga oshirib, kutubxonalar, konsert zallari, kinoteatrlar, poyezd stansiyalari va boshqa jamoat joylarida bomba portlatdi. Odamlar yangi portlashlarni kutib, doimiy qo'rquvda yashadilar. Jinoyatchi esa noma'lum qoldi. Har kim uning keyingi qurboni bo'lishi mumkin edi. Umidsiz politsiya D. Brusselga murojaat qiladi. Ammo Brussel bunday

vazifaga ilk bora duch keladi. U jinoyat ishi materiallarini, jinoyat sahnalari fotosuratlarini, jinoyatchining maktublarini o'rganib chiqadi, U o'z niyatlari haqida xabar berib, shahar gazetalariga muntazam ravishda yuborib turgan (Brussel ilk bora keyinchalik psixolingvistik matn tahlili usuli deb nomlangan usuldan foydalandi). Shunga asoslanib, u nafaqat jinoyatchining mumkin bo'lgan xatti-harakati tavsifini tuzdi, balki jinoyatchining tashqi ko'rinishi tavsifini ham berdi. U birinchi bo'lib jinoyatchini qo'lga olishga ommani jalb qilish maqsadida bunday portretlarni bosma nashr etishni taklif qilgan. J.Mateski qo'lga olinganida, politsiya Brusselning tashqi va psixologik portretni qanchalik aniq tuzganligidan hayratda qoldi [95, B.82-83].

Psixologik profil usulini qo'llashda birinchi muvaffaqiyatdan so'ng turli shaharlardagi detektivlar Brusselga yordam so'rab murojaat qilishadi. U yuqori profilli seriyali qotillik bilan bog'liq bir qator tergovda ishtirok etadi. Jumladan, uning yordamida «Bostonlik qotil» laqabli eng xavfli seriyali qotilni qo'lga olishga muvaffaq bo'lishadi.

Ushbu ishni tergov qilishning dastlabki bosqichida (1964 yil) tibbiy psixiatriya komissiyasi deb ataladigan detektivlarga yordam berish uchun bir guruh shifokorlar va ilmiy psixiatrlar ajratiladi. O'sha vaqtga kelib aniqlangan 11 ta jinoyatning holatlari–jinsiy asosda qotilliklar–ularda ikki kishining ishtirok etishi mumkinligini ko'rsatgan. Brusselning hamkasblari bu hal qilinmagan qotilliklarning bir qismi (keksa ayollarni o'ldirish) bir kimsa tomonidan, ikkinchisi (yosh ayollarni o'ldirish) – boshqa jinoyatchi tomonidan, birinchisiga aloqasi bo'lmagan degan xulosani berishgan. Brussel bu fikrni qo'llab-quvvatlamaydi. U bir qator jinoyatlar manqurtning ishi ekanini da'vo qiladi. Brusselning tavsiyalaridan foydalanib, politsiya oxir-oqibat Bostonlik stranglerlarini (bo'g'ib o'ldiruvchi, qotil) aniqlaydi va o'n uch qotillikni sodir etishda aybdor deb topadi. Bu kimsa Albert de Salvo degan shaxs bo'lib chiqdi.

Brussel tomonidan ishlab chiqilgan qidiruvdagi qotil profilidagi ma'lumotlar deyarli butunlay de Salvo xususiyatlariga to'g'ri keldi. Bu

tasodif emas edi. Ushbu va boshqa shunga o'xshash vazifalarni hal qilishda Brussel jinoyat hodisasining psixodinamik xususiyatlari va jinoyatchilarning jinoiy xatti-harakatlarining ayrim psixiatrik ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlarga tayanadi.

70-yillar boshida Federal qidiruv boshqarmasi (FQB) Akademiyasi amaliy sud psixologiyasi kursining maxsus agenti Xovard Teten Brusselning ishiga qiziqib qoladi. Teten Brussel bilan mos ish boshladi, jinoiy xatti-harakatni tushuntirish uchun uning kuzatuvlari va ishlanmalardan foydalanishga harakat qildi. Avvaliga tadqiqot yakka ishqibozlar tomonidan ixtiyoriy ravishda olib borildi. 80-yillarning o'rtalarida zo'ravonlik jinoyatlarini o'rganish Milliy markazi tashkil etilgandan so'ng psixologik profilaktika usuli rasmiy tan olindi [95, B. 88-89].

80-yillarda AQSh Federal qidiruv boshqarmasi (FQB) tergov byurosi (Quantico, Virjiniya) milliy Akademiyasida seriyali qotil Teodor Robert Bandini tergov qilish bilan bog'liq ravishda jinoyatchining psixologik portretini («psixoprofil usul») tuzish usulini qo'llashga oid fan bo'limi yaratildi, ya'ni jinoiy faoliyatni tahlil qilish asosida jinoyatchining psixologik xususiyatlari haqida oldindan uning shaxsiy xususiyatlarini aniqlagan holda taxmin qilindi.

Noma'lum jinoyatchining psixoprofilini tuzish usuli asoschilaridan biri FQB maxsus agenti Jon Duglas bo'lib, u birinchi bo'lib FQB agentlari uchun jinoiy psixologiyadan foydalanish kurslarini o'rgatdi va 1979-yildan beri «Shaxs-jinoiy profilaktika» tadqiqot dasturining rahbari bo'lgan. D. Duglas va FQB ning bir qator boshqa maxsus agentlari (R.Rassler, R. Xeyzelvud) tomonidan psixoprofilning usuli FQBda rasman qo'llanildi va 1984-yilda bixevorizm psixologiyasi markazi (xulq-atvor fanlari bo'limi) va yagona milliy ma'lumotlar bazasi- VICAP yaratildi [161].

Kelajakda ko'plab mamlakatlar Brussel ishiga ergashdilar, xususan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya tomonidan psixologik profil tuzish usuli qabul qilindi va masalan, Buyuk Britaniyaning Shotlandiya Yard

politsiyasida jinoiy xatti-harakatlarni o'rganish bo'yicha maxsus bo'lim tashkil etildi. R.L. Axmedshin, N.V. Kubrak tomonidan noma'lum jinoyatchining psixologik portretini qurish metodologiyasi bosqichlarining mazmuni yoritildi [124, B.5-6].

Dastlab psixoprofilni tuzish usuli ketma-ket qotilliklarga qarshi kurash vositalaridan biri sifatida yaratilgan bo'lsa, keyinchalik u boshqa jinoyatlarga qarshi kurash uchun ham qo'llanila boshlandi.

Psixoprofil tuzish usuli yordamida bir necha jinoyat ishi ochildi, jumladan, T. Bandi tomonida amalga oshirilgan seriali qotilliklarni aniqlash va uni qo'lga olish uchun ishlatilgan, D. Karpenter, Dj.Daffi, Dj.Damer, G.Shipman, shuningdek, «Vashington snayperi»ni qo'lga olishda bu usul xizmat qildi.

Ushbu texnikani qo'llash natijalari juda ta'sirli bo'ldi, faqat uni ishlab chiqqan D.Duglas jinoyatchining psixologik portretini yaratish metodlaridan foydalanib, mingdan ortiq jinoyatni oshkor qilishda muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Rossiyada AQShdagiga o'xshamagan bixevioristik markazi yo'q, ammo ushbu mintaqada ilk izlanishlar Rostovlik psixiatr A.O.Buxanovskiy va uning boshchiligidagi tibbiy reabilitatsiya markazi bu borada ish olib boradi.

Psixologik portretning tarixiy asoslari haqidagi fikr mazkur muammoning naqadar ahamiyatli ekanligini yana bir bor ko'rsatdi. Shu sababli ijtimoiy-psixologik portret tuzish masalasini boshqa mualliflar tomonidan ham o'rganilganlik holatiga e'tibor qaratishimiz zarur.

Psixologik qiyofaning (ijtimoiy-psixologik portret) tarkibiy tuzilmasi borasidagi bir qator izlanishlar mavjud. Ularda psixologik qiyofa va timsol (ijtimoiy-psixologik portret)ning umumiy va xususiy holatlari tahlil qilingan [9, 153, 154, 155, 158].

Bir guruh tadqiqotchilar portretni xulq-atvor va uning psixologik portretida uchraydigan xususiyatlari bilan aloqadorlikda [15, 18, 19, 20, 21,

23, 24, 26, 30, 32, 33, 50, 52, 57, 60, 61, 64, 76, 93, 99, 100, 102, 110, 111, 125, 135, 137, 138] o'rganishgan.

Ikkinchi guruh psixologik tip va portretni o'rganish usullariga bag'ishlangan manbalar [22, 27, 28, 29, 34, 36, 41, 42, 44, 46, 48, 54, 63, 83, 92, 94, 95, 96, 114, 146, 147]da yoritilgan.

Uchinchi yo'nalish har xil sohadagi portretni o'rganishga yo'nalgan [68, 70, 71, 97, 152, 153].

To'rtinchi yo'nalishda siyosatchilar, davlat arboblari o'rganishgan [80, 105, 140, 158].

O.A. Abramova tomonidan olib borilgan tadqiqotda IT-tadbirkorlarning psixologik potretini tuzish masalasi yoritilgan [10, B.188-204].

Ye.Yu. Shpakovskaya, D.A. Xabibulin, V.V. Churilovlarning tadqiqoti virtual addiktivlikka bag'ishlangan. Ularning tadqiqotiga ko'ra virtual addiksiyaga moyil bo'lgan shaxslar tund, o'zgarishlarga zaif tayyorlik bilan ajralib turadi, o'z xulqini va atrof-muhitni qiyin idrok qilar ekanlar, ularga tashqi muloqotdan qochish, aloqalar yuzaki, moslashuvchanlik darajasi past, emotsional va kommunikativ to'siqlarga duch keladigan, stressga chidamsiz, ijtimoiy umidsizlik, hayotdagi qiyinchiliklarni yengishga intilmaslik xos ekanligini aniqladilar [159, B. 250-254].

L.A. Bondarenko, I.V. Lamashning izlanishida stalkerlarning (bo'g'uvchi qotil) psixologik portreti o'rganilgan. Bu toifa insonlar xulq-atvorining har qanday murakkab shakli va bir qator turli xil holatlarning mahsuli bo'lishi mumkin. Ularda me'yordagi xulq-atvor va zarar yetkazuvchi xatti-harakatga moyillik bor degan gumon bilan baholash uchraydi [154.]

V.I.Morozovning izlanishlarida portret tuzishda nutq jarayonida noverbal xatti-harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan insonning fiziologik portretini qurish imkoniyatining empirik va nazariy asoslari

muhoqama qilinadi. Psixologik portret nutq soʻzlovchi shaxsning qabul qiluvchining ongidagi subʼyektiv obrazi sifatida qaraladi. Psixologik portretning yetarlilik darajasi va uning haqiqiy prototipi tahlil qilinadi. Shuningdek, noturgʻun muloqot tizimida subʼyekt sifatida soʻzlovchi va tinglovchi shaxslarning individual va tipologik oʻziga xosliklari ham oʻrganilgan. Shuningdek, tadqiqotda emotsional taassurot, hissiy eshitishning muloqotdagi roli, psixologik portretni yaratish va musiqiy ijodning psixofizik tabiati koʻrib chiqilgan. Har soha mutaxassislarining psixologik timsoli yoritilgan [156].

E.A. Madzarovning izlanishida esa uyushgan jinoyatchilarning psixologik portreti ularning motivatsiyasi, munosabat va qadriyatlari sintezlangan xarakteristikasi oʻrganilgan. Bunda ularning oʻz-oʻzini hurmat qilishi xususiyatlari, ruhiy boyliklari va shaxsiy himoya usullari yoritilgan [155, B.158-160].

Timoti Benkroft-Xinchi (Timothy Bancroft-Hinche) tomonidan olib borilgan izlanish Rossiya yetakchisining psixologik portretini oʻrganishga bagʻishlangan boʻlib, uning saylov oldi jarayonidagi faoliyatini tahlil etish orqali zarur psixologik chizgilarni taqdim qilgan. Tadqiqotchining qayd etishicha, u psixologik portretni tuzishda K.Yung usulidan samarali foydalangan. U yetakchiga xos bir qator kuchli fazilatlarni sanab oʻtgan [160].

Kuchli fazilatlari: u oqilona va foydali qadamlar qoʻyadi, u yangi gʻoyalarni amaliyotga moslashtiradi va ulardan maksimal foyda oladi, u boshlanadigan har bir narsani majburiy amalga oshirish uchun yetakchi, vazmin, kezi kelganda qaysar va kamtar, u shaxsiy hayotdan zavqlanadi va zavqlanadigan ishda ixtirochi hisoblanadi, doʻstlikni qadrlaydi. U aniq bir inson obroʻsiga ega. Uchrashuvlariga sudralib chiqishni yoqtirmaydi. U stressga chidamli, xavfli vaziyatlarda sovuqqon muomalada boʻladi. Xavfli ogohlantirishlar qoʻrquvni emas, balki unga qiziqish, oʻzini sinab koʻrish istagini uygʻotadi.

U shubhalanishga moyil, u narsalarni tahlil qilish va odamlar bilan hazil qilishni yaxshi ko‘radi.

U odatda juda ta’sirchan bo‘lsa-da, his-tuyg‘ulari va hissiyotlarini omma oldida namoyish etmaydi.

U xafa odam: uning yomon kayfiyati har doim samaradorlikni oshiradi.

U shafqatsiz, erkinliklarni yoqtirmaydi, u odamga bir yoki ikki marta tahdid qiladi.

U nafaqat shaxsiy mamnuniyatni keltiradigan narsalarda, balki u dangasa odam ekanligi haqida taassurot qoldiradigan narsalarda samaralidir. U befoyda ish tutmaydi.

U sekin gapirishni yoqtirmaydi, u aniq va ishonchli so‘zlarni yoqtiradi [157].

Ijtimoiy-psixologik portretni o‘rganish borasidagi mavjud manbalardan olingan tajribalar tahlili bizning oldimizga talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretini psixologik tadqiqotlarda o‘rganilganlik holatini yoritish vazifasini qo‘yadi.

§ 1.3. Talaba-psixolog ijtimoiy-psixologik portreti muammosining psixologik tadqiqotlarda o‘rganilganlik darajasi

Psixologik timsol muammosi bevosita psixolog-talaba va boshqa yo‘nalishda faoliyat olib boruvchi soha xodimlarining xususiyatlarini yoritish bilan bog‘liq o‘rganilgan [9, 16, 17, 25, 31, 37,38, 39, 43, 47, 51, 53, 54, 55, 59, 66, 70, 73, 76, 81, 89, 108, 109, 124, 126, 127, 134, 140, 143, 144, 145].

Nopsixologik yo‘nalishda ta’lim olayotganlar portretini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar amaliyotda ko‘p uchraydi. Bu esa psixologik timsolni (talaba-psixologlar portretini) umumiy jihatlari yoritilgan manbalar bilan bog‘liqdir [70, 73, 81, 86, 98, 103, 104, 109, 124, 125, 127, 134, 141, 144].

M.I. Drepaning maqolasida internetga tobe zamonaviy yoshlar va talabalarining shaxs xususiyatlari o'rganilgan. Natijada ushbu toifa shaxslarning emotsional-irodaviy, motivatsion va kommunikativ sohadagi xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, internetga tobe talabalarda xavotirlanishning shaxs xususiyatlari darajasi xosligi aniqlangan. Universitet talabalarining sharoitga moslashish jarayoni tahlil qilingan. Talaba yoshlarning o'zaro muloqotiga e'tibor berilgan [150, B.75-80].

Ye. Kiyashko, Ye.B. Marin, T.A. Vasilevalarning tadqiqotida media vositalardan foydalanuvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Bunda onlayn o'yin ishtirokchilarining yangi imkoniyatlari ochiladi va individual faoliyati uchun qo'l keladigan jihatlar ko'pdir. Bu bir jihatdan axborot vositalardan foydalanuvchilar jamoasini tashkil etish g'oyasiga olib keladi. Rossiyada axborot jamiyati kontekstida bugungi kunda turli xil yangi ommaviy axborot vositalaridan foydalanuvchilar jamoalarini shakllantirish hodisasi deyarli o'rganilmagan [166, B.269-275].

V.Ye. Xazanov zamonaviy talabaning ijtimoiy-psixologik portretini ishlab chiqish bo'yicha izlanish olib borgan. U buning uchun psixologiyada keng qo'llaniladigan MMPI metodikasidan samarali foydalangan. Yakunda shaxs psixodiagnostikasining eng kuchli metodi sifatida psixologlarning aksariyati MMPI shaxs so'rovnomasining ustuvorligini ko'rsatadi. Mazkur metodikaning qo'llashdan olingan ko'rsatkichlarda ta'lim muhitida aniq maqsadli talabalar bilan bir qatorda xulq-atvorida og'ishi bor talaba ham klinik psixologik yordamga muhtoj talabalar borligi ham qayd etildi [135].

Talabalarining shaxslararo o'zaro munosabatlari, talabalarining butun o'quv faoliyatining borishiga ta'sir etuvchi hissiy va sub'yektiv omillarga e'tibor beriladi. Shu munosabat bilan talabalarining ilmiy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatga munosabati va motivatsiyasiga ushbu omillarning ta'siri ahamiyatli tarzda o'rganilgan. Barcha talabalar aniq bir necha guruhga ajratilgan. Ta'lim oluvchilar magistrlik va doktorlik ilmiy ishlarini davom ettirish va takomillashtirish muhimdir. Bu talabalarda o'z ishlariga katta

qiziqish borligi tavsiflanadi. Ular ko‘pincha ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanadilar, loyihani amalga oshirish, tadqiqotlar bilan bog‘liq turli talabalar jamoalarini tashkil etadilar [127].

Tadqiqotimiz ob‘yektiga aloqador izlanishni bayon etib, ularda muammoga aloqador masalalarning umumiy xususiyatlari bayon etilgan [8, 16, 17, 18, 25, 31, 37, 38, 39, 43, 45, 47, 54, 59, 62, 89, 108, 145].

T.A. Vernyayevaning dissertatsiyasida psixologning kasbiy-shaxsiy portretini tadqiq etishi bayoni yoritilgan. Tadqiqotchi o‘z izlanishida kasbiy muhim sifatlarni o‘rganish va kasbiy shaxs tiplarini aniqlashga e‘tibor qaratadi. Psixologik timsol va uning tabiatini yetarlicha yoritish imkonini beruvchi xulosalar mujassamlashtirilgan. Unda empatiya darajasi va shaxs tiplarining asosiy xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatlar mavjudligi ilmiy asoslangan [36].

A.A. Volgushevaning ishida psixolog portretini mavjud tajribalar asosida shakllantirishning algoritmi va zarur xususiyatlari bayoni namuna sifatida keltirilgan [38]. Buning uchun muallif Ye.A. Klimovning professiogrammasidan foydalangan [55]. Ushbu o‘rinda maqola muallifi ikkita tushunchaga aniqlik kiritadi va bir qator professiogrammani tavsiflovchi tushunchalar yoritilgan:

- diqqatning ko‘chishi va taqsimlash;
- obrazli va og‘zaki-mantiqiy xotira;
- ijodiy fikrlash;
- qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira;
- muloqot qobiliyatlari – odamlar bilan muloqot va o‘zaro munosabat, aloqa o‘rnatish qobiliyati, tinglash qobiliyati;
- og‘zaki qobiliyatlar – aniq, ifodali, o‘z fikrini malakali ifodalash qobiliyati;
- notiqlik mahorati – ishontirish va bahslashish qobiliyati;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati.

Psixolog kasbi yordam ko'rsatish toifasiga kiradi. Bunda muhim qiziqishlar va moyilliklar:

- boshqa shaxsga qiziqish va hurmat;
- empatiyaga moyillik;
- qiziquvchanlik va o'rganish;
- ijodkorlik.

Zarur shaxsiy fazilatlarga quyidagilar kiradi:

- shaxsiy javobgarlikning yuqori darajasi;
- tolerantlik ;
- xushmuomalalik;
- tashabbus;
- o'z-o'zini bilishga, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish;
- o'ziga xoslik, topqirlik, qiziqishlarning ko'p qirraliligi;
- maqsadlilik, qat'iyatlilik;
- sezgirlik, voqealarni bashorat qilish qobiliyati;
- bilimdonlik;
- sir saqlash qobiliyati.

Biroq psixologiya sohasida samarali kasbiy faoliyatga to'sqinlik qiladigan bir qator jihatlar mavjud. Bunda mutaxassisning asosiy faoliyati quyidagilar bo'ladi:

- psixikaning rivojlanishi va psixik jarayonlar qonuniyatlarini tadqiq etish;
- turli yoshdagi odamlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganish;
- insonning ichki dunyosi va xulq-atvor xususiyatlarini o'rganish;
- kichik va katta guruhlardagi odamlarning xatti-harakatlarini o'rganish;

- kishilarning ijodiy faoliyati, ularni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari, hissiy sohasi bilan bog'liq masalalarni o'rganish;
- mehnatning turli sohalarida inson faoliyatining xususiyatlarini o'rganish;
- stressli vaziyatlarda inson xatti-harakatlarining xususiyatlarini o'rganish;
- sud muhokamasining xususiyatlarini, huquqbuzarning xatti-harakatlarining motivlarini o'rganish, huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ishlab chiqish;
- ontogenetik taraqqiyot bosqichlariga mos loyihalar shakllantirilgan;
- yakkahol xususiyatlar va xulq-atvorni tavsiflash uchun ma'lumotlar;
- turli vaziyatlar bilan bog'liq xulq-atvor egalariga psixologik ko'mak berish;
- inson timsolini nomaqbul ko'rinishlarining oldini olish va tuzatish;
- psixodiagnostika usullarini real amaliyot sharoitlariga moslashtirish.

Zamonaviy psixologiya hammaning e'tiborini o'ziga tortadigan kasbga aylanib bormoqda [37].

Bir qator mualliflar talabalar faoliyatiga aloqador tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu tadqiqotlar muammomiz mazmunidagi kasbiy shakllanishini ahamiyatiga aloqador masalalarga bag'ishlangan.

Ma'lumki, har bir kasb o'zining rivojlanish tarixiga ega bo'lib, sohalar bo'yicha hal etilishi kerak bo'lgan masalalar shaxsning kundalik faoliyati yoki biror bir yo'nalishdagi kasbiy o'sishini xususiy yoki umumiy holatlari yuzasidan yaqqol yechimlarni ifoda etadi. Bu jarayonda bajariladigan har bir harakat o'z mazmuniga ega bo'lib, ijtimoiy muammoni bartaraf etishga

yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, ijtimoiy munosabatlar tizimida turli xil nizoli vaziyatlar, inqirozlar, hissiy muammolar, spirtli ichimliklarga ruju qo'yganlar, giyohvandlar, zo'ravonlik natijasida aziyat chekkanlar, doimiy ish joyini yo'qotganlar, nogironlar, uy-joysiz qolganlar va boshqa shu singari hayotda turli muammoli vaziyatlarga tushib qolganlarga amaliy yordam berish bilan psixolog mutaxassislar shug'ullanadi [117].

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida kasbga quyidagicha ta'rif berilgan: «Kasb-kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'ulot turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. ...Kasb, odatda shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi»³.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa «Kasb – (arabcha biror narsani o'rganish, egallash, foyda; hunar, mashg'ulot) ish faoliyatning ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar»⁴ sifatida ta'riflanadi.

Bu haqida O'. Shamsiyev va D. Muxammedovalar Ye.A. Klimov tomonidan «kasb» tushunchasiga bergan sharhlariga quyidagicha munosabat bildirilgan [144, B. 51-52]:

1. Kasb – bir-biriga yaqin bo'lgan muammolar ustida ishlovchi va deyarli bir xil hayot tarzini olib boruvchi shaxslar birligi.
2. Kasb kuchni ishlatish doirasi sifatida psixologning faoliyatida ob'yekt va predmetni ajratish bilan bog'liq.
3. Kasbga shaxsning faoliyati va namoyon bo'lishi sifatida qaraladi.
4. Kasb – tarixan rivojlanuvchi tizim.
5. Kasb voqelik sifatida mehnat sub'yektining o'zi tomonidan ijodiy shakllantiriladi, deb ko'rsatilgan.

Ta'kidlash lozimki, kasb (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, umumiy hamda xususiy ko'rinishlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

³ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4 jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B.491.

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild./ A.Madvaliev tahrir ostida– Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.. – B. 328. (Um. 672 b.)

1. Kasb va uning ixtisosliklarining psixologik tavsifi.
2. Kasb(hunar)ning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati.
3. Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi.
4. Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, chora-tadbirlar umumiy tavsifi [86].

Shu sababli ilm-fan yutuqlaridan kasb egallashga nomzodlarni tanlashda foydalanish qator afzalliklarga ega bo'lib, kasbiy moslashuv jarayonining pozitiv kechishi, kasbiy jamoaga moslashish, kasbiy «Men»ni to'liq namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratib beradi⁵.

Bu borada R.Samarov talaba-psixolog shaxsi va kasbiy sifatlarini shakllantirishda «etnik xarakter, etnik temperament, etnik urf-odat, etnik qiziqish hamda etnik ong masalalari»ga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatib o'tgan [118].

Ma'lumki, talabalik davrining o'ziga xos jihatlari respublikamiz olimlari tomonidan keng doirada o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, talabalik davrida qator psixologik omillarning rivojlanganligi ularni shaxs va mutaxassis sifatida kamolotini ta'minlab beradi. Shu bois respublikamiz miqyosida talabalik davriga oid izlanishlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq deb topildi.

N.S.Safayev tomonidan «Talabalarda milliy o'zlikni anglashning psixologik xususiyatlari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi⁶da milliy o'zini-o'zi anglash fenomenining mohiyati to'la ochib beriladi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida muammo falsafiy-ijtimoiy, psixologik-pedagogik ilmiy adabiyotlar yordamida chuqur tahlil qilingan. Tajriba natijalari asosida talabalarda milliy o'zini-o'zi anglash xususiyatlari o'rganilgan. Milliy o'zini-o'zi anglashning barcha komponentlari birlashishi natijasida o'zini-o'zi anglash shakllanib boradi. Talabaning psixik xususiyatlari psixologik

⁵ Семёнова И.Н. Акмеология – новое направление междисциплинарных исследований человека // Общественные науки и современность, № 3, 1998. – С. 134-142.

⁶ Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи. Автореф. дис...д. психол.наук. – Т.: НУУЗ, 2005. – 38 с.

faoliyat yechimini o'zida ifodalagan tadqiqotlar bilan bog'liqdir. Ushbu izlanishda inson timsolidagi konstruktiv xususiyatlari ijtimoiy munosabatlar, xatti-harakatlari va xulqini takomillashtiruvchi regulyator hisoblanishi ko'rsatib berilgan [119].

S.N. Norqobilovanning «Talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta'sirining psixologik jihatlari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida talabalarning kasbiy shakllanish xususiyatlari bir qator ta'lim yo'nalishi talabalari misolida atroflicha va izchillikda o'rganilgan. Unda talabaning motivatsiya sohasi, qadriyatlari va yo'nalganliklari kasbiy shakllanishining muhim omillari sifatida ochib berilgan [117].

Sh.J. Usmanovanning «Talaba kasbiy shakllanishida intellekt dinamikasi» mavzusidagi dissertatsion tadqiqot ishida O'zbekistonlik talabalarining egallayotgan sohasi bo'yicha zarur sifatlarni shakllantirishdagi umumiy, emotsional va ijtimoiy zehni xususiyatlari hamda ta'lim usullari orqali ularni shakllantirish xususiyatlari ilmiy xulosalangan [130].

K.A. Farfiyevaning tadqiqotida teleko'rsatuvlarning mazmuni talabalar tasavvurida aks etishi hamda ko'rsatuv mualliflarining tasavvuri tomoshabinlar tasavvuriga mos tushishi ommaviy axborotning samarasidir. Kommunikator shaxsini ijobiy qabul qilganda ko'rsatuv mazmuniga ham ijobiy munosabat bildirilishi tadqiqot natijalariga tayanilgan holda o'rganilgan [131].

G.D. Qo'ldoshevaning izlanishlari tibbiyot yo'nalishi talabalarining o'quv faoliyat motivlarini mutaxassis sifatida shakllanishdagi ta'sirini ijtimoiy-psixologik jihatdan talqin qilingan [68].

M.S. Maqsadovanning «Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligining psixologik xususiyatlari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida oliy ta'lim muassassalarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy tayyorligida o'ziga xos psixologik xususiyatlar shakllanishining amaldagi holati aniqlandi. Shuningdek, hozirgi zamon o'qituvchisining

shaxsiga, faoliyatiga qo'yiladigan talablar unifikatsiya qilingan hamda zamonaviy boshlang'ich sinf muallimining professiogrammasi yaratilgan va shunga muvofiq ravishda tavsiyanomalar ishlab chiqilgan [78].

R.M. Abdullayevaning izlanishlarida talabaning oilaviy hayotga tayyorgarlik va oila-nikoh ustanovkalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilk marotaba ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganilganligi, shuningdek, oila nikoh ustanovkalari xususiyatlari yoritib berilganligini ta'kidlab o'tish zarur [8].

Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish nazariy-metodologik masalalariga bag'ishlangan tahlilimiz izlanishning empirik tadqiqoti uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Psixologik portret tushunchasining etimologiyasi mazkur tushunchaning qator fan sohalariga tegishli muammo va keng ma'noga ega ekanligini ko'rsatdi.
2. Timsolni tavsiflashda inson tabiatining turli xil jabhalari g'oyalar, qiyofalar, tuzilmalar, ost tuzilmalar, ijtimoiy xislatlarga bog'liq talqin qilinadi.
3. Psixologik timsol (ijtimoiy-psixologik portret)ni har bir xususiy va umumiy hollar bo'yicha shakllantirish va talqin etiladi.
4. Talaba-psixologlar timsoliga, qiyofasini psixologik tavsifiga bag'ishlangan izlanishlar cheklangan xarakterga ega.
5. O'zbekiston sharoitda talaba-psixologlarning ijtimoiy-psixologik portretini o'rganishga doir tadqiqotlar mavjud emas.

II BOB. TALABA-PSIXOLOGLAR IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK PORTRETIDA KASB TANLASH MOTIVLARI, O'QUV MOTIVLARI VA QADRIYATLARI AHAMIYATINING EMPIRIK KO'RSATKICHLARI

§ 2.1. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretini tadqiq etish mezonlari va metodikalari tavsifi

Psixologik portret yoki ijtimoiy-psixologik portretni tadqiq etishda shaxsning muhim xususiyatlari va xulq-atvorini tashkil etuvchi muhim komponentlariga murojaat qilish baholash mezonlarining asosiy parametrlaridan biri sifatida tanlab olingan. Shaxs haqida so'z borganda individual yoki ijtimoiy ahamiyatga mansub xususiyatlar tahlil etiladi. Shaxsni tadqiq etishning asosiy predmetida ham shaxs, individ, individuallik va faoliyat sub'yekti xususida so'z boradi.

Individuallik rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi uning yo'nalganligi, intellekti va o'zini-o'zi anglashini ifodalovchi xususiyatlaridan iborat. Shaxsning ichki ruhiy dunyosi, o'zini-o'zi anglash va o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmlari shakllanib, «men»ning xulq-atvorini tashkil etuvchilari sifatida harakat qiladi.

Bu shart-sharoitlar asosida shaxsning asosiy xususiyatlarini tasvirlash va uning psixologik portretini tuzish mumkin bo'ldi. O'z navbatida, bunday ehtiyoj paydo bo'lgan taqdirda, uning tizimli tadqiq etilishi, turli hayotiy vaziyatlarda xulq-atvor ko'rinishlarini o'rganish va zarur bo'lganda psixokorreksiya ishlarini olib borish imkoniyatlarini hosil qiladi.

Ayrim tadqiqotchilar (Kudryashova S.V., Yunina Ye.A.) tomonidan shaxsning ijtimoiy qiyofasini talqiniga e'tibor qaratilgan. Talqindagi materiallarda inson qiyofasi (psixologik portretini):

- 1) biologik, ontogenetik taraqqiyoti, tahsil olish, mutaxassislik;
- 2) zarurlari, intilishlari, o'zaro munosabati, biri birini qabul qilish bosqichi;

3) zehn, aql-zakovat, ma'lumotlarni o'zlashtirish xususiyatlariga ko'ra yakkahol xususiyatlariga tayanib shakllantiriladi.

Ushbu g'oyaning psixologik portret masalasidagi munosabatlari tadqiqotdagi shaxsiy-tadqiqotchilik pozitsiyasi uchun tayanch vazifasini ham o'tamoqda. Bu esa quyidagi ishchi farazlarni tadqiq etishga sabab bo'ldi:

1. Kasb tanlash motivlari ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik qiyofasini va mutaxassis sifatida shakllanishini belgilovchi omil.

2. Yakkahol fazilatlariga tayanib psixologiya sohasi talabasining timsolini tashkil etuvchilar tavsiflanadi.

3. Sohani egallashdagi tahsil olishga undovchilar, qadr-qimmatlari, intilishlari ijtimoiy timsolni tavsiflaydi.

Universitetning talaba-psixologlar uchun o'quv jarayoni nafaqat madaniy-texnik vazifani bajaradi, balki yuqori hayotiylik va mustahkamlikka erishish va kelgusida o'z sohasi bo'yicha zarur kasbiy kompetensiyali mutaxassis sifatida faoliyat olib borishiga yordam beradi va shaxsning rivojlanishi, o'rganish qobiliyati, doimiy o'z-o'zini tarbiyalash – talaba-psixolog yoshining katta kuchi. Ijtimoiy-psixologik va psixologik-pedagogik pozitsiyadan talaba-psixologlik kasbiy tayyorgarlik bosqichi shaxs shakllanishining muhim davrini ifodalaydi.

Bu davr ularga hayotining eng murakkab, kutilmagan vaziyatlarda maqbul qarorlar qabul qilishi kerak bo'lgan shaxsning axloqiy ishonchlilikiga ortib borishi talabalardan ma'naviy munosib harakatlarni amalga oshirilishini talab etadi. Bugungi kunda tobora murakkablashib borayotgan ma'naviy-axloqiy muammolar davrida jamoat axloqi faqat talaba-psixolog shaxsi olamiga kirib borsagina kuchga aylanadi. Iqtisodiy muammolarni hal qilish ko'pincha xalqning ma'naviy tayyorgarligiga duch keladi. Ta'lim oluvchilarning irodasi, g'ayrat-shijoati, batartiblilik va uyushqoqligi inson komilligining muhim shartlari hisoblanadi.

Ta'lim olish, kasbiy tayyorgarlik sinovlaridan o'tish talaba-psixologning ta'lim muassasasidagi faoliyatining muhim sharti hisoblanadi. Bular esa shaxsning jamiyatdagi va ijtimoiy hayotini belgilovchi me'yorlardir [3].

Individuallikning rivojlanishini asosiy harakatlantiruvchi kuchi-yo'nalganlik, intellekt va o'zini-o'zi anglashida namoyon bo'ladi. Shaxsning o'z ichki ruhiy dunyosi, o'zini-o'zi anglash va o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmlari shakllanib, uning «Men»ini tashkil etuvchi xulq-atvor sifatida namoyon bo'ladi.

Mijoz, xislat va fazilatlar, iqtidor, zehn, hissiyot, sabr-bardosh xususiyatlarini quyidagi tarkibiy qismlar asosida tavsiflash mumkin:

- muloqot qilish qobiliyati;
- o'zini-o'zi hurmat qilish;
- o'zini-o'zi nazorat qilish darajasi;
- guruhiy o'zaro hamkorlik qilish qobiliyati.

Individuallikning rivojlanishi hayot davomida davom etadi. Shaxs taraqqiyotining barcha bosqichlari o'zining o'sib borish xususiyatlarini ifodalab boradi.

Temperament insonning xulq-atvor uslubini, inson o'z faoliyatini tashkil etish uchun foydalanadigan yo'llarini belgilaydi. Shuning uchun temperament xususiyatlarini o'rganishda sa'y-harakatlar ularning o'zgarishiga emas, balki inson faoliyatining turini aniqlash uchun temperament xususiyatlarini bilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Zamonaviy yondashuvga ko'ra «temperament – psixosotsiobiologik kategoriya (Rusalov V.M., 1986, 1993, 2004) bo'lib, insonning mazmuniy xususiyatlarining butun boyligini belgilovchi psixikaning mustaqil asosiy hosilalaridan biridir» deb izohlanadi.

Tadqiqot metodikalarini tanlash talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretini o'rganishda individuallik xususiyatlarining o'rnini yoritishda, ya'ni temperamentning zamonaviy ta'limotiga tayanishga asoslaniladi degan

mulohaza bildirildi. Shunga ko'ra, V.M.Rusalovning «Individual farqlarning rasmiy-dinamik so'rovnomasi» metodikasidan foydalanildi (1-ilova). Tadqiqot usulining mohiyati zarur psixologik timsolni yoritishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-biologik jabhalarni ifodalash xossasi bilan belgilangan. Shu sababli ushbu tadqiqot usuli sifatida so'rovnomadan samarali foydalanishga erishildi. V.M.Rusalovning so'rovnomasida mujassamlashtirilgan mulohazalari talabalar uchun moslashtirilib aprobatsiyadan o'tkazilganligi hamda mahalliy tadqiqotlarda mazkur metodikadan foydalanilayotganligi va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarlik bosqichida mazkur so'rovnoma psixodiagnostikada o'quv material sifatida o'rgatilishi ham tanlashga sabab bo'ldi.

So'rovnomaning baholash shkalalari 13 ta bo'lib, ularning 12 tasi asosiy va bittasi nazorat shkalasi sifatida foydalaniladi. So'rovnomaning etno-madaniy muhitda moslashtirganligi nuqtai nazaridan quyidagi shkalalari bo'yicha empirik ko'rsatkichlari tahlil etib kelinmoqda:

psixomotor sohasi bo'yicha: erglik (MEr), plastiklik (MP), tezlik (MT), emotsionallik (ME);

intellekt sohasi bo'yicha: erglik (IEr), plastiklik (IP), tezlik (IT), emotsionallik (IE);

kommunikativ sohasi bo'yicha: erglik (KEr), plastiklik (KP), tezlik (KT), emotsionallik (KE).

Metodika natijalarini qayta ishlash tizimining ustuvorligi unda sinaluvchini so'rovnoma savollariga xolis yondashganligini ifodalovchi nazorat, ya'ni samimiylik shkalasining mavjudligidir. Mazkur shkalaning ko'rsatkichlari 6-24 ballar oralig'idan o'rin olgan bo'lib, sinaluvchi 6-17 ball oralig'idagi qiymatlarga ega bo'lsa o'zining xulq-avtorini mos baholagan degan xulosa beriladi. Agar sinaluvchi 18-24 ball oralig'idagi qiymatni sinaluvchi o'zining xulq-atvorini xolis baholamagan deb, natijalari

tadqiqot maqsadlarda foydalanilmaydi. Samimiylik shkalasiga tayanib, qolgan shkalalarning ko'rsatkichlari empirik maqsadlarda foydalaniladi.

Asosiy shkalalarning ko'rsatkichlarini ham ikki xil tartibda qayta ishlanadi va foydalaniladi. Birinchi navbatda 12 ta shkala bo'yicha ko'rsatkichlar 12 balldan 48 ball oralig'idagi qiymatlar bo'yicha tahlil qilinadi. Shkalalarning ko'rsatkichlari 12-25 ball oralig'iga ega bo'lganda shkalalar quyi; 26-34 ball oralig'i o'rtacha; 35-48 ball oralig'i esa yuqori darajada namoyon bo'lganligini ifodalaydi.

Ikkinchi holatda esa ko'rsatkichlar yordamida tadqiqot ob'ektlarining indeksleri va tiplari aniqlanadigan miqdoriy qiymatlar hisoblab topiladi. Metodika yordamida sinaluvchilarning 6 ta rasmiy-dinamik xususiyatlari indeksi hamda 9 ta differensial tiplari aniqlanadi:

1. Psixomotor faollik indeksi (PFI) psixomotor sohadagi faollik shkalalari yig'indisidan iborat.

$PFI = \text{Motorika ER (MER)} + \text{Motorika Plastiklik (MP)} + \text{Motorika Tezlik (MT)}.$

PFI 36 dan 144 gacha ball oralig'ida. O'rtacha qiymati 90 ± 12 , ya'ni. 78 dan 102 ballgacha.

2. Intellektual faollik indeksi (IFI) intellektual sohadagi shkalalar ballari yig'indisidan iborat.

$IFI = \text{Intellekt ER (IER)} + \text{Intellekt Plastik (IP)} + \text{Intellekt Tezlik (IT)}.$

IFI 36 dan 144 gacha ball oralig'ida. O'rtacha qiymati 90 ± 12 , ya'ni. 78 dan 102 ballgacha.

3. Kommunikativ faollik indeks kommunikativ sohadagi shkalalari ballari yig'indisidan iborat (KFI).

$KFI = \text{Kommunikativ ER (KER)} + \text{Kommunikativ Plastiklik (KP)} + \text{Kommunikativ Tezlik (KT)}.$

KFI 36 dan 144 gacha ball oralig'ida. O'rtacha qiymati 90 ± 12 , ya'ni. 78 dan 102 ballgacha.

4. Umumiy faollik indeks (UFI) uch sohadagi faollik shkalalari yig'indisidan iborat.

$UFI = PFI + IFI + KFI.$

UFI qiymati 108 dan 432 gacha. O'rtacha qiymati 180 ± 36 , ya'ni 134 dan 216 gacha.

5. Umumiy emotsionallik indeksi (UEI) uch sohadagi emotsionallik shkalalari ballari yig'indisidan iborat.

$UEI = \text{Emotsionallik MOTORIKA (EM)} + \text{Emotsional Intellekt (EI)} + \text{Emotsional Kommunikativlik (EK)}.$

O'rtacha qiymati $90 + 12$, ya'ni 78 dan 102 gacha.

6. Umumiy moslashuvchanlik indeksi (UMI) umumiy faollik indeksi (UFI) dan umumiy emotsionallik indeks (UEI)ni ayirishdan iborat.

$UMI = UFI - UEMI.$

Qiymatlar chegarasi 36dan 432 gacha. O'rtacha qiymat esa 132 dan 228 gacha.

Yuqorida keltirilgan indekslar asosida temperament tiplari kelib chiqadi. Ushbu metodikaga ko'ra 9 ta rasmiy-dinamik xossalarni aks ettiruvchi tiplar ajratilgan (2.1.1-jadval). Jadvaldagi faollik bilan emotsionallik o'rtasidagi munosabatlar temperament tiplarini baholashga xizmat qiladi.

2.1.1-jadval

Temperament tiplari

Darajalar	Quyi emotsionallik	O'rtacha emotsionallik	Yuqori emotsionallik
Yuqori faollik	QEYuF Sangvinik (3)	O'EYuF «Yuqori faollikka ega aralash tip» (7)	YuEYuF Xolerik (1)
O'rtacha faollik	QEO'F Quyi emosonallik aralash tip (5)	O'EO'F «Noaniq tip» (9)	YuEO'F «Yuqori emotsional aralash tip» (6)
Quyi faollik	QEQF Flegmatik (2)	O'EQF «Quyi faollikdagi aralash tip» (8)	YuEQF melanxolik (4)

Temperament tiplarini izohlash mezonlari tadqiqotning empirik natijalarini sharhlashimizda asosiy vazifani bajaradi. Bu dissertatsiyaning navbatdagi bobidagi empirik ko'rsatkichlar sharhida kuzatiladi.

Navbatdagi metodika esa talabalarning shaxs xususiyatlari va qirralarini o'rganishga mo'ljallangan metodikadir. Buning uchun biz tadqiqotda R.B.Kettellning 16 PF so'rovnomasidan foydalandik (2-ilova).

So'rovnomaning A shakli mamlakatimizdagi psixologik tadqiqotlarda keng qo'llanilayotgan shakli hisoblanadi. So'rovnomadan timsolni yoritishda samarali foydalanishga harakat qilinadi⁷. So'rovnomaning vatanimiz psixologlari tomonidan tadqiqotlarda foydalanayotganligi sababli doimiy takomillashtirib borilmoqda.

So'rovnomada birinchi va ikkinchi tartibli omillar bo'lib, ularning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

Kommunikativ omillar:

A – muloqotchanlik

N – jasurlik

Ye – dominantlik

L – shubhalanuvchan

N – diplomatik yondashuvli

Q₂ – mustakil

Intellectual xususiyatlar:

V – intellektuallik

M – xayoliy obrazlari boy

N – diplomatik yondashuvli

Q₁ – yangilikka sezgir.

Emotsional xususiyatlar:

S – emotsional barqaror

F – beg'am

⁷ Нишоновa З., Курбонова З., Абдиев С. Психодиагностика ва экспериментал психология. – Тошкент. Тафаккур бўстони, 2011.– Б.196-237.

H – ijtimoiy dadillik

I – emotsional sezgirlik

O – xavotirlanish

Q₄ – zo‘riqish

Shaxsning tartibga soluvchanlik xususiyatlari :

Q₃ – o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi

G – axloqiy me‘yorlarga bo‘ysunuvchan.

So‘rovnoma ikkinchi tartibli omillari ham mavjud:

1. Xavotirlanish (f1).
2. Introversiya — ekstraversiya (f2).
3. Sezgirlik (f3).
4. Konformlik (f4).

R.B. Kettellning 16 PF so‘rovnomasi faktorlari talaba-psixologlarning psixologik qiyofasini shakllantirishda ijobiy natija berishi shubhasiz.

Tadqiqotda talaba-psixologlarning qadriyatlar tizimini o‘rganishga ham e‘tibor qaratildi. Buning uchun rossiyalik olim I.G. Senin (1991) tomonidan ishlab chiqilgan «Qadriyatlar yo‘nalishlari savolnomasi»dan foydalanish ko‘zda tutildi. Ushbu so‘rovnoma 2000 yilda O‘zbekiston Respublika xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish psixologik-pedagogik tashxis Markazida modifikatsiya qilinib, o‘zbek milliy muhitiga moslashtirilgan⁸.

Ko‘pgina mutaxassislar shaxs yo‘nalganligini tashxis etish mezoni sifatida muayyan hayotiy maqsadlarni, qadriyatlarni asos qilib oladilar. Sababi qadriyatlar yo‘nalishlari tizimi shaxs yo‘nalganligining asosiy mazmunini belgilaydi va uning atrof-olamga, odamlarga, o‘ziga bo‘lgan munosabatini, hayotiy faoliyat motivlarining mazmunini, shaxsining dunyoqarashini tashkil etadi.

⁸ Қодиров Б.Р., Қодиров К.Б. Касбий ташҳиси методикалари тўплами //Амалиётчи психологлар учун методик қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2003. – 94 б.

Qadriyatlarni ikki turga ajratish mumkin: 1) **maqsadli qadriyatlar** va 2) **vositali qadriyatlar**.

Muayyan hayotiy maqsadlar sari yo‘nalgan qadriyatlarga maqsadli qadriyatlar deb ataladi. Boshqa so‘z bilan aytganda, har bir shaxs o‘ziga xos umumhayotiy g‘oyalarga, o‘zining yetakchi hayotiy maqsadlariga ega. Masalan, odamlar bilan yaqin aloqada bo‘lish ba’zi kishilar hayotining asosiy mazmunini, maqsadini tashkil etadi, bunday kishilar ko‘pincha, hayotning barcha sohalarida shaxslararo muomalada bo‘lish imkoniyatini juda qadrlaydilar. Binobarin, bu – maqsadli qadriyatlardan hisoblanadi. Ta’lim sohasiga chin yurakdan mehr qo‘yib, mehnat qilish va uzluksiz ilm olib rivojlanishni inson faoliyatining muhim sharti sifatida baholash va shu kabilar ham ana shunday maqsadli qadriyatlarga kiradi.

Vositali qadriyatlar xulq-atvorini, xatti-harakatlarning tanlashini ifodalab, qadriyatlar (fe‘l — atvor namunalari), kishining maqsadli qadriyatlariga, umumhayotiy g‘oyalarini o‘zlashtirish xarakterlaydi.

So‘rovnoma tarkibiga 8 yo‘nalishdagi maqsadli qadriyatlarni ifodalovchi mulohazalar mujassamlashgan.

1. Oliy nufuzga ega bo‘lish, ya’ni muayyan ijtimoiy talablarga rioya qilish yo‘li bilan jamoatchilik nazarida bo‘lishga intilish, ijtimoiy talablarga rioya qilgan holda jamoatchilik yoqlaydigan, qo‘llab-quvvatlaydigan faoliyatga intilish, o‘z mavqeini tobora baland ko‘taradigan faoliyat turini izlash va bajarish payidan bo‘lish.

2. Yuqori moddiy ta’minlanganlik, ya’ni farovon hayot omillariga tiriklikning asosiy mazmuni sifatida munosabatda bo‘lish.

3. Ijodkorlik, ya’ni o‘z ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, tevarakdagi narsa va hodisalarni o‘zgartirishga intilish.

4. Faol ijtimoiy munosabatlar, ya’ni ijtimoiy hamkorlik jarayonida iliq hissiy munosabatlarni o‘rnatishga intilish, odamlar bilan ishlashni, hamkorlik qilishni yoqtirish xislati.

5. O‘z ustida ishlash, ya’ni o‘z shaxsiy xislatlarini anglab, doimiy ravishda o‘z qobiliyatlarini va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga intilish.

6. Yutuqlarga yo‘nalganlik, ya’ni o‘z oldiga muayyan hayotiy maqsadlarni qo‘yish va albatta ularga erishishga hayotning asosiy omili sifatida yondashish xislati.

7. Ma’naviy qoniqish, ya’ni ma’naviy fazilatlar va ehtiyojlarni moddiy ehtiyojlardan yoki har xil ijtimoiy talablar, rasm- rusmlardan ustun qo‘yish xususiyati.

8. O‘zlikni saqlash, ya’ni o‘z fikr va qarashlarini boshqa har qanday qarashlardan ajrata olish, ba’zan ustun qo‘yish, o‘zining betakrorligi va o‘ziga xosligini, mustaqilligini muhofaza etish.

Shu bilan birga, insonning turli hayotiy sohalarda faoliyat ko‘rsatib, ularda har xil ijtimoiy vazifalarni bajarishi nazarga olinganda, quyidagi 5 turdagi vositali qadriyatlar turkumini tashkil etadigan hayotiy sohalarni farq qilish mumkin:

- 1) kasb-hunar olami;
- 2) o‘quv-tarbiya sohasi;
- 3) oilaviy hayot;
- 4) ijtimoiy hayot;
- 5) qiziqishlar olami.

Har bir inson ushbu hayotiy sohalarni u yoki bu tarzda tanlar ekan, bu tanlovda maqsadli qadriyatlar ham ma’lum darajada o‘z ifodasini topadi. Ya’ni, muayyan hayotiy soha shaxsning qadriyatlariga qanchalik muvofiq kelsa, shaxs uchun shunchalik katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, oilaga bo‘lgan hurmat, sadoqat, ishonch, oilaning moddiy ta’minoti yoki ma’naviy

yetukligi uchun javobgarlik kabi hodisalar shaxs uchun oilaviy hayotning naqadar ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi va h.k.

Shunday qilib, ushbu metodika bir tomondan, turli hayotiy sohalarda o'z aksini topgan muayyan maqsadli qadriyatlarning ustuvorligini aniqlasa, ikkinchi tomondan shaxsning yo'nalish va aqidalariga bog'liq bo'lgan u yoki bu hayotiy sohaning shaxs uchun ahamiyatini o'lchashga yordam beradi.

O'quv motivlari har bir soha mutaxassis sifatida shakllanayotgan yoshlarning o'sib borishi va shakllanishida belgilovchi o'ringa ega. Shu sababli ham talaba-psixologlar timsolini shakllantirishda ham ushbu omilning inobatga olinishi shubhasiz. Talaba-psixologlarning kasb tanlash, kasbiy muvaffaqiyatlari sabablarini o'rganishda «Psixolog kasbini tanlashga sabab bo'luvchi omillar» (mualliflik) baholash shkalalaridan foydalanildi (8-ilova).

O'quv motivlarini o'rganishda A.A.Rean va V.A.Yakuninlarning «Talabalar o'quv motivatsiyasini o'rganish» testidan foydalaniladi (4-ilova). Metodikaning o'ziga xosligi talabalar o'quv motivatsiyalari 16 bandedan iborat o'quv motivatsiyalarini baholash imkoniyatini beradi. Bu esa talaba psixologlarning kasbiy kamoloti va ijtimoiy-psixologik portretini yoritishda metodika anchagina salmoqli xizmat qiladi.

Shuning uchun tadqiqotda bir qator metodikalardan foydalanildi. Ulardan biri talabalarning kasbiy imkoniyatlari tadqiq etildi. «Talaba-psixologlar umumiy kasbiy kompetensiyalarini o'zi va ekspert baholash» metodikasi (mualliflik)dir. Mazkur metodikani shakllantirishda psixologiya ta'lim yo'nalishida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar hamda psixologlarning umumiy imkoniyatlarini hisobga olib tuzilgan.

Tadqiqot ishtirokchilari kasbiy kompetensiyani baholashning 5 balli tizim bo'yicha amalga oshiradilar: 5-yuqori daraja, 4-yaxshi daraja, 3-o'rta daraja, 2-quyi daraja va 1-juda quyi darajani ifodalaydi. Javoblarni mos bandlar bo'yicha so'rovnmoa varaqasiga qayd qilinadi (5-ilova).

Talaba-psixologlar o'quv guruhlaridagi psixologik mikromuhitni o'rganishda V.M. Zavyalovning «Talabalar guruhidagi mikromuhitni baholash» so'rovnomasidan foydalanildi. Metodikaning to'liq foydalaniladigan shakli 6-ildovada keltirilgan (6-ildova).

O'quv guruhidagi jipslikni tadqiq etishda L.M.Fridman, V.S.Ivashkin va V.V.Onufriyevlarning «O'quv guruhidagi jipslik va qadriyatlar birligini o'rganish» metodikasi foydalanish uchun tanlab olindi. Mazkur metodikaning to'liq tafsiloti va tatbiq etish xususiyatlari 7-ildovada keltirilgan. Navbatdagi bobda metodikalarning tatbiqidan olingan empirik qiymatlarning psixologik tahliliga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotda foydalanilgan navbatdagi metodika talaba-psixologlarning yo'nalganligi aniqlashga qaratilgan V.Smekal va M.Kucheralarning «Shaxs yo'nalishini aniqlash metodikasining savolnomasi»dir (9-ildova)⁹.

So'rovnoma shaxs ijtimoiylashuvi va xarakter xislatlarini shakllanishida «o'ziga», «insonlarga» va «faoliyatga» yo'nalganlik darajalarini aniqlashga qaratilgan. Metodikaning o'zbek muhitiga moslashtirilishi professor B.R. Qodirov va K.B. Qodirovlar tomonidan amalga oshirilgan.

§ 2.2. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretida kasb tanlash motivatsiyalarining ahamiyatini o'rganish natijalari

Dastlabki tasavvurlarni baholash o'rganilayotgan soha egalariga xos mutaxassislik timsolini tavsiflaydi hamda ularning kasbiy faoliyatga bo'lgan qarashlari va munosabatini ifodalaydi. Shuningdek, olingan natijalar ko'rsatkichlarining tahlili asosida talaba-psixologlarning o'z sohasini egallashini tavsiflovchi motivlarni aniqlash mumkin. Mazkur masalani tadqiq etish uchun alohida yo'nalish va tadqiqot metodikalari tanlandi.

⁹ Qodirov B.P., Qodirov K.B. Kasbiy tashxisi metodikalari tўplami //Амалиётчи психологлар учун методик қўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2003. – 94 б.

Tanlagan kasbi haqidagi tasavvurlar insonning buguni va kelajagi bilan bog'liq timsollarni gavdalantiradi. Ushbu timsol yo'naltiruvchi yo'l vazifasini o'taydi. Shu sababli talaba-psixologlarning kasb tanlash sabablarini «Psixolog kasbini tanlashga sabab bo'luvchi omillar» so'rovnomasi tatbiq etildi. Quydagi empirik ko'rsatkichlar ushbu masala tahliliga bag'ishlangan (2.2.1-2.2.2-jadval). Talaba-psixologlar o'z kasblarini tanlashida «Psixolog bo'lish qiziqarli va yoqimli» ekanligi (4,86 ball), insonlarga yordam berish istagi (4,66 ball), psixolog kasblar ichida yuqori nufuzga egaligi (4,36 ball), psixologning shaxsiy sifatlari: mas'uliyatlik, maqsadga yo'nalgan, vakolatli, aqlli, ish tartibi tizimli (4,11 ball), insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish (4,10), o'zini va o'zga insonlarni tahlil qilish (4,07 ball) yuqori ahamiyatli omillar sifatida baholagan.

Ushbu omillarning ta'lim bosqichlari nuqtai nazaridan o'rganilganda barcha bosqich talabalarida psixolog bo'lish qiziqarli va yoqimli (4,52 ball (1-kurs), 4,38 ball (2 kurs), 5 ball (3 kurs) va 5 ball (4 kurs)) deb baholangan.

Kasbiy motivlari talaba-psixologlar ijimoiy-psixologik portretining bir chizgilaridan hisoblanadi. Buning uchun ta'sir ko'rsatuvchi o'nta banddan iborat bo'lib, ularning har biri baholash shkalasi (5 ball) tayanilgan holda amalga oshirildi. Olingan empirik qiymatlar tahlili esa umumiy va ta'lim bosqichi bo'yicha hisoblandi. Muloqotchanlik (4,65 ball tahlili shundan dalolat bermoqdaki, talabalarning kelajakda psixolog sifatida rivojlanishida muhim), kasbiy bilim va tajribaga ega bo'lib borishi (4,60 ball), tashkilotchilik qobiliyati (4,45 ball), kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik) (4,43 ball), yashash hududi (4,34 ball), ota-onaning nufuzi (4,24 ball), xorijiy tilni bilishi (4,11 ball), shaxsiy jozibadorlik (4,09 ball), hamkasblari bilan hamkorlik (4,00 ball) va shaxsiy munosabatlar (3,93 ball) izchilligida baholangan.

2.2.1-jadval

Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining psixolog kasbini tanlashi to'g'risidagi tasavvurlari

№	Baholash mezonlari	Umumiy natijalar		1-kurs		t _{1,2}	2-kurs		t _{2,3}	3-kurs		t _{1,3}	4-kurs		t _{3,4}
		X	σ	X	σ		X	σ		X	σ		X	σ	
1.	Psixolog bo'lish qiziqarli va yoqimli	4,86	0,40	4,52	0,66	-2,47*	4,88	0,32	-2,145	5,00	0,02	-4,14***	5,00	0,17	-3,114***
2.	Insonlarga yordam berish istagi	4,66	0,47	4,55	0,50	3,20***	4,23	0,43	-6,782	5,00	0,12	-5,10***	5,00	0,08	-4,412***
3.	O'zimni va o'zga insonlarni tahlil qilish	4,07	0,80	4,02	0,83	2,47*	3,55	0,50	-14,269	4,32	0,63	-1,40	5,00	0,21	-7,000***
4.	Insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish	4,10	0,89	3,67	0,91	-2,81**	4,23	0,78	0,514	4,08	0,79	-3,65***	4,50	0,88	-2,557*
5.	Vaziyat taqozosi bilan	3,04	1,82	2,35	1,90	-2,45*	3,50	1,52	1,056	3,23	1,98	-1,87	2,00	1,76	-1,735
6.	Psixolog kasblar ichida yuqori nufuzga egaligi	4,36	1,99	4,20	1,96	3,23***	4,73	1,97	0,426	4,88	1,83	2,53*	4,12	1,84	1,961
7.	Kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik	4,05	1,95	4,05	2,01	-0,603	4,35	2,01	0,857	3,79	2,11	0,533	3,95	1,70	1,332
8.	Psixolog faoliyati: ish vaqti, mas'uliyati, faoliyat turi va vazifalarining mosligi	3,51	1,86	4,02	1,94	1,691	3,23	2,03	0,402	3,00	1,70	2,22	3,50	1,79	0,706
9.	Psixologning shaxsiy sifatleri: mas'uliyatlilik, maqsadga yo'nalgan, vakolatli, aqlli, ish tartibi tizimli	4,11	1,94	4,20	2,05	-0,498	4,44	2,07	0,190	3,47	1,92	1,46	4,37	1,61	-0,148
10.	Psixologning tashqi ko'rinishi: imiji, kiyinish uslubini yoqtirish	3,61	1,79	4,08	1,89	1,496	3,44	1,67	-0,534	2,73	1,62	3,75***	4,12	1,62	-0,527
11.	Psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilish	3,77	1,96	4,55	1,79	4,53***	2,85	1,84	-2,384	3,02	2,03	3,18***	4,54	1,53	0,365

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$; *** $r \leq 0,001$;

Talaba-psixologlarning ta'lim bosqichlari bo'yicha kasbiy kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillari bir-biridan farq qilmoqda (2.2.2-jadval). Bundan ko'rinadiki, talaba-psixologlarning tasavvuricha, ularning kasbiy kamoloti quyidagicha:

birinchi kurslarda kasbiy kamolot omillari: ota-onaning nufuzi-4,67 ball, shaxsiy munosabatlar - 4,61 ball, kognitiv qobiliyatlari - 4,38 ball; tashkilotchilik qobiliyati - 4,44 ball bilan baholaganlar. Ikkinchi bosqich talabalarining kasbiy kamolotida kirishimlilik - 4,75 ball, shaxsiy jozibadorlikning - 4,67 ball va yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik - 4,64 ball psixolog kasbiy kamoloti uchun eng muhim omillar deb ko'rsatganlar. Ular bir jihatdan psixologlar «inson-inson» munosabatlar tizimida faoliyat olib borishlari va yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish orqali bunga erishish mumkinligini anglab yetganlar. Ularning nazaricha, yashash hududining (3,52) boshqa omillarga nisbatan ahamiyati pastroq baholangan. O'z navbatida birinchi va ikkinchi bosqich talabalarining ko'rsatkichlarida yashash hududi jihatidan (3,52 ball va 4,32 ball; ular o'rtasidagi farq $t=3,132$, $r\leq 0,001$) statistik tafovut aniqlandi. Aholi ko'p yashaydigan, shahar yoki markaziy hududlarda psixolog xizmatiga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligi kundalik kuzatishlardayoq aniqlangan. O'z navbatida bunday tafovut psixologlarning kognitiv qobiliyatlariga ham aloqador (3,70 ball va 4,38 ball; ular o'rtasidagi farq $t=2,78$, $r\leq 0,05$). Birinchi bosqich talabalari psixolog kasbi inson ruhiyati bilan bog'liq muammolarning yechimini topishga qaratilganligini har doim ham his etmaydilar.

Ikkinchi bosqich talabalariga dastlabki ikki o'quv yilidagi tajriba psixolog kasbi to'g'risidagi tasavvurlarini oydinlashtirishga xizmat qilgan.

2.2.2-jadval

Talaba-psixologlarning kasbiy kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga doir munosabatlari ko'rsatkichi

№	Omillar	Umumiy natijalar		1-kurs		t _{1,2}	2-kurs		t _{2,3}	3-kurs		t _{1,3}	4-kurs		t _{3,4}
		X	σ	X	σ		X	σ		X	σ		X	σ	
1.	Shaxsiy munosabatlari	3,93	1,99	4,61	1,85	2,94**	3,41	2,10	-0,182	3,26	2,12	2,592*	4,66	1,49	-3,543***
2.	Ota-onaning nufuzi	4,24	1,89	4,67	1,98	1,758	3,82	1,83	0,000	3,70	2,05	1,745	4,87	1,51	-3,294***
3.	Hamkasblari bilan hamkorlik	4,00	1,92	4,35	2,08	1,458	3,67	1,78	0,170	3,41	1,90	1,808	4,37	1,55	-2,929**
4.	Kirishimlilik	4,65	1,84	4,35	1,7	-1,605	4,75	1,79	-0,525	4,81	1,70	-1,838	4,84	1,88	1,183
5.	Yashash hududi	4,34	1,81	3,52	1,7	1,697	,32	1,70	3,132**	4,78	1,49	-2,055	4,91	1,95	0,827
6.	Shaxsiy jozibadorligi	4,09	1,65	4,02	1,74	0,763	4,67	1,53	-1,590	4,26	1,63	-0,584	4,62	1,76	2,282
7.	Yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik	4,60	1,60	4,35	1,73	-0,762	4,64	1,55	-1,024	5,00	1,59	-1,590	4,16	1,40	3,060***
8.	Kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik)	4,43	1,97	3,70	1,96	1,380	4,38	2,12	-2,784*	4,98	1,74	-1,569	4,75	1,62	0,778
9.	Tashkilotchilik qobiliyatlari	4,45	1,84	4,44	1,89	0,995	4,02	1,78	-1,548	5,0	1,76	-1,334	3,75	1,75	3,562***
10.	Xorijiy tilni bilishi	4,11	2,01	3,55	2,134	-0,709	3,85	2,13	-2,420*	4,64	1,80	-2,639*	3,91	1,83	1,138

Izoh: *r≤0,05; **r≤0,01, ***r≤0,001

Uchinchi va to'rtinchi bosqich talabalarining psixolog kasbiy kamolotida quyidagi ahamiyatli omillar aniqlandi: uchinchi bosqich talabalarida yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik (5 ball), tashkilotchilik qobiliyatlari (5 ball), kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik) (4,98 ball), kirishimlilik (4,81 ball), yashash hududi (4,78 ball) va shaxsiy jozibadorlik (4,26 ball) ahamiyatli tarzda baholaganlar.

To'rtinchi bosqich talabalari esa bu holatni yashash hududi (4,91 ball), kirishimlilik (4,84 ball), ota-onaning nufuziga (4,87 ball), kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik) (4,75 ball), shaxsiy munosabatlar (4,66 ball), shaxsiy jozibadorlik (4,62 ball) va hamkasblari bilan hamkorlik (4,37 ball) kabi omillarning yuqori ahamiyatga egaligini ko'rsatganlar. Ularning ushbu omillar bo'yicha ko'rsatkichlari aynan uchinchi bosqichdagidan statistik jihatdan tafovutlangan (2,2,2-jadvalga qaralsin). Yuqoridagi omillarga tayangan holda ham ikkinchi bobdagi talabalarining ijtimoiy-portretini tavsiflovchi kasb tanlash motivlariga hamohang tarzda ushbu omillarni keltirib o'tish bejizga emas. To'rtinchi bosqich talabalari ta'lim yo'nalishi bo'yicha belgilangan bir tayanch va kasbiy fanlarning o'zlashtirishlari, malaka amaliyotida ishtirok etganliklari, psixolog faoliyati hamda sohaning yutuqlari borasidagi tasavvurlarining o'sganligi, o'zlarining imkoniyatlarini qiyosiy baholay olishlari hisobiga bir qator kasbiy kamolot omillarini ko'rsatganlar. Hatto ular kezi kelganda ota-onaning nufuzi (4,87 ball) ham kasbiy kamolot uchun tayanch vazifasini yetakchi omillar toifasiga kirita olganlar. Bu esa ularning kuzatishlari borasidagi xulosalari bo'lishi mumkin.

Mazkur omillarning tahlilini amalga oshirishda korrelyatsiya tahlil usulidan ham foydalanildi (2.2.3-jadval). Ularning baholariga ko'ra shaxsiy munosabatlarni o'stirishda ota-onaning nufuzi ($r=0,486$, $r\leq 0,01$), ota-onalarning aloqalari ($r=0,469$, $r\leq 0,01$), kirishimlilik ($r=0,217$, $r\leq 0,01$) va

shaxsiy jozibadorlik ($r=0,166$, $r \leq 0,05$) ni ta'minlar ekan. Ota-onalar nufuzining yuqoriligi va bu farzandlar istiqboliga qaratilishi hisobida ota-onalarning aloqalarini o'sishiga sabab bo'larkan ($r=0,446$, $r \leq 0,01$).

Agar talaba-psixologlarda kirishimlilikning o'sishi yashash hududi ($r=0,166$, $r \leq 0,05$), shaxsiy jozibadorlik ($r=0,276$, $r \leq 0,01$), yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik ($r=0,521$, $r \leq 0,01$), tashkilotchilik qobiliyati ($r=0,422$, $r \leq 0,01$) va xorijiy tilni bilish ($r=0,249$, $r \leq 0,01$)dagi kamolot hisobiga erishilishini ifodalaganlar.

Ularning baholariga ko'ra yashash hududi psixologning tashqi qiyofasi uning imijini gavdalanishiga ($r=0,309$, $r \leq 0,01$), yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik ($r=0,331$, $r \leq 0,01$), kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik) ($r=0,472$, $r \leq 0,01$), tashkilotchilik qobiliyati ($r=0,384$, $r \leq 0,01$) bilan hamjihatlikda yuqori kasbiy kamolotni ifodalashga xizmat qilishini tushunib yetganlar.

Psixolog-talabalarining shaxsiy jozibadorligi ularning kasbiy kamolotida yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik ($r=0,295$, $r \leq 0,01$) bilan uyg'unlashishi, kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik) ($r=0,475$, $r \leq 0,01$) va tashkilotchilik qobiliyatlarini ($r=0,449$, $r \leq 0,01$) rivojlantirish hisobiga erishilishini anglaganlar.

Psixologda kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik) rivojlanishida tashkilotchilik qobiliyati ($r=0,283$, $r \leq 0,01$)ning ham o'rni borligi, tashkilotchilik qobiliyatini o'stirish bugungi kun mutaxassisidan xorijiy tilni bilishi ($r=0,354$, $r \leq 0,01$) hisobida ta'minlanadi.

2.2.3-jadval

Talaba-psixologlarning kasbiy kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga doir munosabatlari ko'rsatkichi
(umumiy ko'rsatkichlar)

Shkalalar	Shaxsiy munosabatlari	Ota-onaning nufuzi	Ota-onalarning aloqalari	Kirishimlilik	Yashash hududi	Shaxsiy jozibadorligi	Yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik	Kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik)	Tashkilotchilik qobiliyatlari	Xorijiy tilni bilishi
Shaxsiy munosabatlari	1	0,486**	0,469**	0,217**	0,029	0,166*	-0,152	-0,043	-0,067	-0,131
Ota-onaning nufuzi		1	0,446**	-0,111	0,064	0,006	-0,044	0,013	0,074	0,018
Ota-onalarning aloqalari			1	0,098	0,106	0,028	0,057	-0,017	0,112	0,125
Kirishimlilik				1	0,166*	0,276**	0,521**	0,096	0,422**	0,249**
Yashash hududi					1	0,309**	0,331**	0,472**	0,387**	0,065
Shaxsiy jozibadorligi						1	0,443**	0,275**	0,449**	0,153
Yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik							1	0,295**	0,475**	0,283**
Kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik)								1	0,280**	0,157
Tashkilotchilik qobiliyatlari									1	0,354**
Xorijiy tilni bilishi										1

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$

Talaba-psixologlarning kasbiy faoliyat ob'yektlarini bilishlari bo'yicha quyidagicha holat kuzatildi (2.3.4-jadval):

<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji-</i>	4,95
<i>Xususiy firmalar-</i>	4,94
<i>Huquqni muhofaza qilish organlari-</i>	4,92
<i>Shaxsiy psixologik xizmat markazi-</i>	4,63
<i>Mehribonlik uylari-</i>	4,35
<i>Psixologik xizmat markazlar-</i>	4,34
<i>Maktabgacha ta'lim muassasasi-</i>	4,24
<i>Boshqa muassasalar: korxonalar-</i>	3,96
<i>Tibbiyot muassasalari-</i>	3,59

Ko'rsatkichlar bugungi kunda mamlakatimizda psixolog mutaxassislar ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotganligi va u yerda ish o'rni to'liq kafolatlanganligi sababli umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlariidagi faoliyatini eng yuqori baholamoqdalar (4,95 ball);

Xususiy firmalarda ham faoliyat olib borish mumkinligi esa ikkinchi ko'rsatkich bilan cheklanmoqda (4,94 ball). Psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha ko'pchilik talaba-psixologlarda, xususan, yigitlarda huquqni muhofaza qilish organlarining ahamiyati yuqori ifodalanishiga sabab bo'ldi (4,92 ball). Bunday ijobiy munosabatlar gender xususiyatlarga ko'ra tahlil qilinmaganligi sababli tahlilning ushbu jihatiga urg'u bermagan bo'lsak-da, ammo talaba-psixologlarning o'rtacha ko'rsatkichlarining o'rta qiymatlari 5 ballik tizimda 4,92 ball bilan chegaralanganligini qizlarning ham bu sohada faoliyat olib borish istaklari borligidan dalolat bermoqda.

2.3.4-jadval

**Talaba-psixologlarning kasbiy faoliyatini amalga oshirish mumkin bo'lgan kasbiy faoliyat ob'yektlari
to'risidagi tasavvurlari (umumiy ko'rsatkichlar)**

№	Baholash mezonlari	Umumiy natijalar		1-kurs		t _{1,2}	2-kurs		t _{2,3}	3-kurs		t _{1,3}	4-kurs		t _{3,4}
		X	σ	X	σ		X	σ		X	σ		X	σ	
1.	Maktabgacha ta'lim muassasasi	4,24	3,94	3,35	1,98	-,639	3,67	2,19	-1,983	4,79	6,39	-2,116	3,66	1,57	3,353***
2.	Umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji	4,95	1,95	4,52	2,01	-2,596*	4,76	1,53	-1,209	4,23	1,96	0,351	4,45	1,74	0,929
3.	Tibbiyot muassasalari	3,59	1,96	3,32	2,09	-,262	3,44	1,94	-1,346	3,97	1,81	-0,819	3,12	2,01	2,398*
4.	Psixologik xizmat markazlar	4,34	1,88	4,26	1,87	-1,189	4,70	1,46	-,278	4,55	1,97	0,411	3,50	2,00	1,360
5.	Huquqni muhofaza qilish organlari	4,92	1,47	4,14	0,35	-,466	4,20	0,59	-5,27***	4,95	1,73	-3,210**	4,70	1,51	0,000
6.	Xususiy firmalar	4,94	1,75	4,91	2,06	-,300	4,05	1,80	-0,520	4,09	1,72	-3,336**	4,62	1,20	1,429
7.	Mehribonlik uylari	4,35	1,86	3,88	2,29	-,450	4,11	1,87	-1,670	4,62	1,69	-2,074	4,75	1,51	-1,445
8.	Shaxsiy psixologik xizmat markazi	4,63	1,83	4,79	1,83	,363	4,61	1,79	0,401	4,60	1,92	0,396	4,20	1,88	1,073
9.	Boshqa muassasalar: korxonalar	3,96	2,11	4,55	2,03	3,593	2,91	2,05	0,322	4,25	1,92	-2,265	3,87	2,09	2,261

Izoh: *r≤0,05; **r≤0,01, ***r≤0,001

Psixologlar orasida sekin-astalik bilan xususiy psixologik markazlarning tashkil etilayotgani ham talaba-psixologlarning e'tiboridan chetda qolmagan (4,63 ball). Bu o'rinda xususiy psixologik xizmatni yo'lga qo'yish esa ulardan yuqorida kasbiy kamolotlari uchun zarur bo'lgan omillarning asosiy qismini kasbiy faoliyatda mujassam etishlarini hamda tashkiliy va moddiy-texnikaga zarurat bo'lishini ham biladilar. Balki talabalarning kasbiy kamoloti va mansablarining o'sishidagi omillarga o'ta-onalar mavqeining ham ta'siri o'zlarining ishini tashkil etishlari uchun bir zamin sifatida yuqori ahamiyatli ajratishlariga sabab bo'lgandir.

Psixologik xizmat markazlarida faoliyat ko'rsatishni ham ijobiy baholaganlar (4,34). Ammo ishlab chiqarish, korxona va tashkilotlarda psixologik xizmat masalalari yetarlicha joriy etilmaganligi (3,96 ball) va tibbiyot muassasalarida (3,59 ball) psixologik xizmatning yo'lga qo'yilmaganligi sababli ham mazkur yo'nalishlar nisbatan quyi baholangan bo'lishi mumkin.

Ta'lim bosqichlariga ko'ra tahlil qilinganda esa birinchi bosqich talabalarida quyidagi munosabat kuzatilmoqda:

<i>Xususiy firmalar</i>	4,91
<i>Shaxsiy psixologik xizmat markazi</i>	4,79
<i>Boshqa muassasalar: korxonalar</i>	4,55
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji</i>	4,52
<i>Psixologik xizmat markazlar</i>	4,26
<i>Huquqni muhofaza qilish organlari</i>	4,14
<i>Mehribonlik uylari</i>	3,88
<i>Maktabgacha ta'lim muassasasi</i>	3,35
<i>Tibbiyot muassasalari</i>	3,32

Ular uchun eng muhim ish o'rni xususiy firmalarda faoliyat ko'rsatish mumkinligi ekan (4,91 ball), Bu esa albatta o'spirinlikka xos ishtiyoq va mag'rurlik belgisi bo'lishi mumkin. Ular shaxsiy psixologik xizmat markazi (4,79 ball), boshqa muassasalar (4,55)da faoliyat ko'rsatishi nazarda tutilgan.

Ikkinchi bosqich talabalarining bu boradagi munosabatlari o'zgacha ko'rinish oldi.

<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji</i>	4,76
<i>Psixologik xizmat markazlar</i>	4,70
<i>Shaxsiy psixologik xizmat markazi</i>	4,61
<i>Huquqni muhofaza qilish organlari</i>	4,20
<i>Mehribonlik uylari</i>	4,11
<i>Xususiy firmalar</i>	4,05
<i>Maktabgacha ta'lim muassasasi</i>	3,67
<i>Tibbiyot muassasalari</i>	3,44
<i>Boshqa muassasalar: korxonalar</i>	2,91

Ularning talqinida psixologlar hozirgi paytda umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat olib borayotganligi ustuvor (4,76 ball) o'ringa ega bo'ldi. O'zlarining mustaqil faoliyat yuritishlari va amaliy psixologiya yo'nalishiga bo'lgan intilishlari hisobiga psixologik ko'mak (4,70 ball) va shaxsiy psixologik yordamni yo'lga qo'yish (4,61 ball)da faoliyat olib borishlari mumkinligini ko'rsatmoqda. Deyarli ikkinchi bosqich talabalarida ham ish o'rinlarining qolganlari huquqni muhofaza qilish organlari (4,11 ball), mehribonlik uylari (4,05 ball), tibbiyot (3,44 ball) va boshqa korxona hamda muassasalarida (2,91 ball) psixologik xizmat masalalari bir oz sust yo'lga qo'yilganligi bois kam ma'lumotga egaliklarini bildirganlar.

Uchinchi va to'rtinchi bosqich talaba-psixologlarning ish o'rinlari haqida ma'lumotga egaligi borasidagi fikrlari yanada o'ziga xoslikka ega. Jumladan,

uchinchi bosqich talaba-psixologlarining ko'rsatkichlari quyidagilarni ifodalaydi.

<i>Huquqni muhofaza qilish organlari</i>	4,95
<i>Maktabgacha ta'lim muassasasi</i>	4,79
<i>Mehribonlik uylari</i>	4,62
<i>Shaxsiy psixologik xizmat markazi</i>	4,60
<i>Psixologik xizmat markazlar</i>	4,55
<i>Boshqa muassasalar: korxonalar</i>	4,25
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji</i>	4,23
<i>Xususiy firmalar</i>	4,09
<i>Tibbiyot muassasalari</i>	3,97

Mazkur ko'rsatkichlar tahlili to'rtinchi bosqich talaba –psixologlarining faoliyatida ham kuzatilib, ular o'rtasidagi sezilarli farq kuzatilmadi. Ya'ni, olingan ko'rsatkichlar quyidagilarni ifodalaydi.

<i>Huquqni muhofaza qilish organlari</i>	4,70
<i>Xususiy firmalar</i>	4,62
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji</i>	4,45
<i>Shaxsiy psixologik xizmat markazi</i>	4,20
<i>Mehribonlik uylari</i>	4,15
<i>Boshqa muassasalar: korxonalar</i>	3,87
<i>Maktabgacha ta'lim muassasasi</i>	3,66
<i>Psixologik xizmat markazlar</i>	3,50
<i>Tibbiyot muassasalari</i>	3,12

Psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik bosqichida ko'pgina talabalarning bo'lg'usi ish o'rinlari haqida so'z borganda asosan yigitlarda huquqni muhofaza qilish tizimida faoliyat olib borish ko'pchiligining hohish-istagi hisoblanadi. Shu sababli har ikkala

bosqichdagilar o'z faoliyatlarini qayerda olib borish mumkinliklari ta'lim jarayonida egallagan kasbiy fanlar va malaka amaliyotlari asosida xulosalaganlar deyish mumkin. Shuningdek, ularda ham tibbiy muassasalarda psixolog (3,97 ball va 3,12 ball) sifatida faoliyat olib borish borasidagi munosabatlari quyi pog'onani egallamoqda.

Talaba-psixologlarning «psixolog bo'lish qiziqarli va yoqimli» omili «kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok)» ($r=0,226$, $r\leq 0,05$); «insonlarga yordam berish istagi» ham «kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok)» ($r=0,166$, $r\leq 0,05$) tufayli muvaffaqiyatli natijalar qo'lga kiritilar ekan.

Talaba-psixolog «insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish» ($r=0,243$, $r\leq 0,05$) hisobiga «kirishimlilik» xususiyatining o'sishiga xizmat qiladi.

«Psixolog kasblar ichida yuqori nufuzga egaligi»ni ta'minlashda esa «shaxsiy munosabatlar» ($r=0,413$, $r\leq 0,01$), «yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik» ($r=0,251$, $r\leq 0,01$), «kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok)» ($r=0,274$, $r\leq 0,01$) yetakchi ta'sir ko'rsatuvchi omillar vazifasini bajarar ekan.

«Psixolog faoliyati: ish vaqti»ni ta'minlash hisobiga «shaxsiy aloqalarini» yaxshilashga ($r=0,387$, $r\leq 0,01$), insonlar bilan munosabatga «kirishimlilik» ($r=0,341$, $r\leq 0,01$) va yashash hududiga mos faoliyat yuritish samarali tashkil etilar ekan ($r=0,319$, $r\leq 0,01$).

«Psixologning tashqi ko'rinishi: imiji, kiyinish uslubini yoqtirish» maqsadga muvofiq ta'minlanganlik esa atrofdagilar bilan «shaxsiy munosabatlari» ($r=0,527$, $r\leq 0,01$)ni o'stirishiga, «kirishimlilik»ning rivojlanishiga ($r=0,409$, $r\leq 0,01$) va «shaxsiy jozibadorlik» ($r=0,211$, $r\leq 0,05$)ka erishishlarini ta'minlaydi.

2.3.5-jadval

Talaba-psixologlarning kasb tanlash omillari bilan kasbiy muvaffaqiyatga erishishlariga sabab bo'luvchi omillarning o'zaro korrelyatsiyasi

	Shaxsiy munosabatlari	Ota-onaning nufuzi	Ota-onalarning aloqalari	Kirishimlilik	Yashash hududi	Shaxsiy jozibadorligi	Yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik	Kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xalqaro munosabatlar)	Tashkilotchilik qobiliyatlari	Xorijiy tilni bilishi
Psixolog bo'lish qiziqarli va yoqimli	0,126	-0,119	-0,151	0,020	-0,070	-0,198*	0,040	0,226*	-0,070	0,012
Insonlarga yordam berish istagi	-0,002	0,022	-0,124	0,037	0,154	-0,020	0,055	0,166*	0,089	0,025
O'zimni va o'zga insonlarni tahlil qilish	-0,051	-0,114	-0,188*	-0,093	0,143	0,023	0,018	0,045	0,034	0,100
Insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish	0,004	0,075	0,074	0,243*	0,039	0,000	0,084	-0,004	0,141	0,090
Vaziyat taqozosi bilan	-0,187*	-0,160	-0,016	0,087	-0,051	-0,113	0,090	0,060	0,030	0,033
Psixolog kasblar ichida yuqori nufuzga egaligi	0,431**	0,185	0,164	-0,069	-0,098	-0,037	0,251**	0,274**	0,015	-0,034
Kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik	0,434**	-0,101	-0,128	0,391**	0,390**	-0,114	-0,161	-0,128	-0,084	-0,111
Psixolog faoliyati: ish vaqti, mas'uliyati, faoliyat turi va vazifalarining mosligi	0,387**	-0,131	-0,086	0,341**	0,319**	-0,140	-0,128	-0,086	-0,039	-0,089
Psixologning shaxsiy sifatlari: mas'uliyatlilik, maqsadga yo'nalgan, vakolatli, aqlli, ish tartibi tizimli	0,225**	0,067	-0,103	0,181*	0,089	-0,031	0,064	-0,133	0,004	0,007
Psixologning tashqi ko'rinishi: imiji, kiyinish uslubini yoqtirish	0,527**	-0,138	0,004	0,409**	0,124	0,211*	-0,138	0,024	-0,051	-0,097
Psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilish	0,554**	-0,147	-0,108	0,526**	0,407**	-0,118	-0,082	-0,117	0,054	0,026

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$

Ushbu baholovchi omillar talaba-psixologlarning tashqi qiyofasi ham kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur hisoblanadi. Ularning insonlar bilan munosabatlarida psixologning ijobiy va yoqimtoy tashqi qiyofasi muhim o‘rin tutadi.

Kasbiy uyushmalar haqida bilishi ham talabalar faoliyati bilan shaxsiy munosabatlarning ($r=0,554$, $r\leq 0,01$), kirishimlilik ($r=0,526$, $r\leq 0,01$) va yashash hududidagi ($r=0,407$, $r\leq 0,01$) faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muvofiqlashtiruvchi markazlar psixologlarning o‘zaro tajriba almashinuvini, o‘zaro munosabatlari, hamkorligi va zarur me‘yoriy hujjatlarni yuritishni tartiblaydi. Bu haqida kasbiy tayyorlash jarayonida yetarlicha ma‘lumot berib boriladi. Shu sababli talaba-psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalarning rolini tushunadilar.

Empirik ko‘rsatkichlarning navbatdagi tahlili talaba-psixologlarning kasb tanlash omillari bilan faoliyat olib boruvchi ish joylarini bilishlari o‘rtasidagi korrelyatsiya munosabatlari quyidagi 2.3.6-jadvalda yoritilgan. Ko‘rsatkichlar «insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirishlari umumiy o‘rta ta‘lim maktablari ($r=0,188$, $r\leq 0,05$), kasb-hunar kollejlari»da, boshqa muassasa, korxonalarda ($r=0,526$, $r\leq 0,01$) samarali ish yuritishlari uchun xosdir. «O‘zimni va o‘zga insonlarni tahlil qilish»laridagi intilishlari esa «shaxsiy psixologik xizmat markazi»da faoliyat olib borishlari uchun eng maqbul omillardan sanaladi.

Kasbiy nufuzga ega bo‘lish muhimligi ($r=-0,164$, $r\leq 0,05$) talabalar fikricha, ahamiyatga ega emasdek, ammo bolalar psixologiyasi bo‘yicha ish olib boradigan mutaxassislar ham yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

2.3.6-jadval

**Talaba-psixologlarning kasb tanlash omillari bilan kasbiy faoliyat ob'yektlari (ish joylari)ni aniqlashlari
o'rtasidagi o'zaro korrelyatsiyasi**

	Maktabgacha ta'lim muassasasi	Umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar kolleji	Tibbiyot muassasalari	Psixolo-gik markazlar	Huquqni muhofaza qilish organlari	boshqa muassasalar: korxonalar	Xususiy firmalar	Mehribon- lik uylari	Shaxsiy psixologik xizmat markazi
Psixolog bo'lish qiziqarli va yoqimli	0,076	0,027	-0,047	0,021	0,020	-0,086	0,001	-0,127	-0,040
Insonlarga yordam berish istagi	0,075	0,132	0,088	0,020	0,081	0,158	0,048	-0,031	-0,148
O'zimni va o'zga insonlarni tahlil qilish	-0,029	-0,043	-0,089	-0,151	0,069	0,154	0,018	-0,069	0,220**
Insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish	0,077	0,188*	0,112	0,074	0,086	0,179*	0,063	0,055	0,052
Vaziyat taqozosi bilan	0,020	0,056	0,033	0,012	0,138	0,029	-0,023	0,119	0,111
Psixolog kasblar ichida yuqori nufuzga egaligi	-0,164*	-0,046	0,054	0,215**	0,233**	0,347**	0,239**	-0,047	0,213**
Kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik	0,006	-0,049	0,074	0,309**	0,327**	0,233**	0,251**	0,088	0,418**
Psixolog faoliyati: ish vaqti, mas'uliyati, faoliyat turi va vazifalarining mosligi	-0,101	-0,025	-0,010	0,307**	0,415**	0,253**	0,253**	-0,089	0,313**
Psixologning shaxsiy sifatleri: mas'uliyatlilik, maqsadga yo'nalgan, vakolatli, aqlli, ish tartibi tizimli	0,031	-0,096	0,065	0,081	-0,019	0,233**	0,355**	0,155	0,121
Psixologning tashqi ko'rinishi: imiji, kiyinish uslubini yoqtirish	-0,026	-0,106	-0,068	0,232**	-0,090	0,247**	0,232**	0,124	0,201*
Psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilish	-0,118	-0,085	-0,029	-0,054	-0,035	0,298**	0,179*	0,157	0,212*

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$

Talaba-psixologning «psixolog kasblar ichida e'tirofliligi» ish joyini tanlashiga xizmat qiladi ($r=0,215$, $r\leq 0,01$), huquqni muhofaza qilish organlari ($r=0,233$, $r\leq 0,01$), boshqa muassasalar: korxonalar ($r=0,347$, $r\leq 0,01$), xususiy firmalar ($r=0,239$, $r\leq 0,01$), shaxsiy psixologik xizmat markazida ($r=0,213$, $r\leq 0,01$)) belgilashga xizmat qilar ekan. Markazda ($r=0,418$, va $r=0,313$, $r\leq 0,01$)) ularning yaxshi mutaxassis sifatida o'z ish o'rinlarini belgilay oladilar degan xulosaga olib keladi.

O'z navbatida mutaxassislar tayyorlash davlat ta'lim standartlari, mutaxassislik va ta'lim yo'nalishlarining malaka talablarini ishlab chiqishda bu toifa mezonlar qo'l keladi va aniq faoliyat yo'nalishlari, maqsad va vazifalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talaba-psixologlarning kasbiy o'sish uchun eng ta'sirchan omillardan biri sifatida ota-onaning nufuzi muhim omilga aylansa, u holda ularning ishlab chiqarish korxona ($r=0,357$, $r\leq 0,01$, $r=0,316$, $r\leq 0,01$, $r=0,180$, $r\leq 0,05$) va tashkilotlari, xususiy firmalarda ($r=0,212$, $r\leq 0,05$, $r=0,165$, $r\leq 0,05$, $r=0,170$, $r\leq 0,05$) hamda shaxsiy psixologik xizmat markazlarida ($r=0,320$, $r\leq 0,01$, $r=0,388$, $r\leq 0,01$) faoliyat olib borishlarida asosiy ish joylari sifatida o'rin olmoqda. Talaba-psixologlarning muloqotchanligi kasbiy o'sishlari uchun asosiy omil vazifasini o'taydigan bo'lsa, u holda maktabgacha ta'lim muassasasi ($r=0,242$, $r\leq 0,01$), umumiy o'rta ta'lim maktablari ($r=0,220$, $r\leq 0,01$), tibbiy muassasalarda ($r=0,471$, $r\leq 0,01$), psixologik xizmat markazlarida ($r=0,348$ $r\leq 0,01$) faoliyat olib borishlarida eng maqbul ish o'rinlari bo'lishi korrelyatsion tahlil ko'rsatkichlarida o'z aksini topmoqda.

Aslida kirishimlilik barcha ish o'rinlari uchun muhimdir, ammo talabalarning o'zlarining javoblari o'rtasidagi statistik bog'liqlik shunday mazmundagi ko'rsatkichlarni taqdim etmoqda.

2.3.7-jadval

**Talaba-psixologlarning kasbiy muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bilan kasbiy faoliyat ob'yektlari
(ish joyi)ning o'zaro korrelyatsiyasi**

	Maktabgacha ta'lim muassasasi	Umumiy o'rta ta'lim, kasb- hunar kolleji	Tibbiyot muassasalari	Psixologik markazlar	Huquqni muhofaza qilish organlari	Boshqa muassasalar: korxonalar	Xususiy firmalar	Mehribonlik uylari	Shaxsiy psixologik xizmat markazi
Shaxsiy munosabatlari	-0,056	-0,081	-0,027	-0,106	-0,054	0,357**	0,212*	0,114	0,156
Ota-onaning nufuzi	0,069	0,021	-0,136	-0,003	0,017	0,316**	0,165*	0,187	0,320**
Ota-onalarning aloqalari	0,092	0,035	0,140	0,033	0,025	0,180*	0,170*	0,145	0,388**
Kirishimlilik	0,242**	0,220**	0,417**	0,348**	-0,005	-0,065	-0,014	-0,151	0,004
Yashash hududi	0,184*	0,128	0,142	0,063	0,186*	-0,115	-0,046	0,017	0,174*
Shaxsiy jozibadorligi	0,136	0,128	0,130	0,108	0,117	-0,065	-0,076	0,014	-0,102
Yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik	0,337**	0,236**	0,312**	0,368**	0,293**	0,324**	0,214*	0,221**	0,390**
Kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik)	0,080	0,173*	0,150	0,121	0,167*	-0,117	-0,113	-0,020	-0,034
Tashkilotchilik qobiliyatlari	0,166	0,152	0,121	0,058	0,054	0,084	0,068	0,027	-0,012
Xorijiy tilni bilishi	0,162	0,279**	0,337**	0,342**	0,101	0,247**	0,178*	0,039	0,312**

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$

Yashash hududlarining kasbiy o'sishdagi o'rnini maktabgacha ta'lim muassasalari ($r=0,186$, $r \leq 0,05$), huquqni muhofaza qilish organlari ($r=0,165$, $r \leq 0,05$) va xususiy psixologik xizmat markazi ($r=0,165$, $r \leq 0,05$)larini eng maqbul ish joylari bo'lishiga sabab bo'lar ekan.

Kasbiy bilim va tajribaning oshib borishi talaba-psixologlarning umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kolleji ($r=0,236$, $r \leq 0,01$), tibbiyot muassasalari ($r=0,312$, $r \leq 0,01$), psixologiya markazlari ($r=0,368$, $r \leq 0,01$), huquqni muhofaza qilish organlari ($r=0,293$, $r \leq 0,05$), boshqa muassasalar: korxonalar ($r=0,324$, $r \leq 0,01$), xususiy firmalar ($r=0,214$, $r \leq 0,05$), mehribonlik uylari ($r=0,221$, $r \leq 0,05$) va shaxsiy psixologik xizmat markazida faoliyat yuritishlarida ($r=0,390$, $r \leq 0,01$) shubhasiz xizmat faoliyat olib borishda qiyinchilikka duch kelmaydilar.

Kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik)ni rivojlantirishning ustuvor, muvaffaqiyatga erishish omili bo'lishi umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari ($r=0,173$, $r \leq 0,05$) psixolog sifatida faoliyat olib borishlarini kafolatlar ekan.

Tilga berilgan e'tibor ham ish faoliyatining muhim sharti sanaladi. Shu bois chet tilni o'rganisha turli yo'nalishlarda (umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kolleji) ($r=0,279$, $r \leq 0,01$), tibbiyot muassasalari ($r=0,337$, $r \leq 0,01$), psixologiya markazlari ($r=0,342$, $r \leq 0,01$), boshqa muassasalar: korxonalar ($r=0,247$, $r \leq 0,01$), xususiy firmalar ($r=0,178$, $r \leq 0,05$)da samarali ishlashga olib keladi.

§ 2.3. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portreti tuzilishida o'quv motivlarining o'rni

O'quv motivlarini o'rganishda A.A.Rean va V.A.Yakuninlarning «Talabalar o'quv motivatsiyasini o'rganish» testidan foydalanildi. Testning tahlilida uning ikki xususiyati orqali amalga oshirildi (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Talaba-psixologlar ijtimoiy-portretidagi o'quv motivatsiyasining ko'rsatkichlari

№	O'quv motivlar	Bosqichlar				Umu-miy rang	Ranjirovka
		1	2	3	4		
1	Yuqori malakali mutaxassis bo'lish	1,08	1,31	1,02	1,45	1,21	1
2	O'qishdan intellektual qoniqish olish	5,16	4,78	2,45	2,74	3,78	4
3	Keyingi bosqichlarni muvaffaqiyatli o'qish	3,21	4,12	3,5	12,1	5,73	9
4	Juda yaxshi o'qib, «a'lo» va «yaxshi» baholar olish	2,32	4,56	5,21	6,18	4,56	6
5	Doimo stipendiya olish	7,22	7, 01	6,92	9,5	7,65	12
6	Chuqur va mukammal bilimga ega bo'lish	1,07	1,45	1,24	1,53	1,32	2
7	Hamisha kelgusi darslarga tayyor bo'lib turish	5,47	7,42	8,14	8,06	7,27	11
8	O'quv fanlarini o'zlashtirishni susaytirmaslik	3,27	4,42	6,95	7,15	5,44	8
9	Guruhdoshlaridan ortda qolmaslik	6,56	12,12	13,24	7,75	9,91	13
10	Kelajakdagi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini ta'minlash	1,28	1,67	1,38	1,72	1,51	3
11	O'qituvchilarni talablariga javob berish	7,22	13,27	11,13	10,41	10,51	14
12	O'qituvchilarni hurmatiga sazovor bo'lish	3,15	5,18	6,31	10,6	6,31	10
13	Kursdoshlariga ibrat bo'lish	13,52	8,09	9,16	15,63	11,6	15
14	Ota-ona va atrofdagilarni ma'qullashlariga erishish	3,36	4,34	5,21	6,23	4,78	7
15	Yomon natijalar tufayli jamoa tanbehlaridan qochish	15,1	15,42	14,81	15,6	15,23	16
16	Diplom olish	3,20	3,78	4,38	4,96	4,08	5

Talaba-psixologlarning o'quv motivlari tahlilida ta'lim bosqichlari va rang ko'rsatkichi va o'rinlariga asoslanildi.

Talabala-psixologlarning o'quv-motivlarining quyidagi yo'nalishlarga ega:

Birinchi yo'nalishda o'quv motivi sifatida:

«yuqori malakali mutaxassis bo'lish» ishtiyoqi: 1,08; 1,31; 1,02; 1,45 va 1,21;

chuqur va mukammal bilimga ega bo'lish: 1,07; 1,45; 1,24; 1,53 va 1,32;

kelajakdagi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini ta'minlash-1,28, 1,67, 1,38, 1,72 va 1,51 qiymatlari bilan eng yuqori rang ko'rsatkichini namoyon etdi. O'z navbatida o'quv motivlari ranjirovkasida ham har uchala motivlar 1-3 rang ko'rsatkichiga ega bo'ldi. Ushbu motivlar talaba-psixologlarning mutaxassis sifatida kamol topishlari uchun zarur motivlar, oldilariga qo'ygan ijtimoiy kutilmalarga moslashuvini ta'minlaydi.

Talaba-psixologlar natijalarining o'quv motivlari tahlili quyidagicha ko'rinish oldi:

<i>o'qishdan intellektual qoniqish olish</i>	5,16; 4,78; 2,45; 2,74 va 3,78;
<i>diplom olish</i>	3,20; 3,78; 4,38; 4,96 va 4,08;
<i>juda yaxshi o'qib, «a'lo» va «yaxshi»</i>	2,32; 4,56; 5,21; 6,18 va 4,56;
<i>baholar olish</i>	

Mazkur ko'rsatkichlar esa yuqoridagi o'quv motivlarining mazmunan boyituvchi hisoblanadi. Chunki talaba-psixologlar o'zining faoliyat natijalaridan qoniqish olish, kelgusida kasbiy faoliyat uchun rasmiy tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lish va o'zining o'quv faoliyatini ijobiy natijaga ega. Navbatdagi o'rtachadan yuqori darajani aks ettiruvchi o'quv motivlari toifasiga to'rtta motivlar kiritildi. Mazkur motivlar ham talaba-psixologlarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiatini baholash imkoniyatini bergan:

ota-ona va atrofdagilarni ma'qullashlariga erishish: 3,36; 4,34; 5,21; 6,23 va 4,78;

o'quv fanlarini o'zlashtirishni susaytirmaslik: 3,27; 4,42; 6,95; 7,15 va 5,44;

keyingi bosqichlarni muvaffaqiyatli o'qish: 3,21; 4,12; 3,5; 12,1 va 5,73

o'qituvchilarni hurmatiga sazovor bo'lish: 3,15; 5,18; 6,31; 10,6 va 6,31

Talabalarining o'quv motivlarining ushbu jihatini oilaviy qadriyatlarning ajralmas qismi sifatida baholaganlar, ya'ni ota-ona va atrofdagilarning hamda o'qituvchilarining e'tirofiga sazovor bo'lish xarakterlangan. Bu holat ham talaba o'zining faoliyat natijalari uning ijtimoiy muhitdagi statusini belgilashini ko'rsatmoqda.

O'z navbatida talaba-psixologlar navbatdagi o'quv motivlar darajasida quyidagilarni baholaganlar:

hamisha kelgusi darslarga tayyor bo'lib turish: 5,47; 7,42; 8,14; 8,06 va 7,27

doimo stipendiya olish: 7,22; 7,01; 6,92; 9,5 va 7,65;

guruhdoshlardan ortda qolmaslik: 6,56; 12,12; 13,24; 7,75 va 9,91.

Talabaning hamisha kelgusi darslarga tayyor bo'lib turish va doimo stipendiya olishini ham ijobiy talqin etish mumkin. Ushbu motivlar ham talabaning kasbiy shakllanishi va psixolog sifatida kamol topishi uchun turtki ekanligini unutmaslik lozim. Chunki har bir shaxsning kasbiy kamolotining asosiy yo'nalishi farovon va yetarlicha moddiy ta'minlanganlik asosida yashash istagi bilan belgilanadi.

Talaba-psixologlarning o'rtachadan past darajasini quyidagi ikki o'quv motivlari qamrab oldi:

o'qituvchilarning talablariga javob berish: 7,22; 13,27; 11,13; 10,41 va 10,51

kursdoshlariga ibrat bo'lish: 13,52; 8,09; 9,16; 15,63 va 11,6.

Yuqoridagi holatdan kelib chiqib, talabalar o'quv motivlarining rang va ahamiyatlilik o'rniga ko'ra to'rt darajaga ajratildi. Biz talabalar o'quv motivlarining ijtimoiy-ahamiyatlilik darajasini shartli ravishda egallagan rang ko'rsatkichi hamda o'rniga ko'ra yuqori, o'rtachadan yuqori, o'rtacha va quyi deb ajratdik (2.3.2-jadval).

**Talabalar o‘quv motivlarining ijtimoiy-psixologik
ahamiyatlilik darajalari**

№	O‘quv motivlar	Umu- miy rang	Ranjirovka
JUDA YUQORI AHAMIYATGA EGA BO‘LGAN MOTIVLAR			
1	Yuqori malakali mutaxassis bo‘lish	1,21	1
6	Chuqur va mukammal bilimga ega bo‘lish	1,32	2
10	Kelajakdagi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini ta’minlash	1,51	3
2	O‘qishdan intellektual qoniqish olish	3,78	4
YUQORI AHAMIYATGA EGA BO‘LGAN MOTIVLAR			
16	Diplom olish	4,08	5
4	Juda yaxshi o‘qib, «a’lo» va «yaxshi» baholar olish	4,56	6
14	Ota-ona va atrofdagilarning ma’qullashlariga erishish	4,78	7
8	O‘quv fanlarini o‘zlashtirishni susaytirmaslik	5,44	8
O‘RTACHA AHAMIYATGA EGA BO‘LGAN MOTIVLAR			
3	Keyingi bosqichlarni muvaffaqiyatli o‘qish	5,73	9
12	O‘qituvchilarning hurmatiga sazovor bo‘lish	6,31	10
7	Hamisha kelgusi darslarga tayyor bo‘lib turish	7,27	11
5	Doimo stipendiya olish	7,65	12
QUYI AHAMIYATGA EGA BO‘LGAN MOTIVLAR			
9	Guruhdoshlaridan ortda qolmaslik	9,91	13
11	O‘qituvchilarning talablariga javob berish	10,51	14
13	Kursdoshlariga ibrat bo‘lish	11,6	15
15	Yomon natijalar tufayli jamoa tanbehlaridan qochish	15,23	16

Talaba-psixologlar o'quv-motivlarini tadqiq etish «O'quv motivlarini o'rganish» metodikasi empirik ko'rsatkichlari asosida talaba-psixologlar o'quv motivlari to'rtta darajali ko'rinishi aniqlandi:

Birinchi darajali faktorlar o'zining ahamiyatiga ko'ra «juda yuqori ahamiyatga ega bo'lgan motivlar» deb nomlanib, ushbu o'quv motivlari diapazoniga quyidagi o'quv motivlari kiritildi:

1	Yuqori malakali mutaxassis bo'lish	1,21	1
6	Chuqur va mukammal bilimga ega bo'lish	1,32	2
10	Kelajakdagi kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlash	1,51	3
2	O'qishdan intellektual qoniqish olish	3,78	4

O'quv motivlari va ularning empirik ko'rsatkichlarning taqdim etilishi ranglashtirish holatiga ko'ra birinchi va to'rtinchi o'ringa ega bo'lganlari inobatga olindi.

Talaba-psixologlar o'quv motivlarining navbatda empirik qiymatlar yuqori darajasidan iborat ekan. Ularning o'quv motivlari bo'yicha ko'rsatkichlari quyidagi ko'rinish oldi:

16	Diplom olish	4,08	5
4	Juda yaxshi o'qib, «a'lo» va «yaxshi» baholar olish	4,56	6
14	Ota-ona va atrofdagilarning ma'qullashlariga erishish	4,78	7
8	O'quv fanlarini o'zlashtirishni susaytirmaslik	5,44	8

Talaba-psixologlar o'quv motivlarining empirik qiymatlari o'quv jarayoni uchun tashqi faktorlarning ahamiyatini baholash ham e'tibordan chetda qolmagan. Bu esa «diplom olish» (5- rang), «juda yaxshi o'qib, «a'lo» va «yaxshi» baholar olish (6-rang), «Ota-ona va atrofdagilarning ma'qullashlariga erishish» (7-rang), «O'quv fanlarini o'zlashtirishni susaytirmaslik» (8-rang) kabi o'quv motivlariga taalluqli. Mazkur o'quv motivlari mazmunan ijtimoiy psixologik xarakterga ega. Shu bois ushbu o'quv motivining yuqori darajada e'tirof etilishiga sababni mutaxassislikning me'yoriy

hujjat bilan tasdiqlanishi nuqtai nazaridan tanlangan deyish mumkin. Aksincha, yuqori malakali mutaxassis bo'lish mumkin deb hisoblagani bilan uni e'tirof etadigan rasmiy hujjatning mavjud emasligi mavjud kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni tasdiqlab bermaydi.

Talaba-psixologlar o'quv motivlarining empirik ko'rsatkichlari o'rta darajasini aks ettiruvchilari quyida keltirilgan:

3	Keyingi bosqichlarni muvaffaqiyatli o'qish	5,73	9
12	O'qituvchilarning hurmatiga sazovor bo'lish	6,31	10
7	Hamisha kelgusi darslarga tayyor bo'lib turish	7,27	11
5	Doimo stipendiya olish	7,65	12


Har bir o'quv motivlarining namoyon bo'lish darajasi o'z o'rniga egaligi ularning alohida talqinida o'z ahamiyatini to'liq ko'rish «Keyingi bosqichlarni muvaffaqiyatli o'qish» (5,73, 9-o'rin), «O'qituvchilarning hurmatiga sazovor bo'lish» (6,31, 10-o'rin), «Hamisha kelgusi darslarga tayyor bo'lib turish» (7,27, 11-o'rin), «Doimo stipendiya olish» (7,65, 12-o'rin) o'quv motivlari ularning ijtimoiy psixologik portretida ijtimoiy tasdiqlovchi hisoblanadi. Ota-onalarning farzand faoliyatiga nisbatan kutilmalar ijobiy bo'lishi uchun namoyon bo'ladi. «Juda yaxshi o'qib, «a'lo» va «yaxshi» baholar olish» esa talaba-psixologlarning kursdoshlari tomonidan tan olinishining mezonini sanaladi. Bu guruh a'zolari orasida ijobiy baholashda xizmat qiladi. Agar salbiy baho olinganda edi, uning ta'lim jarayoni va kasbiy tayyorgarlik bosqichida atrofdagilar tomonidan ijobiy baholanishi uchun samimiy mulohaza bildirilmaydi.

9	Guruhdoshlaridan ortda qolmaslik	9,91	13
11	O'qituvchilarning talablariga javob berish	10,51	14
13	Kursdoshlariga ibrat bo'lish	11,6	15
15	Yomon natijalar tufayli jamoa tanbehlaridan qochish	15,23	16

Talaba-psixologlar o'quv motivlarining to'rtinchi guruhi esa quyi ahamiyatli motivlar hisoblanadi. Empirik ma'lumot darajasiga ko'ra talabalar o'quv motivlari talqini ularning qanday ahamiyat darajasida bo'lishidan qat'i nazar ijtimoiy psixologik

qimmatga egaligini bildiradi. Quyi ahamiyatli ko'rsatkichlar ham qaysidir ma'noda talabalarning kasbiy kamoloti uchun minimal darajada ta'sir ko'rsatadi. «Guruhdoshlardan ortda qolmaslik» (13-rang), «o'qituvchilarni talablariga javob berish» (14-rang), «Kursdoshlardan ibrat olish» (15-rang), «Yomon natijalar tufayli jamoa tanbehlaridan qochish» (16-rang) talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretining quyi darajasidir. Quyi ahamiyatlilik darajasidagi o'quv motivlari ham talabalarning kasbiy kamolotida o'z o'rniga ega. Metodikaning tuzilishi va baholash xususiyatidan kelib chiqilganda esa tafsilot yuqoridagi ko'rinishni oldi. Talaba-psixologlar o'zlarining mutaxassis sifatida o'sishlari uchun guruhdoshlardan ortda qolmaslik, talablarga javob berish, ibrat olish, jamoa tanbehidan qochish markaziy o'rin egallaydi.

Yakuniy tavsifi ifoda navbatdagi tasviriyl ifodaga keltirilgan (2.3.1-rasm).



2.3.1-rasm. Talaba –psixologlar o'quv motivlarining mazmuniy xususiyati va darajasiga ko'ra klassifikatsiyasi

3 rang va 5 rangga ega bo'lgan o'quv motivlari ahamiyatli bo'lib, yuqori malakali mutaxassis bo'lish (1,21), chuqur va mukammal bilimga ega bo'lish

(1,18), kelajakdagi kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlash (1,51), o'qishdan intellektual qoniqish olish (3,78) motivlari kiritildi.

Yuqori ahamiyatlilik darajali motivlariga 5-8 rang ko'rsatkichi hamda 16,4,14,8- o'rindagilar kiritildi. Ushbu motivlarning: diplom olish (4,08), juda yaxshi o'qib, «a'lo» va «yaxshi» baholar olish (4,56), ota-ona va atrofdagilarning ma'qullashlariga erishish (4,78), o'quv fanlar o'zlashtirilishini susaytirmaslik (5,44) motivlaridan iborat bo'ldi. Bunda ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi yagona motiv (o'qituvchilar hurmatiga sazovor bo'lish) bilan cheklanilganligi namoyon bo'ladi. Ushbu motiv ham fanlarni o'zlashtirish orqali o'qituvchilarning diqqat-e'tiborini qozonishga sababchi bo'ladi. Bu esa kundalik natijalarga erishish va ularni amalga oshirish ijtimoiy kutilmalarga nisbatan cheklanganligidan dalolat beradi.

Quyi daraja motivlariga esa 10-15 rang ko'rsatkichi hamda 13-16 o'rinlarni egallaganlari kiritildi. Guruhdoshlaridan ortda qolmaslik, stipendiya olish (10,1), o'qituvchilarning talablariga javob berish (10,47), yomon natijalar tufayli jamoa tanbehlaridan qochish (15,01) singari holatlar ushbu motivlarga xosdir.

§ 2.4. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretida qadriyatlarining o'rni

Qadriyatlar shaxsning maqsadi, ideallari va hayotda tutgan o'rni uning kasbiy kamolotida muhim o'rin tutadi. Talaba-psixologlar qadriyatlari tizimi kasbiy kamolotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talaba-psixologlarning kasbiy shakllanishida shaxsiy qadriyatlarning o'rnini belgilash tadqiqot vazifalaridan biridir. Navbatdagi tahlillarimiz mazkur masalani o'rganishga qaratiladi.

Qadriyatlar shaxs tuzilmasi, xususan, shaxsning ijtimoiy-psixologik portreti mohiyatini ifodalaydi.

Talaba-psixologning qadriyatlarining tahlili muammoning muhim jihatlarini tavsiflaydi. Talaba-psixologlarning kasbiy shakllanishidagi

qadriyatlari yo‘nalishi o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi tabiiydir. Ularning qadriyatlar yo‘nalishini «Qadriyatlar yo‘nalishi» so‘rovnomasi yordamida o‘rgandik. So‘rovnoma M.Rokichning qadriyatlar va rus olimi I.G. Seninning qadriyatlar yo‘nalishiga doir g‘oyalariga asoslanib shakllantirilgan.

So‘rovnoma shaxsning hayotiy maqsadlariga yo‘nalgan qadriyatlari va uning hayotiy g‘oyalari hamda xatti-harakatlarini ifodalovchi vositali qadriyatlarni o‘rganishga qaratilgan. So‘rovnomaning mohiyatini ifodalovchi qadriyatlarning tarkibida ham qadriyatlar yo‘nalishlari o‘rin olgan.

So‘rovnoma natijalari navbatdagi 2.4.1.-jadvalda keltirilgan. U talaba tabiatiga xos shaxsiy-kasbiy sifatlarning to‘liq tasavvur qilishini taqozo etadi.

Qadriyatlar yo‘nalishlari tarkibidagi qadriyatlar darajasi va hayotiy soha ko‘rsatkichlari uning xususiyatlarini ifodalagan. Empirik ko‘rsatkichlar tahliliga e‘tibor qaratilganda quyidagi izohlar ustuvor bo‘ldi.

1. *«Oliy nufuzga ega bo‘lishlik» qadriyati.* Ushbu qadriyat shaxsning ijtimoiy mavqei doirasida atrofdagilar va jamoatchilik talablariga amal qilib ish ko‘rishi va harakatlanishini ifodalaydi.

Talaba-psixologlarning ta‘lim bosqichlari bo‘yicha empirik ko‘rsatkichlariga muvofiq tahlil amalga oshirildi. Talaba-psixologlarning *«oliy nufuzga erishish» qadriyat yo‘nalishi* ko‘rsatkichlari (1-kurs (30,25), 2-kurs (29,15), 3-kurs (30,49), 4-kurs (32,13))dan iborat. Talaba-psixologlar ta‘lim bosqichlariga qaramasdan kasb tanlash g‘oyasiga ko‘ra yuqori mavqega va natijalarga ega. Bu esa ta‘lim yo‘nalishi talabalarini sohaning xususiyatiga ko‘ra yuqori ko‘rsatkichga xayrixohliklari ijtimoiy talablarga o‘zlarini moslashtirishga mansubliklarini anglatadi. Shaxsning hayotidagi shaxsiy farovonlikka xayrixohligi moddiy ta‘minlanganlikka moyillikning asosiy sharti hisoblanadi.

2.4.1.-jadval

Talaba-psixologlarning qadriyatlarini ko'rsatkichlari

№	Qadriyatlar	1 kurs		2 kurs		Styudent- t- mezoni	3 kurs		t	4-kurs		Styudent- t- mezoni	Umumiy o‘rtacha		
		M	σ	M	σ		M	σ		M	σ		M	σ	
MAQSADLI QADRIYatLAR															
1	Oliy nufuzga ega bo‘lish	30,25	1,76	29,15	4, 86	1,77	30,49	2,80	1,34	32,13	2,47	1,418	30,50	2,34	
2	Yuqori moddiy ta’minlanganlik	27,32	2,57	29,38	4,21	2,75*	31,36	2,94	2,66*	31,06	3,14	1,211	29,78	3,22	
3	Ijodkorlik	24,31	2,27	28,45	3,17	3,0**	27,55	2,61	2,79	29,54	3,68	-2,56*	27,46	2,93	
4	Faol ijtimoiy munosabat	25,21	2.42	31,57	3,28	3,90**	30,45	4,02	2,26	32,20	4,51	2,71*	29,85	3,56	
5	O‘z ustida ishlash	27, 12	1.93	28,33	3,11	1,74	29,52	2,77	-1,41	30,14	2,80	1,63	29,33	2,65	
6	Yutuqlarga yo‘nalganlik	30,14	2.63	31, 52	3,05	2,17	32,01	2,45	1,37	31,25	4,76	-0,707	31,13	3,22	
7	Ma’naviy qoniqish	28,30	1,85	31,09	2,38	1,96	31,06	4,63	1,63	29,02	3,07	0,874	29,02	2,98	
8	O‘zlikni anglash	31, 04	2.36	30, 74	2,61	-1,67	31,40	2,85	-0,24	30,45	3,90	-1,155	30,92	2,33	

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

2. «*Yuqori moddiy ta'minlanganlik*» qadriyat yo'nalishi. Talaba-psixologlarning «*yuqori moddiy ta'minlanganlik*» qadriyatlari yo'nalishi ko'rsatkichlari o'rtachadan yuqori qiymatlarga ega. Birinchi (27,32) va ikkinchi bosqich (29,38)ga nisbatan uchinchi (31,36) va to'rtinchi (31,06) bosqich talabalari qisman ustuvorlik ko'rsatkichiga ega bo'lgan. Hattoki, bu holat statistika jihatdan ham o'rtacha qiymatlarning tafovutini ko'rsatmoqda ($r \leq 0,05$). Talaba-psixologlarning yuqori moddiy ta'minlanganlikni ta'minlash bo'yicha tasavvurlari keyingi faoliyatlarida namoyon bo'lmoqda.

Kasbiy o'sishga erishmasdan moddiy ta'minlanganlik masalasi turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib qoladi. Yuqori moddiy ta'minlanganlikka intilishning pastligi ham mutaxassislik kamoliga ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi.

3. «*Ijodkorlik*» qadriyatlar yo'nalishi. Talaba-psixologlarning «*ijodkorlik*» qadriyatlar yo'nalishi bo'yicha empirik ko'rsatkichlarida ham o'rtacha bilan o'rtachadan yuqori qiymatlar xosligi kuzatildi: birinchi bosqich (24,31) va ikkinchi bosqich (28,45) ko'rsatkichlari orasida tafovutlar ham aniqlandi ($r \leq 0,01$); uchinchi (27,55) bilan to'rtinchi bosqich (29,54)larning ko'rsatkichida ham farqlar mavjud ekan ($r \leq 0,05$). Talabalarning ijodkorlik imkoniyatlari ta'lim bosqichlariga ko'ra emas, balki ularning shaxsiy intilishlariga bog'liqdir. Chunki kasb tanlash va kasbiy tayyorgarlik bosqichidagi o'quv motivlarining shakllanganlik xususiyati belgilovchi rol o'ynashini yana bir eslash o'rinlidir. O'tgan bobdagi 2.3.paragraflarga kasb tanlash sabablari va dissertatsiyaning 3.1.-paragrafdagi o'quv motivlarining to'g'ri shakllantirilganligi mutaxassis sifatida kamol topishini belgilaydi.

4. «*Faol ijtimoiy munosabat*» qadriyati. Talaba-psixologlarning «*faol ijtimoiy munosabat*» qadriyati shaxslararo munosabat xususiyati, muloqotchanlik va ijtimoiy mavqeidan tashkil topgan. Mutaxassis bo'lish istagidagi har bir kasb tanlovchi ushbu qadriyatning mohiyatini anglab yetishi muhimdir. Ushbu qadriyat yo'nalishi bo'yicha empirik ko'rsatkichlar

talaba-psixologlarning qadriyatlarida o'ziga xoslikni namoyon etmoqda. Ayrim o'rinlarda psixologiya sohasini tanlashdagi tashqi va ichki motivlarning o'zni buni belgilaydi. Bizning tadqiqotimizda birinchi bosqich talabalari (25,21) hali «*faol ijtimoiy munosabat*» qadriyatining ahamiyatini o'rtacha baholagan bo'lsalar, ikkinchi bosqich (31,57), uchinchi bosqich (30,45) va to'rtinchi bosqich (32,20) nisbatan ustuvor qiymatga ega bo'ldi. Bu holat ta'lim bosqichlaridagi kasbiy tayyorgarlik, «talaba-talaba», «o'qituvchi-talaba», «talaba-o'quv predmetlari», «talaba-tadbirlar», «talaba-ta'lim muassasa ma'muriyati» tizimidagi munosabatlar ta'sirida o'sishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Ushbu munosabat tizimi talabadan muloqotchanlik, kirishimlilik, ijtimoiy munosabatlarda o'z mavqeiga ega bo'lish tasavvurini va ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun talaba-psixologlarning faol ijtimoiy munosabatlarda bo'lishlari uchun shijoatkor, kirishimli va muloqatchan bo'lishlarini talab qiladi.

5. «*O'z ustida ishlash qadriyati*» yo'nalishi shaxsning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga, imkoniyat va qobiliyatlarini kamol toptirishiga yo'naltirilgan. Bir jihatdan ushbu qadriyat «ijodkorlik» qadriyatining uzviy davomi deyish mumkin. Talaba-psixologlarning bu qadriyatlar yo'nalishida ham o'rtachadan yuqori qiymatlarni: birinchi bosqich (27,12), ikkinchi bosqich (28,33), uchinchi bosqich (29,52) va to'rtinchi bosqich (30,14) talabalarining natijalarida ifodalandi. Shaxs imkoniyatlarini yuzaga chiqarish pozitsiyasidan qaraganda talaba-psixologlar uchun yuqori talabchanlik va intilish zarur hisoblanadi.

6. «*Yutuqlarga yo'nalganlik*» qadriyat yo'nalishi. Talaba-psixologlarning «yutuqlarga yo'nalganlik» qadriyat yo'nalishi ham boshqa qadriyatlar yo'nalishi singari o'rtachadan yuqori ko'rsatkichlar diapazonidan namoyon bo'ldi (birinchi bosqich (30,14), ikkinchi bosqich (31,52), uchinchi bosqich (32,01) va to'rtinchi bosqich (31,25) talabalari). Yuqori yutuq va muvaffaqiyatga intilish qadriyatlari ham talaba shaxsida ma'lum daraja boshqa qadriyatlarga qaraganda yetakchilik qilmoqda.

7. «Ma'naviy qoniqish» qadriyati. Talaba-psixologlarning «ma'naviy qoniqish» qadriyat yo'nalishi natijalari ham qolgan barcha qadriyatlari singari miqdoriy ko'rsatkichlarni namoyon etdi: birinchi bosqich (28,30), ikkinchi bosqich (31,09), uchinchi bosqich (31,06) va to'rtinchi bosqich (29,02) talabalari o'zlari qiziqqan kasbga va manfaatdor bo'lgan hamda qoniqadigan hayot sohalariga ega emaslar.

«Qadriyatlar yo'nalganligi» metodikasining tarkibiy tuzilmasidagi maqsadli qadriyatlar bilan hayotiy sohaning natijalari o'zaro aloqadordirlar. 2.4.2-jadvalda talaba-psixologlarning maqsadli va vositali qadriyatlar yo'nalishlarining korrelyatsion munosabatlari taqdim etilgan.

2.4.2- jadval

Talaba-psixologlarning «Qadriyatlar yo'nalganligi» metodikasining komponentlari o'rtasidagi korrelyatsion koeffitsientlari

Qadriyatlar	Kasbiy hayot	O'qish - ta'lim	Oilaviy hayot	Ijtimoiy hayot	Qiziqishlar
Shaxsiy istiqbol	0,436**	0,367*	0,352*	0,296*	0,318*
Yuqori moddiy ta'minlanganlik	0,315*	0,110	0,528**	0,146	-0,138
Ijodkorlik	0,189*	0,322*	-0,174	0,111	0,333*
Faol ijtimoiy munosabatlar	-0,130	0,201	0,183	0,627**	0,159
O'z ustida ishlash	0,502**	-0,009	0,361**	0,200	0,285*
Yutuqlarga yo'nalganlik	-0,010	-0,241*	0,431**	0,371*	0,388*
Ma'naviy qoniqish	0,327*	0,247*	0,604**	-0,146	-0,070
O'zlikni anglash	0,322*	0,368*	0,378*	0,299*	-0,101

Izoh:*p<0,05; **p<0,01

Talaba-psixologlarning maqsadli qadriyatlar yo'nalishi bilan hayot sohalarini ifodalovchi vositali qadriyatlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik o'ziga xoslikni namoyon qildi.

Talaba-psixologlarning «shaxsiy istiqbol»ga qaratilgan qadriyatlari hayot sohalaridagi boshqa qadriyatlar bilan ham ijobiy, ham salbiy

bog'lanish hosil qilgan. «Shaxsiy istiqbolga erishish» «o'quv-ta'lim» sohasining bir bo'lagi ekanligini talabalar e'tirof etganlar. Ular bu borada ijobiy korrelyatsiyaga ega bo'lsalar-da, ularning ishonchlilik darajasi yetarlicha emas ($r = 0,367$, $p < 0,05$).

Shaxsning istiqboli bir jihatdan uning ta'lim-tarbiya jarayonidan samarali foydalanganligi, mutaxassislik uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi hamda shaxsiy fazilatlarni shakllantirib borishiga ham bog'liq.

Qadriyatlar borasidagi shaxsiy istiqbollari bilan bog'liq munosabatlarida «oilaviy hayot» ($r = 0,352$, $p < 0,5$) va «ijtimoiy hayotdan» ($r = 0,296$, $p < 0,05$) va «qiziqishlar» ($r = 0,318$, $p < 0,5$) ijobiy bog'lanishga ega. Ularning qadriyatlar, shaxsiy yo'nalganliklari (keyingi jadvallarda ham qadriyatlar bilan yo'nalganlik o'rtasidagi allqadorlik) kasbiy kamolotning ajralmas qismi ekanligini tasdiqlamoqda.

Ularning «yuqori moddiy ta'minlanganlik» bilan «o'quv-ta'lim» ($r = 0,315$, $p < 0,05$) va «oilaviy hayot» ($r = 0,528$, $p < 0,01$) qadriyatlari o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjud. Shunday bo'lsa ham talaba-psixologlarning bu yo'nalishlar bo'yicha tasavvurlarini ancha sodda ko'rinishga ega deyish o'rinlidir.

«Ijodkorlik» qadriyati bo'yicha qo'lga kiritgan ko'rsatkichlari «o'quv-ta'lim» ($r = 0,322$, $p < 0,05$) va «qiziqishlar olami» ($r = 0,333$, $p < 0,05$) qadriyatlari bilan musbat korrelyatsiyani aks ettirgan, ammo ular to'liq ravishda ijodkorlikni ta'lim-tarbiya jarayoni, qiziqishlar olami belgilashini e'tirof eta olmayaptilar. Ularning bunday holatga tushganligini o'zlarining shaxsiy va tabiiy imkoniyatlariga mos kasbni tanlamaganliklari bilan izohlasa bo'ladi.

Talaba-psixologlarning «o'z ustida ishlash» borasidagi qadriyatlari «kasbiy hayot»ning ajralmas qismi ($r = 0,502$, $p < 0,01$), «oilaviy hayot»ning mustahkamlash sharti ($r = 0,361$, $p < 0,01$) va bularga «qiziqishlar»ining

ustuvorligi ($r=0,285$, $p<0,05$) hisobida ta'minlash tasavvuriga egaliklarini anglatadi.

Ammo talaba-psixologlar yutuqlarga erishish har doim ham o'qish-ta'lim jarayoni bilan bog'liq emas degan xulosaga kelganlar ($r=-0,241$, $p<0,05$). Bu bir jihatdan kasbiy tayyorgarlikda nazariya bilan amaliyoti o'rtasidagi uyg'unlik ta'minlanmasligi tufayli shunday xulosalarga sabab bo'layotgandir. Shunday bo'lsa-da, talaba-psixologlar yutuqlarga erishish qadriyatlari «oilaviy hayot» ($r=-0,431$, $p<0,01$), «ijtimoiy hayot» ($r=0,371$, $p<0,05$) va «qiziqishlar» ($r=0,388$, $p<0,05$) o'rtasidagi ijobiy aloqalarning ifodasi sifatida tasavvur qiladilar.

Talaba-psixologlar «kasbiy hayot» ($r=0,327$, $p<0,05$), «o'qish-ta'lim» ($r=0,247$, $p<0,05$) va «oilaviy hayot» ($r=0,604$, $p<0,01$) kasbiy o'sish uchun ma'naviy qadriyatlarning namoyon bo'lishining muhim mezon sifatida ko'ra olmoqdalar.

Respondentlar «kasbiy hayot» ($r=0,322$, $p<0,05$) , «o'qish-ta'lim» ($r=0,368$, $p<0,05$) , «oilaviy hayot» ($r=0,378$, $p<0,05$) va «ijtimoiy hayot» ($r=0,299$, $p<0,05$) «o'zlikni anglash»da muhim ekanligini tushunib yetganlar. Talaba-psixologlarning kasbiy shakllanishi jarayonida qadriyatlarga nisbatan munosabatlari ijobiy xarakterga egaligidan dalolat bermoqda.

Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portreti ular kasbiy kamolotining munosibligi borasidagi muammolarini Dj.Kellining shaxs konstruktleri psixologiyasidagi samarali faoliyatni uch bosqichga bog'lab tushuntirgan g'oyalari bilan bog'lash mumkin. Inson o'ziga mos xulq-atvor yo'nalishini tanlaydi. Bu yo'nalishdagi xatti-harakatlar uch bosqichdan, ya'ni mo'ljal olish, tanlash va ijro etishdan iborat.

Mutaxassislarning qadriyatlari bilan ularning shaxsiy yo'nalganliklari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar ancha farqli ko'rsatkichlarni namoyon etdi (2.4.3- jadval).

2.4.3- jadval

Talaba-psixologlarning qadriyatlar yoʻnalishi va ularning shaxsiy yoʻnalganliklari oʻrtasidagi korrelyatsion bogʻlanishlar

	Qadriyatlar yoʻnalishlari	Oʻziga	Insonlarga	Faoliyatga
1.	Shaxsiy istiqbol	0,529**	0,257*	0,543**
2.	Yuqori moddiy taʼminlanganlik	0,335*	0,178	0,381*
3.	Ijodkorlik	0,378*	0,425**	0,347*
4.	Faol ijtimoiy munosabat	0,124	0,336*	0,298*
5.	Oʻz ustida ishlash	0,287*	0,265*	-0,023
6.	Yutuqlarga yoʻnalganlik	0,159*	0,456**	0,145*
7.	Maʼnaviy qoniqish	0,026	0,437**	-0,084
8.	Oʻzlikni saqlash	0,341*	-0,157	0,211

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$

Talaba-psixologlar «yuqoriy moddiy taʼminlanganlik» bilan «oʻziga» ($r=0,335$, $r < 0,01$) va «faoliyatga» yoʻnalganlik ($r=0,381$, $r < 0,01$) oʻrtasidagi ijobiy bogʻliqliklarni ifodalashlarini kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida baholaganlar. Ularning kelgusida kasbiy oʻsishga erishishda faoliyat natijalarini koʻra olishi (oʻzining moddiy taʼminlanishini hisobga olgan holda) va faoliyatning maqsadli yoʻnaltirish hisobiga erishishi mumkinligini prognoz qilmoqdalar.

Talaba-psixologlarning qadriyatlararo korrelyatsiyada ham «ijodkorlik» ahamiyatli koʻrsatkichlarni qayd etgan edi. Ularning ijodkorlik qadriyati oʻziga ($r=0,378$, $r < 0,05$), insonlar ($r=0,425$, $r < 0,01$) va faoliyatga ($r=0,543$, $r < 0,01$) yoʻnalganlik bilan bejizga ijobiy aloqadorliklarga ega ekanligini koʻrsatmoqda. Talaba-psixologlar oʻzlarining sohalari doimo oʻsib boruvchi va davrga hamohang boʻlishi oʻziga yoʻnalganlikni ($r=0,378$, $r < 0,05$) va oʻz ustida muttassil ishlashlari kerakligini belgilaydi.

Shuningdek, insonlarga yo‘nalganlikda ($r=0,425$, $r<0,01$)gi ijodkorlik esa har bir shaxsga nisbatan noyoblik, o‘ziga xoslik va samimiy munosabat o‘rnatish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ijodkorlik qadriyati bilan faoliyatga yo‘nalganlikdagi korrelyatsiya esa ($r=0,347$, $r<0,05$) psixolog sohasi doimiy o‘shishni taqazo etadi, yangi uslublarga zarurat sezadi, kasbiy faoliyat doimiy dinamikaga zarurat borligini anglaganliklari oqibati deyish mumkin.

Talaba-psixologlar qadriyatlari bilan yo‘nalganliklari:

faol ijtimoiy munosabatning «insonlar» ($r=0,336$, $r<0,05$) va «faoliyat»ga ($r=0,298$, $r<0,05$);

o‘z o‘stida ishlash «insonlar» ($r=0,287$, $r<0,05$) va «faoliyat»ga ($r=0,265$, $r<0,05$);

yutuqlarga yo‘nalganlik qadriyati «o‘ziga» ($r=0,159$, $r<0,05$) «insonlar» ($r=0,456$, $r<0,01$) va «faoliyat»ga ($r=0,145$, $r<0,05$) yo‘nalganlikdagi ijobiy korrelyatsiyalar bejizga emas. Talaba-psixologlarning kasbiy kamoloti shaxs sifatida yo‘nalganlik bilan mazmuniy bog‘lanishlar hosil qilganda ijobiy natijalar taqdim etadi.

Talaba-psixologlarning o‘zlikni saqlashlari uchun esa o‘ziga yo‘nalganlik muhim ekan ($r=0,341$ $r<0,05$) (2.4.3.- jadval).

Bo‘lg‘usi mutaxassislarning timsolida (ijtimoiy-psixologik portreti) kasbiy faoliyati uchun zarur timsolni izohlovchi jabhalarning ahamiyatini navbatdagi bobda o‘rganiladi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Rasmiy-dinamik xususiyatlari, shaxs qirralari, qadriyatlar tizimi, kasb tanlash va o‘quv faoliyati motivlari mutaxassislarning (talaba-psixolog) timsolini (ijtimoiy-psixologik portret) amaliy baholash me‘ryolari ekanligi aniqlandi.

2. Tadqiqot metodikalarini qo‘llashda ularning psixometrika talabalariga javob berishiga alohida e‘tibor qaratildi. O‘z navbatida

metodikalar tanlashda mahalliy tadqiqotlarda qo'llanilganligi muhim shart sifatida qabul qilindi.

3. Uch xil darajadagi kasb-tanlash sabablari aniqlandi. Psixolog bo'lish xushli va e'tirofliligi kasb tanlashlarida; o'zga kishilarga ko'maklashish yetakchi omil, vaziyat taqozosi bilan, psixolog faoliyati: ish vaqti, mas'uliyati, faoliyat turi va vazifalarining mosligi, psixologning tashqi ko'rinishi: imiji, kiyinish uslubini yoqtirish; psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilishi kasb tanlashlarining quyi darajali sabablari ekanligi kuzatildi.

4. Kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishda ikki darajadagi motivlar aniqlandi: kirishimlilik; yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik yetakchi omil hisoblanganda esa hamkasblari bilan hamkorlik; ota-onaning nufuzi; yashash hududi; shaxsiy jozibadorligi; kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik); tashkilotchilik qobiliyatlari; xorijiy tilni bilishi; shaxsiy munosabatlari esa o'rtacha darajada ta'sir ko'rsatuvchi sifatida empirik jihatdan asoslandi.

5. Yuqori o'quv motivlari sifatida mutaxassislarning o'z sohasini egallashini tavsiflovchi to'rtta guruh o'quv motivlari aniqlandi: kasbiy faoliyat mohiyatini anglashga xizmat qiluvchi o'quv motivlari juda yuqori, ijtimoiy kutilmalar va munosabatlari bilan bog'liq, faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy e'tirof etish hamda moddiy ta'minlashni ifodalovchi o'quv motivlari o'rtacha, o'quv faoliyati va ijtimoiy munosabatlardagi cheklanishlarni tavsiflovchi quyi darajali o'quv motivlari ekanligi empirik asoslanildi.

6. Mutaxassis (talaba-psixolog)larning timsolini oliy nufuzga erishish qadriyat yo'nalishi, yutuqlarga yo'nalganlik» qadriyat yo'nalishlari yuqori qadriyatlar yo'nalishlari sifatida dalillangan.

III BOB. TALABA-PSIXOLOGLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK PORTRETINING KASBIY SHAKLLANISHDAGI AHAMIYATINI EMPIRIK O‘RGANISH

§ 3.1. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portreti va kasbiy shakllanishini tavsiflovchi psixologik xususiyatlari

V.M.Rusalovning temperament xususiyatlarini o‘rganishga usuli orqali mutaxassislar (talaba-psixologlar) timsolini (ijtimoiy-psixologik portreti) o‘rganiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra «temperament – psixosotsiobiologik kategoriya bo‘lib, insonning mazmuniy xususiyatlarining butun boyligini belgilovchi psixikaning mustaqil asosiy hosilalaridan biridir» deb izohlanadi. Yo‘nalishga ko‘ra ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish bilan bog‘liq holatda V.M.Rusalovning «Individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlarini o‘rganish so‘rovnomasi»dan foydalanamiz. So‘rovnomaning to‘liq tafsiloti dissertatsiyaning ikkinchi bobida yoritilgan (qaralsin).

Mazkur metodikaning psixomotor sohasining baholash shkalalari shaxs psixikasining tabiiy quvvati va imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi. Metodikani tadqiq etilayotgan muammoni o‘rganishga yo‘naltirishimizga asosiy sabab intellekt sohasi bilan kommunikativ sohadagi shkalalarining ijtimoiy ahamiyatga mansub xususiyatlarni tadqiqotiga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. So‘rovnomaning tatbiqi qo‘llanilishi bo‘yicha empirik ko‘rsatkichlar 3.1.1-jadvalda aks etgan.

Talaba-psixologlar psixikasining tabiiy xususiyatlarini aks ettiruvchi psixomotor sohasidagi erglik (30,74 ball), plastiklik (32,26 ball), tezlik (32,36 ball) va emotsionallik (30,26 ball) quyidagicha ma’no kasb etadi, ya’ni:

bajarish tezligi o‘rtacha;

intellekt sohasidagi emotsionallik – aqliy zo‘riqlashlarni talab etuvchi ishdagi omadsiz holatlarda emotsional kechinmalarining ifodalanishi o‘rtacha.

3.1.1-jadval

Talaba-psixologlarning individual xususiyatlarining umumiy ko‘rinishi

Shkalalar	X	σ	t-Styudent mezon
Psixomotor soha			
Erglik (MER)	30,47	5,52	71,67***
Plastiklik (MP)	30,8	5,30	75,61***
Tezlik (MT)	32,36	5,48	76,78***
Emotsionallik (ME)	30,26	5,01	78,65***
Intelлект sohasi			
Erglik (IER)	28,51	4,20	88,19***
Plastiklik (IP)	28,32	6,25	58,86***
Tezlik (IT)	31,05	6,51	61,97***
Emotsionallik (IE)	29,84	5,54	70,01***
Kommunikativ soha			
Erglik (KER)	31,19	4,84	83,43***
Plastiklik (KP)	25,68	6,29	53,03***
Tezlik (KT)	27,75	6,56	54,92***
Emotsionallik (KE)	25,34	6,61	49,82**

Izoh:***p<0,001

muskul tonusi me’yorda, odatdagi harakat faolligiga ega, jismoniy zo‘riqlashlarga o‘rtacha intiluvchan, muskullarining ish qobiliyati o‘rtacha;

bir jismoniy mehnatdan ikkinchisiga o‘tuvchan, har xil mehnat muhitiga va har xil qo‘l mehnatiga o‘rtacha darajada moyil;

motor-harakat operatsiyalarni bajarish tezligi o‘rtacha;

qo‘l mehnatini bajarishga nisbatan omadsizlikliklarga o‘rtacha sezgir, ishni rejalashtirish va uning real amalga oshirilishi o‘rtasidagi nomuvofiqlik mavjud. Jismoniy mehnatdagi omadsizliklarda emotsional kechinmalari odatdagi intensivlikda kechadi.

Intelлект sohasiga ko‘ra xususiyatlari orqali talaba-psixologlarning xususiyatlarini quyidagicha tavsiflash o‘rinlidir: intellekt bo‘yicha erglik-intellektual imkoniyatlari o‘rtacha, aqliy zo‘riqlashlarni talab etuvchi faoliyatga nisbatan intilishlari o‘rtacha; intellektdagi plastiklik-tafakkurning egiluvchanligi me’yorda, har xil intellektual faoliyat shakllariga intilishi

o‘rtacha; intellektual tezlik – aqliy faoliyatda intellektual operatsiyalarni bajarish tezligi o‘rtacha; intellekt sohasidagi emotsionallik- aqliy zo‘riqlashlarni talab etuvchi ishdagi omadsiz xolatlarda emotsional kechinmalarining ifodalanishi o‘rtacha.

Kommunikativ soha bo‘yicha xususiyatlari esa quyidagicha: kommunikativ erglik – muloqotga bo‘lgan ehtiyoji, munosabatlari doirasi, intiluvchi, muloqotchanlik o‘rtacha; kommunikativ sohadagi plastiklik – muloqotga tayyorligi me‘yorda, yangi ijtimoiy aloqalarga intilishi o‘rtacha toifali inson; kommunikativ sohadagi jadallik – nutqning ifodalanish tezligi odatdagi holatda, fikrlarni me‘yorda ifodalaydi; kommunikativ sohadagi emotsionallik – muloqotdagi omadsizliklarni o‘rtacha emotsional kechinmalarda boshdan o‘tkazadi. Shaxslararo munosabatlarga sezgirligi tipik insonlarga xos, quvonchini o‘rtacha ifodalaydi va ijtimoiy aloqalarda o‘ziga ishonchi o‘rtacha.

Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ega xususiyatlarini tahlil qilishdan oldin ularning psixomotor sohasi hamda uning umumiy faollik indeksini aniqlashni lozim topdik. Buning uchun korrelyatsiya tahliliga murojaat qilindi. Korrelyatsiya tahliliga ko‘ra psixomotor soha komponentlari bilan intellekt va kommunikativ soha komponentlari o‘zaro qiyosiy taqqoslandi (3.1.2-jadval):

3.1.2-jadval

Talaba-psixologlarning psixomotor sohasi bilan intellekt sohalari o‘rtasidagi korrelyatsiya

Psixomotor sohasi	Shkalalar	Intellekt sohasi			
		Erglik (IER)	Plastiklik (IP)	Tezlik (IT)	Emotsionallik (IE)
	Erglik (MER)	0,306**	0,262**	0,463**	0,293**
	Plastiklik (MP)	0,340**	0,108	0,218**	0,347**

	Tezlik (MT)	0,303**	0,435**	0,350**	0,325**
	Emotsionallik (ME)	0,320**	0,189*	0,359**	0,336**

Izoh: ** $p < 0,01$

Psixomotor erglik shkalasi intellekt sohasining erglik ($r=0,360$, $r \leq 0,01$), plastiklik sohasi ($r=0,262$, $r \leq 0,01$), tezlik ($r=0,463$, $r \leq 0,01$) va emotsionallik ($r=0,293$, $r \leq 0,01$) o‘zaro ijobiy korrelyatsiya hosil qilgan. Bu esa talaba-psixologlar psixikasining tabiiy xususiyatlaridagi yetakchi xossalar intellekt sohasi bilan uyg‘unlashish imkoniyatiga ega.

Bir jihatdan intellekt xususiyatlari ham inson psixikasining tabiiy asoslariga ega ekanligi tufayli ijobiy korrelyatsiya bog‘lanishini hosil qilmoqda. Ikkinchi jihati esa talaba-psixologlarning psixomotor va intellekt sohalarida birgina korrelyatsiya bog‘lanish hosil bo‘lmadi. Bu esa ularning plastiklik komponentlari o‘rtasida korrelyatsiya bog‘lanishni mavjud emasligida kuzatildi. Psixikaning jismoniy plastiklik xususiyati o‘z navbatida intellektidagi plastiklik xususiyatlar uchun asos bo‘lib xizmat qilar ekan. Bu ikki jihat o‘zaro aloqadorlikka egadir. Deyarli psixomotor va intellekt sohasidagi boshqa barcha komponentlarda ijobiy korrelyatsiya kuzatildi.

Talaba-psixologlarning psixomotor va kommunikativ sohalari o‘rtasidagi korrelyatsiya esa yanada o‘ziga xoslikni aks ettirmoqda. Biz metodikaning tadqiqot usuli sifatida tanlashimizga asosiy sabab kommunikativlikni baholash mezoni borligi tufayli deb izohlagandik. Kommunikativlik esa shaxslararo munosabatlar jarayonda insonlarning o‘zaro ta’sirlashuvi xususiyatlarini ifodalaydi (3.1.3.-jadval).

3.1.3-jadval

Talaba-psixologlarning psixomotor sohasi bilan kommunikativ sohalari o‘rtasidagi korrelyatsiya

Psixomotor sohasi	Shkalalar	Kommunikativ sohasi			
		Erglik (KER)	Plastiklik (KP)	Tezlik (KT)	Emotsionallik (KE)
	Erglik (MER)	0,220**	0,289**	0,453**	0,304**

	Plastiklik (MP)	-0,056	0,100	0,016	0,161*
	Tezlik (MT)	-0,031	0,165*	0,092	0,217**
	Emotsionallik (ME)	-0,089	0,116	0,056	0,147

*Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$*

Psixomotor va kommunikativ sohalarining ko'rsatkichlari o'rtasida o'zaro korrelyatsiyalarda psixomotor sohadagi erglik kommunikativ sohaning ergligi ($r=0,262$, $r \leq 0,01$), plastiklik ($r=0,289$, $r \leq 0,01$), tezlik ($r=0,453$, $r \leq 0,01$) va emotsionallik ($r=0,304$, $r \leq 0,01$) komponentlari bilan ijobiy korrelyatsiya munosabatlarini hosil qilmoqda. Bu esa psixomotor sohadagi tabiiy quvvat kommunikativ sohadagi barcha komponentlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Bu esa psixika, insonning jismoniy salomatligi uning ijtimoiy sohadagi faoliyati uchun muhimligini ko'rsatadi.

Bo'lg'usi mutaxassislarning harakat sohasidagi egiluvchanlik (plastiklik) bilan mulqot (kommunikativ) sohadagi kuch-g'ayrat (erglik), egiluvchanlik (plastiklik), tezlik o'zaro bog'liqlikka ega. Hissiy soha (emotsional) bilan quyi ijobiy bog'lanishga ega ($r=0,161$, $r \leq 0,05$). Mutaxassislarning egiluvchanlik (plastikliklik) bilan kommunikativ sohadagi hissiyot orasida to'g'ri korrelyatsiya munosabati xursandchilikning o'rtacha darajasi hisobida sezgirlik tipik insonlarga xosdir. Quvonchning o'rtacha darajasi orqali ijtimoiy aloqalarda o'ziga ishonchga ega ekan. Muloqotchanlik mutaxassis ijtimoiy qiyofasi uchun muhim xususiyatdir.

Shuningdek, ularning psixomotor sohasidagi tezlik bilan intellekt sohasidagi plastiklik ($r=0,165$, $r \leq 0,05$) va emotsionallik ($r=0,217$, $r \leq 0,01$) komponentlari o'rtasida ham ijobiy korrelyatsiyalar aniqlandi.

Kommunikativ sohasi bilan intellekt sohasidagi komponentlari orasidagi korrelyatsiya quyidagi ko'rsatkichlar taqdim etilgan jadvallarda kuzatildi (3.1.4-jadval).

Kommunikativ va intellekt sohalaridagi komponentlar o'rtasida bir qator ijobiy aloqalar mavjud ekan. Shaxsning intellekt sohasi bilan kommunikativ sohalar o'rtasidagi bog'liqlikning real holatini ifodalamoqda. Bu esa zehn va munosabat xususiyatlari kasbiy-shaxsiy o'sishning asl tabiatini hosil qiladi.

3.1.4-jadval

Talaba-psixologlarning intellekt sohasi bilan kommunikativ sohalar o'rtasidagi korrelyatsiya ko'rsatkichlari

Intellekt sohasi	Shkalalar	Kommunikativ sohasi			
		Erglik (KER)	Plastiklik (KP)	Tezlik (KT)	Emotsionallik (KE)
	Erglik (IER)	0,435**	0,368**	0,286**	0,430**
	Plastiklik (IP)	0,125	0,266**	0,013	0,061
	Tezlik (IT)	0,155*	0,312**	0,218**	0,177*
	Emotsionallik (IE)	0,218**	0,308**	0,110	0,053

Izoh:*p<0,05; **p<0,01

Bo'lg'usi mutaxassislarni ayni damdagi kasbiy tayyorgarlik bosqichida intellekt sohasidagi erglikning o'sishi hisobida kommunikativ sohada yangi muloqot muhitiga oson kirishishi, muloqot usullarini yaxshi o'zlashtirishi va tatbiq etishini ta'minlashida intellekt sohasi bilan o'zaro bog'lanish hosil qilishi lozim. Shu maqsadda talaba-psixologlarning intellekt va kommunikatsiya sohasi o'rtasidagi korrelyatsiya aniqlandi. Talaba-psixologlarning intellekt sohasidagi erglik kommunikativ sohasidagi erglik ($r=0,435$, $r \leq 0,01$), plastiklik ($r=0,368$, $r \leq 0,01$), tezlik ($r=0,286$, $r \leq 0,01$) va emotsionallikning ($r=0,430$, $r \leq 0,01$) rivojlanishiga xizmat qiladi.

Intellekt sohadagi plastiklik ham kommunikativ sohasidagi plastiklik ($r=0,266$, $r\leq 0,01$) bilan o‘zaro aloqadorlikka ega ko‘rinish hosil qildi.

Intellekt sohasidagi tezlik esa kommunikativ sohadagi erglik ($r=0,155$, $r\leq 0,05$), plastiklik ($r=0,312$, $r\leq 0,01$), tezlik ($r=0,218$, $r\leq 0,01$) va his-tuyg‘ular ($r=0,177$, $r\leq 0,05$) bo‘lg‘usi mutaxassis o‘ziga xosligining tipik fazilatlarini aks ettiruvchi yaqqol tizim hisoblanadi. Ushbu timsolni hosil qiluvchi tizim mutaxassis qiyofasining tafsilotini yakdil ifodalab beradi.

Bo‘lg‘usi mutaxassislarning intellekt va kommunikativ sohasidagi harakatchanlik mutaxassislik faoliyatida o‘zaro munosabatlar, atrofdagilar bilan aloqalarda qo‘l keladigan mulozamatlarni ishlatishga xayrixohlar. Nutqni verbal, fikrlarni silliq va izchillikda ifodalashda qiynalmaydi.

Intellekt sohasidagi emotsionallik kommunikativ sohadagi erglik ($r=0,218$, $r\leq 0,01$) va plastiklik bilan ($r=0,218$, $r\leq 0,01$) uzviy bog‘liq. Ammo talaba-psixologlarning intellekt sohasidagi emotsionallik kommunikativ sohadagi emotsionallik bilan korrelyatsion bog‘lanish hosil qilmadi. O‘zini mutaxassis sifatida tarbiyalashda ta’lim oluvchining aql-zakovatidagi harakatchanlik, hissiyot bilan munosabat sohasidagi harakatchanlik va his-tuyg‘ular o‘rtasidagi aloqalarni belgilab beradi. Psixolog kasbiy faoliyatida kommunikativlik muhim, chunki ish jarayonida psixologik diagnostika va maslahat, trening va korreksiya tadbirlarini tashkil etishda asosiy vazifani bajaradi. Psixologning insonlar bilan ishlashining asosiy quroli ham so‘z, muomala va munosabatdan iborat. O‘z navbatida talaba-psixologlarning kasbiy tayyorgarlik bosqichidagi o‘qituvchi-pedagoglar ham bu jihatni doimo inobatga oladilar.

Shuningdek, talaba psixologlar individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlarining umumiy ifodasi umumiy faollik va emotsionallikda mujassamlashadi.

Umumiy faollik bilan umumiy emotsionallik xususiyatlarining o‘zaro bog‘liqliklari navbatdagi jadvalda keltirilgan (3.1.5.-jadval).

3.1.5-jadval

Talaba-psixologlarning umumiy faollik va emotsionallik indeksleri o'rtasidagi korrelyatsiya

Indekslar	Umumiy faollik	Umumiy emotsionallik
Umumiy faollik	1	0,681**
Umumiy emotsionallik		1

Izoh:*p<0,05; **p<0,01

Psixikaning umumiy xususiyati psixik faollikning samaradorligini belgilaydi. Emotsionallik esa tadqiqot metodikasi shkalasining mazmuniga ko'ra psixomotor, intellekt va kommunikativ sohalaridagi emotsiya aynan shaxsning motor faoliyati, intellektual jarayonlari va kommunikativ sohasidagi muvaffaqiyatlar hamda muvaffaqiyatsizliklarni qabul qilish xususiyatini belgilaydi. Mutaxassislar (talaba-psixolog) faolligi va umumiy emotsionalligining o'zaro uyg'unligi ularning kasbiy tayyorgarligi bilan bo'lg'usi mutaxassislik faoliyatini bog'laydi. Ushbu ikkita yetakchi indekslar o'rtasidagi bog'liq talaba-psixologlarning muhim jihatlari hisoblanadi.

Talaba-psixologlar individualligining rasmiy-dinamik xususiyatlarini tadqiq etish hisobiga temperament tiplarini ham aniqlashga erishildi. Tadqiqotda psixologik timsolning alohida tarkibiy tuzilmasi sifatida bo'lg'usi mutaxassislar rasmiy-dinamik xususiyati (temperament) tiplari yoritildi (3.1.6-jadval).

3.1.6-jadval

Talaba-psixologlarning temperament tiplari (N=240)

Darajalar	Quyi emotsionallik	O'rtacha emotsionallik	Yuqori emotsionallik
Yuqori faollik	Sangvinik 4, 58%	Yuqori faollikka ega aralash tip 4,58%	Xolerik 5,41%
O'rtacha faollik	Quyi emotsionalli aralash tip 17,91%	Noaniq tip 44,16%	Yuqori emotsional aralash tip 6,25%
Quyi faollik	Flegmatik 7,08 %	Quyi faollikdagi aralash tip 5,00%	Melanxolik 5,00 %

Talaba-psixologlar rasmiy-dinamik xususiyalarini psixik faollikni belgilovchi ikki xususiyatiga tayanib amalga oshirildi, ya'ni faollik bilan emotsionallik darajalari o'rtasidagi munosabatlar bunga aniqlik kiritishga xizmat qildi. Natijada talaba-psixologlar temperamentining to'qqizta tipi aniqlandi:

birinchi tip, yuqori faollik bilan quyi emotsionallik munosabatini ifodalovchi sangviniklar-4,58%;

ikkinchi tip, yuqori faollik va o'rtacha emotsionallik munosabatini ifodalovchi yuqori faollikka ega aralash tip-4,58%;

uchinchi tip, yuqori faollik va yuqori emotsionallik munosabatlarini ifodalovchi-xoleriklar-5,41%;

to'rtinchi tip, o'rtacha faollik bilan quyi emotsionallik munosabatini ifodalovchi quyi emotsionalli aralash tip-17,91%;

beshinchi tip, o'rtacha faollik bilan o'rtacha emotsionallik munosabatini ifodalovchi - noaniq tip -44,16%;

oltinchi tip, o'rtacha faollik bilan yuqori emotsionallik munosabatini ifodalovchi yuqori emotsionalli aralash tip-6,25%;

yettinchi tip, quyi faollik bilan quyi emotsionallik munosabatlarini ifodalovchi-flegmatik tip -7,08 %foiz;

sakkizinchi tip, quyi faollik bilan o'rtacha emotsionallik munosabatni ifodalovchi quyi faollikdagi aralash tip-5,00%;

to'qqizinchi tip, quyi faollik bilan yuqori emotsionallikni ifodalovchi melanxoliklar-5,00%.

Talaba-psixologlarning rasmiy-dinamik xususiyatlari bo'yicha ustuvor temperament tip sifatida noaniq tip aks etmoqda. Ko'p hollarda temperament tipi sangvinik bo'lganlardan yaxshi psixologlar chiqishi haqidagi munosabat va mulohazalar kuzatiladi. Ammo bu holatni har doim ham yetakchi mulohaza sifatida e'tirof etib bo'lmaydi.

Bizning talaba-psixologlar rasmiy-dinamik xususiyatlari borasidagi tadqiqotimizda o'rtacha qiymatlar orasida noaniq tip ustuvor ko'rinish oldi. Noaniq tipga xos xususiyatlarni klassik temperament tiplarning biror biriga bog'lab qo'yib

bo'lmaydi. Noaniq tipdagilar faollik bilan emotsionallik qiymatlari me'yorda, ularda temperament→o'rtacha emotsionallik va o'rtacha faollik»dan iborat. Talaba-psixologlarning aralash va noaniq temperament (V.M. Rusalov) tiplari yetakchi tip sifatida o'rin olishi ham ahamiyatlidir. Mazkur izlanishning uzviy davomi sifatida R.B. Kettellning 16 PF so'rovnomasining A shaklini talaba-psixologlarda tatbiq qildik (3.1.7-jadval).

3.1.7-jadval

Talaba-psixologlarning shaxs xususiyatlari ko'rsatkichlari (R.B.Kettellning 16 RG' so'rovnomasi bo'yicha) (N=240)

	Omillar	X	σ	t ***
1.	Tund- muloqotchan	8,3	1,46	52,71
2.	Quyi intellekt- yuqori intellekt	7,6	1,27	56,84
3.	Emotsional beqarorlik – Emotsional barqarorlik	5,7	1,18	65,43
4.	Bo'ysunuvchanlik – dominantlik	7,4	1,34	57,45
5.	Axloqiy me'yorlarga quyi bo'ysunuvchan-axloqiy me'yorlarga yuqori bo'ysunuvchan	6,6	1,28	60,17
6.	Mas'uliyatsizlik – mas'uliyatlilik	7,2	1,38	54,19
7.	Jur'atsizlik – jasurlik	5,2	1,46	45,75
8.	Amaliy ishni nazariyadan ustun qo'yuvchi- ta'sirchanlik	3,7	1,48	51,01
9.	Ishonuvchan- shubhalanuvchan	3,6	1,42	51,55
10.	Ishchanlik - xayoliy obrazlari boy	5,7	1,36	55,48
11.	Ochiqlik - muomala qilishga ustalik	7,2	1,16	65,77
12.	Vazmin - xavotirlanuvchan	4,5	1,29	58,70
13.	Konservatizm (eskilik tarafdori) - radikalizm (yangilikka sezgir)	7,3	1,38	49,73
14.	Muvofiqlashuvchi (konformizm)- mustaqil (nokonformizm)	6,4	1,41	53,15
15.	O'zini nazorat qilishi quyi- o'zini nazorat qilishi yuqori	8,1	1,41	52,81
16.	Quvvatsizlik- keskinlik	6,8	1,37	52,71

17.	Quyi xavotirlik- yuqori xavotirlik	5,8	1,53	47,35
18.	Introversiya- ekstraversiya	4,1	1,12	52,78
19.	Ta'sirchanlik- muvozanatlashganlik	6,4	1,54	52,34
20.	Muvofiqlashuvchan-mustaqil	6,3	1,27	53,71

Izoh:*** $r \leq 0,001$.

So'rovnomaning omillari psixologik profilni ifodalashda asosiy vazifani belgilaydi:

Kommunikativ omillar:

A – muloqotchan-8,3 ball-yuqori;

N – jasur- 5,2 ball- o'rtacha;

Ye – dominantlik-7,4 ball-o'rtachadan yuqori;

L – shubhalanuvchan-3,3 ball- quyi;

N – muomala qilishga ustalik -7,2 ball-o'rtachadan yuqori.

Q₂ – mustakil-6,4 ball-o'rtachadan yuqori.

Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)ning munosabatlar (kommunikativ) omillarini ifodalovchi shaxs xususiyatlari:

kirishimli, ammo boshqalar bilan murosaga bormaydigan, boshqalarga ishonadigan, og'ir va g'amgin damlarga nisbatan ta'sirchan emas, gohida ehtiyotkorlik yetishmaydi; o'ta hushyor, mug'ombir, ustamon, reja bilan ish ko'radigan, farosatli, ko'pchilik ichida o'zini qanday tutishni biladi, estetik murakkab, boshqalarga nisbatan ziyrak, shuhratparast, ba'zan ishonchsiz bo'lib qoladi; guruhdan mustaqil ish yurita oladi, o'z faoliyatini mustaqil bajarishga qobiliyatli, topqirlik, mustaqil qaror qabul qiladi, hukmronlik qila oladi, o'zgalar ko'magiga muhtoj emas.

Bo'lg'usi mutaxassislar intellekt sohasiga xos omillari:

V – intellektuallik-7,6 ball –o'rtachadan yuqori;

M – xayoliy obrazlari boy-5,7 ball-o'rtachadan yuqori;

N – muomala qilishga ustalik -7,2 ball-o'rtachadan yuqori

Q₁ –yangilikka sezgir-7,3 ball-o'rtachadan yuqori.

Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)larning intellekt sohasiga xos shaxslik fazilatlarida bir qator xususiyatlar kuzatildi. Ular tezkor mulohazalaydi, so'zlashuvlarda o'zining ijobiy ko'rinishga ega va bilimdon, so'zlashuv madaniyati anchagina boy; tasavvurlar olami keng, parishonxotirlikka ham duch keladi, ijodkorligi hisobidan atrofdagilarni jalb qiladi, injiq bo'lib qoladi, beqarorlikni ham kanda qilmaydi, osonlik bilan sehrlangan umumiy ma'noda; sezgir, ayyor, tajribali, murakkab, hisoblash, oqilona, oqlangan, jamiyatda o'zini qanday tutishni biladi, aniq aqlga ega, hissiy barqaror, boshqalarga nisbatan ziyrak, shuhratparast, ba'zan ishonchsiz; eksperimentator, tahlilchi, erkin fikrlovchi, noqulayliklar uchun bag'rikenglik, tanqidiy.

Talaba psixologlar profilidagi emotsional omillari:

S – emotsional barqaror -5,7 ball –o'rtachadan yuqori;

F – beg'am-6,6 ball-o'rtachadan yuqori;

H – jasurlik-5,2-o'rtacha ball;

I – emotsional sezgirlik –3,2 ball o'rtachadan past;

O – xavotirlanish-4,5 ball-o'rtachadan past;

Q₄ – zo'riqish-6,8 ball-o'rtachadan yuqori.

Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)larning his-tuyg'ularini ifodalovchi omillari bo'yicha qator shaxslik xususiyatlar aniqlandi. Ular shart-sharoitlarni tahlil qiluvchan, uni boshqaradi, kutilmagan vaziyatlarning oldini oladi, hissiyotli holatlarga befarq; uddaburon, e'tiborsiz, betashvish, xursand yuruvchi, so'zamol, g'ayratli, shijoatli, samimiy, hushyor, chaqqon, atrofdagilar bilan munosabatga samimiy bo'lishga xayrixoh, munosabatlarda samimiy, hissiyotli, muloqotda dinamik, ko'pincha yetakchi, tashabbuskor bo'ladi, omadga ishonadi; jasoratli bo'lib turadi, ijtimoiy munosabatlarga moyil, dilkash, faollikka ham ega, sezgir, muloyim, beixtiyor; beg'am-betashvish bo'lib qoladi, qarorlar qabul qila oladi, ba'zida shafqatsiz, nodonlikka yo'l qo'yadi, o'ziga ishongan va javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, amaliy va mantiqiy

harakatlarga qodir, jismoniy kasalliklarga e'tibor bermaydi; beparvolik, o'z-o'ziga ishonch, kibr-havo, xotirjamlik, bosiqlik, quvnoq, xushchaqchaq, iltifotsiz, serharakat, tinib-tinchimas, boshqalarning roziligiga yoki sansalorligiga beparvo, baquvvat, qo'rqmas, o'ychan; odatdagi muhitda hissiy muvozanatni saqlaydigan. Kutilmagan qiyinchiliklarda qisqa muddatli tashvish va ilojisizlik hissi paydo bo'ladi. Haqiqiy ehtiyojlarga chuqur ta'sir qiladigan holatlarda kuchli hissiy reaksiyalar kuzatiladi.

Talaba-psixologlar hayotda ijobiy narsalarni topish istagiga ega. Biroq qiyinchiliklardan, kundalik muammolardan butunlay ajralib qolmaydi. Noxush vaziyatlardan kundalik muammolarni uddalay olmagandan o'zini mutlaqo e'tiborsizdek tuta oladi. Vaziyatlar tanish bo'lgan sharoitda omadga ishonadi, masalaning yechimini topishda va kundalik xulq-atvor uchun sinovdan o'tgan tajribalarga tayanadi. Tavvakkal qila oladi.

Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)larning o'zi (shaxs)ning tartibga soluvchanlik omillari bo'yicha ko'rsatkichlari quyidagicha:

Q₃ – o'zini-o'zi tartibga soluvchi - 8,1 ball-yuqori darajada;

G – axloqiy me'yorlarga bo'ysunuvchan - 7,2 ball-o'rtachadan yuqori darajada.

Ularning o'zini tartibga soluvchanlik omillarida bir qator shaxs fazilatlarini kuzatildi: maqsadli harakat qiladi, saramjon, ishni tartib bilan bajaradi va yakunlaydi, his-tuyg'ularini namoyish etadi va o'rni kelganda o'zining xatti-harakatlarini nazorat qiladi. Guruh talablariga mos ravishda xulq-atvorini tartibga sola oladi. O'ziga nisbatan tanqidiy. Burch hissiga ega. Vaziyatlarda uyushqoq va qat'iyatli, moslashuvchan. Qo'shimcha yuklamalar paydo bo'lganda harakatlarida tartibsizlik kuzatiladi va oqibatda guruhiiy me'yorlarni tanlab bajarishga moyil bo'lib qoladi. Shaxsiy manfaatlariga aloqador bo'lmagan vaziyatlarda majburiyatlarini rasmiy bajarishga va shaxsiy ahamiyatli vaziyatlarda esa mas'uliyatli, vijdonli yondashadi. Bundan ko'rinadiki, talaba psixologlar o'zlarining xulq-atvorini

tartibga solishda kasbiy faoliyat uchun zarur xususiyatlarga ega ekan. Bu esa ularning kasbiy kamoloti uchun muhimdir.

3.1.8-jadval

Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretidagi shaxs xususiyatlari profili

			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10		
A=8,3	Tund	A								•			A	Muloqotchkan
B=7,6	Quyi intellekt	B							•				B	Yuqori intellekt
C=5,7	Emotsional beqarorlik	C					•						C	Emotsional barqarorlik
E =7,4	Bo'ysunuvchanlik	E							•				E	Dominantlik
F =6,6	Axloqiy me'yorlarga quyi bo'ysunuvchan	F						•					F	Axloqiy me'yorlarga yuqori bo'ysunuvchan
G=7,2	Mas'uliyatsizlik	G=							•					Mas'uliyatlilik
H=5,2	Jur'atsizlik	H					•						H	Jasurlik
I =3,4	Amaliy ishni nazariyadan ustun qo'yuvchi	I			•								I	Ta'sirchanlik
L =3,1	Ishonuvchan	L			•								L	Shubhalanuvchan
M =5,7	Ishchanlik	M					•						M	Xayoliy obrazlari boy
N=7,2	Ochiqlik	N							•				N	Muomala qilishga ustalik
O=4,5	Vazmin	O			•								O	Xavotirlanuvchan
Q ₁ =7,3	Konservatizm (eskilik tarafdori)	Q ₁							•				Q ₁	Radikalizm (yangilikka sezgir)
Q ₂ =6,4	Muvofiqlashuvchi (konformizm)	Q ₂					•						Q ₂	Mustaqil (nokonformizm)
Q ₃ =8,1	O'zini nazorat qilishi quyi	Q ₃								•			Q ₃	O'zini nazorat qilishi yuqori
Q ₄ =6,8	Quvvatsizlik	Q ₄						•					Q ₄	Keskinlik
F ₁ =5,8	Quyi xavotirlik	F ₁					•						F ₁	Yuqori xavotirlik
F ₁ =4,1	Introversiya	F ₂			•								F ₂	Ekstraversiya
F ₃ =6,4	Ta'sirchanlik	F ₃						•					F ₃	Muvozanatlashganlik
F ₄ =6,3	Muvofiqlashuvchan	F ₄						•					F ₄	Mustaqil

So'rovnomaning ikkinchi tartibli omillari ham mavjud bo'lib, talaba-psixologlarning ko'rsatkichlari stenlar bo'yicha quyidagi qiymatlarga ega bo'ldi:

1. Xavotirlanish (f1) - 5,8 ball-o'rtachadan yuqori;
2. Introversiya-ekstraversiya (f2) - 4,1 ball - o'rtachadan past;
3. Sezgirlik (f3) - 6,4 ball -o'rtachadan yuqori.
4. Konformlik (f4)-6,3 ball-o'rtachadan yuqori.

R.B.Kettell so'rovnomasining amaliyotda qo'llash talablari oqibatida talaba-psixologlar shaxsiga xos psixologik profilni ifodalab berdi. U navbatdagi –jadvalda kuzatilmoqda.

So'rovnoma talablariga ko'ra shaxs xususiyatlari psixologik profili olingan sten ko'rsatkichlariga tayangan holda yondashishni taqozo etadi. Psixologik profil har bir shaxs yoki kasb egasiga xos xususiyatlarning stenlar bo'yicha eng pik va eng quyi omillarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda xususiyatlarni ifodalashni taqozo etadi.

Shaxsning qiyofasini tavsiflovchi xususiyatlarini o'rganish asosida bo'lg'usi mutaxassisning o'quv faoliyati bilan ish jarayoni samaradorligi uchun zarur timsol tuzilmasini shakllantirishga erishildi. Agar ta'lim jarayonida tahsil berayotgan professor-o'qituvchilar ushbu ilmiy natijalarni inobatga olsa shogirdlarining kamolotini ijobiy ta'minlashga erishadilar.

Yuqori stenlar bo'yicha talaba-psixologlarda A, V va Q₃ omillarning ustuvorligi kuzatildi:

samimiy, mehribon, dilkash, ochiq, tabiiy, qo'ydi-chiqdi, odobli, betashvish, hamkorlik qilishga tayyor, qo'shilishni afzal ko'radi, odamlarga e'tiborli, yumshoq ko'ngil, beparvo, ishonuvchan, yon beruvchan, oson moslashadi, quvnoq;

to'plangan, tezkor, mavhum fikrlash kuzatiladi, yuqori umumiy aqliy qobiliyatlari, ziyrak, tez tushunish, intellektual moslashadi, og'zaki madaniyat va bilimdonlik darajasi bilan bog'liqlik mavjud;

o‘zini-o‘zi e‘zozlovchi, o‘z-o‘zini nazorat qiluvchi, aniqlik, irodali, o‘zini bo‘ysundira oladi, ongli reja asosida harakat qiladi, samarali yetakchi, ijtimoiy normalarni qabul qiladi, his-tuyg‘ulari va xulq-atvorini nazorat qiladi, maqsadga muvofiq boshlagan ishini oxiriga yetkazadi.

Quyida stenlar bo‘yicha esa I va L faktorlar ustuvorlikka ega bo‘ldi:

quyi sezuvchanlik, befarqlik, mulohazali, real mulohazalashga moyil, amaliy harakatlarga moyillik, bir oz qattiqqo‘l, jasur, o‘ziga ishongan, mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, munosabatlarda keskin, qisman artistizmga moyil, didli, xayolparast emas, jismoniy kasalliklarga e‘tibor bermaydi;


ular ishonuvchan, samimiy, shart-sharoitlar bilan kelishuvchan, ichki xotirjamlik, o‘zgarishlarga e‘tirozli, tobelikdan ko‘ra erkinlikni xohlovchi, qiyinchiliklarni osongina esdan chiqaradi, tushunuvchan va kechirimli, sabrli, boshqalarga munosabatlarida xayrixoh, atrofdagilar bilan munosabatga oson kirishadi, kamchiliklarga bee‘tiborli, jamoa bilan yaxshi ishlaydi.

R.B.Kettellning 16 RG‘ so‘rovnomasini psixologik tadqiqotlardagi holati o‘z navbatida shaxs profili ularning kasbiy qiyofasini ifodalab beruvchi timsolga ham ega. Bo‘lg‘usi mutaxassis (talaba-psixolog)lar shaxsining psixologik qiyofasini empirik ko‘rsatkichlar bo‘yicha tasvirlashga erishildi:

$$\text{Talaba-psixolog} = 8,3A + 7,6B - 3,4I - 3,1L + 8,1Q_3$$

Bo‘lg‘usi mutaxassis (talaba-psixolog)larning kasbiy-shaxsiy kamoloti bilan bog‘liq holatda ularning ijtimoiy-psixologik portretini aks ettiruvchi shaxs psixologik qiyofasini keltirib o‘tilgan psixologik modelga ega ($\text{Talaba-psixolog} = 8,3A + 7,6B - 3,4I - 3,1L + 8,1Q_3$)) Ushbu shaxs profiliga ko‘ra talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretini kommunikativ, intellektual, emotsional va shaxsning o‘zini-o‘zi tartibga solish omillari tashkil etmoqda. Ular psixologik profilining ular kasbiy

kamoloti nuqtai nazaridan umumiy tasvirini quyidagi munosabat tizimida ifodalaydi (3.1.1-rasm).



3.1.1-rasm. Talaba-psixolog psixologik portretini tashkil etuvchi yetakchi omillar

Ularning o'quv tayyorgarlik bosqichida bir qator mutaxassis uchun ahamiyatga ega fazilat va xislatlarni tarkib toptirish uchun psixologik profilning ifodalovchi sifatlarga tayanishi muhimdir. Aniqlangan shaxs profilning psixologik modeliga asoslanib, ta'lim jarayonini tashkil etish

talaba-psixologlarni tayyorlashda kommunikativ, intellektual, emotsional va shaxsning o'zini-o'zi tartibga solish omillar bilan bog'liqdir.

Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)lar shaxs qiyofasi o'z navbatda talabalar guruhi bilan aloqador tomonlarini o'rganishga undamoqda. Talaba guruhdagi psixologik muhit ham psixologning kasbiy imkoniyatlarini, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi tasavvurlarini o'rganish orqali yoritishga e'tibor qaratiladi.

Bo'lg'usi mutaxassisning ijtimoiy-psixologik qiyofasini tafsiflashda kommunikativ va emotsional omillariga alohida e'tibor qaratish kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish uchun aniq taklif va tavsiyalar shakllantirishga ko'maklashadi.

Kommunikativ omillar bo'yicha mehribon, dildash, ochiqlik, odoblilik, hamkorlik qilishga tayyorlik, hamkorlikni afzal ko'rish, odamlarga e'tiborlilik va yumshoq ko'ngillik xususiyatlari ularning shaxslararo munosabatidagi muhim sifatlardir.

Emotsional omillarga ko'ra talaba-psixologlar munosabatlardagi nizoli va ziddiyatli vaziyatlardagi ko'ngil qolishlarga nisbatan kechirimli, boshqa insonlarga munosabatlarida xayrixoh, atrofdagilar bilan munosabatga oson kirishadi va jamoa bilan yaxshi ishlaydilar. Emotsional omillar asosida tavsiflangan xususiyatlar talaba-psixologning ijtimoiy-psixologik jabha, xususan, shaxslararo munosabatlardagi pozitsiyalarini ifodalamoqda deya olamiz.

Quyida ta'lim oluvchilar guruhida ijtimoiy-psixologik muhit va munosabatlari orqali ijtimoiy-psixologik portretning alohida xususiyatlari yoritiladi.

§ 3.2. Talaba-psixologlarning kasbiy kompetensiyalari va ijtimoiy-psixologik munosabatlari

Kompetensiyalar mutaxassislar tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog) zarur kasbiy

tayyorgarlik xususiyatlari professor-o‘qituvchilari tomonidan ekspert baholandi. Empirik qiymatlar navbatdagi 3.2.1-jadvalda aks etgan.

3.2.1-jadval

Talaba-psixologlarning kasbiy kamoloti uchun zarur umumiy kompetensiyalari ko‘rsatkichlari

№	Kompetensiyalar	Talaba-psixologlar		Professor-o‘qituvchilar		t
		X	σ	X	σ	
1.	Psixologiyaning zamonaviy muammolaridan xabardorlik darajasi	4,23	0,84	3,32	0,71	5,263***
2.	Kasbiy faoliyat bo‘yicha tayanch bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasi	3,51	0,79	3,41	0,54	0,662
3.	Psixologiyaning sohalari bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lish	3,55	0,58	3,00	0,37	4,989***
4.	Psixodiagnostika metodikalarini tanlash, tatbiq qilish, natijalarni tahlil va talqin qilish	3,48	0,73	2,86	0,46	4,444***
5.	Psixologik treningni tashkil etish, o‘tkazish va natijalarini baholay olish qobiliyati	3,65	0,81	3,30	0,51	2,630**
6.	Psixologik maslahatni tashkil etish, amalga oshirish va tavsiyalar ishlab chiqish	3,37	0,78	3,06	0,51	2,383*
7.	Psixologik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarini bilishi va uni tashkil etish	3,23	0,78	3,13	0,33	0,703
8.	Psixologik tadqiqotlar tashkil etish texnikasi	3,06	0,73	2,83	0,57	1,814
9.	Psixologning kasbiy-etikaviy tamoyillarini bilishi	3,09	0,86	3,11	0,32	-0,178
10.	Psixolog mutaxassisiga xos xususiyatlarni kamol toptirish	3,32	0,71	3,13	0,55	1,597
11.	Umumiy kompetensiya ko‘rsatkichi	3,43	0,17	3,14	0,18	6,259***

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$; *** $r \leq 0,001$.

Birinchi tafovutli holat «psixologiyaning zamonaviy muammolaridan xabardorlik darajasi» talaba-psixologlar (4,23 ball) va professor-o‘qituvchilar tomonidan (3,32 ball), o‘rtacha qiymat bo‘yicha farqlar

ishonchliligi ($r \leq 0,001$) kuzatildi. Bu esa o'qituvchilar tomonidan berilgan baho talabalarning o'zlarini yuqori baholashlarini korreksiyasi uchun qo'llanildi. Agar har ikkala qiymatning o'rtacha holatini aks ettirganda (3,78 ball) o'rtachadan yuqori qiymat yuzaga kelmoqda.

Talaba-psixolog bilan professor-o'qituvchilarning ko'rsatkichlari orasida «psixologiyaning sohalari bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish (psixologiya fanidagi nazariyalarni bilish, tahlil qilish va qo'llay olish)» kompetensiyasida kuzatildi: ta'lim oluvchilar (3,55 ball) va mutaxassislar (3 ball), farqlar ishonchliligi ($r \leq 0,001$); 3,27 ballga (umumiy o'rtacha qiymat) teng bo'ldi. Ko'p hollarda psixologiya fanidagi nazariyalar inson psixologiyasining muhim qonuniyatlarini aks ettiradi. Ularni yaxshi bilish, tahlil qilish va zarur o'rinlarda ulardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Biroq ko'p hollarda talabalar psixologiya konsepsiyalarini yaxshi tushunib, undan foydalana olmasliklari pedagogik amaliyotda ham kuzatiladi. Albatta ushbu o'rinda talaba-psixologlar orasida ham kasbiy tayyorgarlik bosqichida a'lochi, yaxshi, qoniqarli va qoniqarsiz o'qiydiganlar albatta uchrashidan dalolat bermoqda.

Psixodiagnostika metodikalarini saralash, tatbiq qilish, natijalarni tahlil va talqin qilishda ham tafovut aniqlandi: talaba-psixologlar (3,48 ball) va professor-o'qituvchilar (2,86 ball), farqlar ishonchliligi ($r \leq 0,001$); umumiy o'rtacha qiymat -3,17 ballga teng bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, talaba-psixologlar psixodiagnostika bo'yicha ham o'rtacha kompetensiyalidir. Talaba-psixologlarning kasbiy kompetensiyalari ham o'rtacha daraja bilan cheklanmoqda, ammo amaliy faoliyatga aloqador bo'lganligi sababli talabalar qaysidir ma'noda bu jarayonga qiziqish bilan kirishishga xayrixohliklari ham bor deyish mumkin.

Psixologiyaning amaliy sohalaridan biri psixologik trening hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi kasbiy kompetensiya bo'yicha talaba-psixolog bilan ustozlari o'rtasida farq aniqlandi: talaba-psixologlar (3,65 ball) va professor-o'qituvchilar (3,30 ball), farqlar ishonchliligi ($r \leq 0,001$);

umumiy o'rtacha qiymat -3,47 ballga teng bo'ldi. Psixologik treningni tashkil etish, o'tkazish va natijalarini baholay olish qobiliyati bo'yicha ham ishtiyoqlari bor va qiziqishlari ham mavjud, ammo talaba-psixologlar mashg'ulotdan tashqarida treningni tashkil etishda yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega emas.

«Psixologik maslahatni tashkil etish, amalga oshirish va tavsiyalar ishlab chiqish» kompetensiyasi talaba-psixologlar kasbiy kamolotining muhim amaliy yo'nalishidir. Ammo ushbu yo'nalish psixolog amaliy faoliyatining bir qator jihatlarining integratsiyasida kuzatiladi. Birinchisi, psixologiyaning nazariyalar bilan, ikkinchisi, psixodiagnostika usullarini qo'llay olishi va uchinchisi esa psixologik maslahat usullari, texnika va tamoyillariga egaligida psixolog maslahat jarayonida ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritadi. Bu kompetensiya bo'yicha talaba-psixologlar bilan professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan munosabatlarda tafovut mavjud: talaba-psixologlar (3,37 ball) va professor-o'qituvchilar (3,06 ball), farqlar ishonchliligi ($r \leq 0,001$); umumiy o'rtacha qiymat -3,21 ballga teng bo'ldi. Bu holatni talabalar o'zlarining kasbiy kamoloti va keyinchalik kasbiy faoliyatda mustaqil psixologik maslahatlar olib borishlari uchun jiddiy ishlashlari kerak bo'ladi.

Talaba-psixolog va ustozlarini baholash natijalarida farqlar kuzatilmagan holatlarda ham talabalarning ko'rsatkichlari o'rtacha qiymatga ega.

Talaba-psixologlar (3,43) bilan professor-o'qituvchilarning (3,14) ($r \leq 0,001$) kompetensiyani baholashdagi umumiy ko'rsatkichlari bo'yicha qiymatlar ham tafovutli bo'ldi. Bir tomondan talaba-psixologlarning kasbiy faoliyati uchun kompetensiyalar muhim ekan, ammo barchasi o'rtacha daraja bilan cheklanilmoqda.

Tadqiqotimizda kasbiy kompetensiyalar ham talaba-psixologlar kasbiy kamolotidagi ijtimoiy-psixologik portretining tarkibiy tuzilmasi sifatida o'rin olishi shubhasiz.

Tadqiqotimizning yana bir o'ziga xos jihatida talaba-psixologlar guruhidagi shaxslararo munosabatlar holatini tadqiq etishdan iboratdir.

§ 3.3. Talaba-psixologlar guruhidagi shaxslararo munosabat xususiyatlari

Talabalar guruh o'rta ta'lim maktabidagi guruhdan keskin farq qiladi. Chunki talabalar Respublikaning turli hududlari, ijtimoiy ahvoli, turmush-tarzi, hududiy o'rni (shahar yoki qishloq) va boshqa jihatlari bilan tafovutlanadi. O'quv guruhi talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan mehnat jamoasiga moslashishi uchun tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. O'z navbatida talabalar guruhidagi shaxslararo munosabat va psixologik muhit istiqbolda talabalarning bir-birlari bilan do'stona hamda hamkasblar o'rtasidagi ijobiy hamkorlik muhitini shakllantiradi va bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy kamoloti uchun muhim o'rin tutadi. Mazkur masalani yoritishda V.M. Zavyalovning «Talabalar guruhidagi mikromuhitni baholash» metodikasi (6-ilova), L.M. Fridman, V.S. Ivashkin va V.V. Onufriyevlarning «O'quv guruhidagi jipslik va qadriyatlar birligini o'rganish» metodikalaridan (7-ilova) foydalandik. Metodikaning tatbiq etish natijalarini barcha guruhlarining umumiy ko'rsatkichi orqali ifodalashni lozim topdik. Natijalar navbatdagi 3.3.1-jadvalda keltirilgan.

Talaba-psixologlar guruhida mikropsixologik muhit indeksi 40,7 ballga ega bo'ldi. Bu esa metodikaning me'yoriy ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha darajada ijobiy xarakterga ega ekan.

Shuningdek, talaba-psixologlar guruhidagi psixologik mikromuhitning ijobiy ko'rinishida guruhdagilarning faol, ishga layoqatlarining yuqoriligi (2,5 ball), jamoa ichidagi alohida mikroguruhlarining munosabatlari jamoa uchun umumiy masalalarda o'zaro tushunish, xushmuomalalik, hamkorlikda ishlash istagi (2,4 ball), yangi kelganlar bilan do'stona munosabatda bo'lishlari (2,6 ball), talaba-psixologlar o'zlarini guruhlarini qadrlashlari, yutuqlaridan xursand va muvaffaqiyatsizliklaridan xafa bo'lishlari (2,4 ball) izohlamoqda.

3.3.1-jadval

Talaba-psixologlar guruhidagi psixologik mikromuhitning profili

t/r	Mezonlar	O'rtacha ko'rsat	1	2	3	Mezonlar
	Guruh odatda quvnoq va shod kayfiyatda.	2.3		•		Guruhdagi kayfiyat odatda tushkun, mahzun bo'ladi.
	Guruh faol, ishga layoqatli	2.5		•		Guruh passiv, sust
	Guruhdagi muhit tinch, ishchan.	1.8	•			Guruhdagi vaziyat asabiy va keskin.
	Talabalar guruhda o'zlarini qulay his qilishadi.	1.6	•			Talabalar guruhda o'zlarini noqulay his qiladilar.
	Talabalar guruh kerak bo'lsa ularni himoya qilishini va qo'llab-quvvatlashini biladilar va his qiladilar.	2.1		•		Talabalar qiyin paytlarda guruhni qo'llab-quvvatlashga ishonishmaydi.
	O'quvchilar bir-birlariga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'ladilar.	1.5				Guruhdagi munosabatlar antipatiya bilan ajralib turadi
	Guruhning barcha a'zolariga adolatli munosabatda bo'lib, barchaga munosib narsalarni beradi	1.3	•			Guruh a'zolari bir-biriga e'tiborsiz bo'ladi. Guruhning alohida a'zolarini baholashda noxolis.
	Guruh ichidagi alohida mikroguruhlarning munosabatlari jamoa uchun umumiy masalalarda o'zaro tushunish, xushmuomalalik, hamkorlik bilan tavsiflanadi.	2.4		•		Guruhlar bir-biri bilan jamoa ziddiyati doirasida, ularning a'zolari o'z manfaatlari yo'lida o'zlarini berkitib oladilar, boshqalarni tushunishni istamaydilar.
	Guruhdagi nizolar kamdan-kam hollarda paydo bo'ladi, jiddiy sabablarga ko'ra adolatli va xushmuomalalik bilan hal etiladi.	2.2		•		Nizolar tez-tez paydo bo'ladi, qiyinchilik bilan hal etiladi.
	Muhim davrlarda guruh «hamma bir kishi uchun bir kishi hamma uchun» tamoyiliga asosida jipslashadi.	1.9	•			Jamoadagi qiyin davrlarda shov-shuvlar, janjallar, o'zaro tanbehlar kuzatiladi.
	Yangi kelganlar guruhda do'stona va g'amxo'r munosabatni his etadi.	2.6		•		Guruh yangi kelganlarga nisbatan befarqlik yoki yomon niyatni ko'rsatadi.
	Talabalarda ta'lim muassasasi va undan tashqarida ham birga bo'lish yoqadi	2.2		•		Talabalar birgalikda bo'lishga intilmaydi, har kim o'z manfaatlari bilan yashaydi.
	Talabalar o'z guruhini sevadi, uning yutuqlari xursand va muvaffaqiyatsizliklardan xafa bo'ladi	2.4		•		Talabalar o'z guruhini qadrlamaydilar. Ular uning yutuqlariga befarq, osongina boshqa guruhga o'tishga rozi.
	Talabalar o'qishni jiddiy qabul qiladilar, kasb sirlarini egallashga intiladilar.	1.9	•			O'qish ustuvor hisoblanmaydi, akademik muvaffaqiyatlarga intilish rag'batlantirilmaydi.
	Guruh bekorchilar va dangasalarga talabchan va chidamsiz.	1.5	•			U dangasa va dars qoldiradiganlarga befarq
	Talabalar guruhning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etadilar.	2.7		•		Talabalar guruhning ijtimoiy hayotida passiv.
	Guruh har bir kishining istaklarini hisobga olgan holda jamoat topshiriqlarini taqsimlashga jiddiy yondashadi.	1.6				Topshiriqlar «agar faqat menga» tamoyili bo'yicha taqsimlanadi.
	Talabalar guruh ishida ishtirok etish uchun tayyor.	1.9	•			Talabalar guruh ishida ishtirok etish uchun tayyor emas
	Guruhning faollari vakolat va ishonchga ega.	2.2		•		Guruhning faollari vakolat va ishonchga ega emas.
	Guruh va guruh rahbari o'rtasidagi munosabatlar yaxshi niyat, tushunish, hamkorlik bilan tavsiflanadi.	2.1		•		Guruhning guruh rahbari bilan munosabati antipatiya, ziddiyat bilan tavsiflanadi.
	Guruhdagi psixologik mikromuhit	40,7				

Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)larning ta'lim muhitida o'zlarini atrofdagilar bilan munosabatlarga tayyorlaydilar. Guruhdagi kursdoshlari bilan o'zaro munosabatlar shaxslararo munosabat ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Guruhdagi shaxslararo munosabatlarning bir xillikka ega emasligi empirik ko'rsatkichlarda quyi natijalarni aks ettirdi. Bu esa o'rganilayotgan kontingentlar o'quv guruhlaridagi muhitning o'rtacha, ammo ijobiy mazmunda o'rin olishini ta'minladi. Buning sababi «guruh a'zolarining bir-biriga samimiylik taqdim etar ekanlar» (1,3 ball), «xushmuomala» (1,5 ball) va «bekorchilar va dangasalarga talabchan va chidamsiz» (1,5 ball) ekanliklari orqali aniqlandi. Ayrim o'rinlarda talabalar o'rtasida ham nizolar bo'lib turishi, ba'zan bir-birlariga munosabatlarida tengdoshlarining qadriyatiga tegadigan munosabat bildirishlari, mashg'ulot qoldiradigan va o'quv jarayonida dangasalik qiladiganlarga nisbatan befarq bo'lishadilar, degan xulosaga olib kelmoqda. Ushbu holatlar talaba-psixologlar guruhidagi mikropsixologik muhitning o'rtacha ijobiy tus olishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur holatning tahlili ko'rinishlari talaba-psixologlar guruhidagi jipslikni o'rganish uchun L.M. Fridman, V.S. Ivashkin va V.V. Onufrievlarning «O'quv guruhidagi jipslik va qadriyatlar birligini o'rganish» metodikasini tatbiq etishga olib keldi. Metodikaning tatbiqiga ko'ra talaba-psixologlarning guruhiga xos qadriyatlarni aks ettiruvchi 35 ta sifatlar taqdim etiladi. Har bir talaba o'zi o'qiydigan guruhga xos beshta sifatni baholashi talab etiladi. So'ngra natijalar guruh a'zolarining qadriyatlariga munosabatiga ko'ra guruhiy jipslik va qadriyatlarning ahamiyatini baholash imkoniyatini beradi.

Metodikada o'quv guruhidagi jipslikni aniqlashda maxsus formulaga tayaniladi. Ushbu formula quyidagi ko'rinishga ega:

$$J = \frac{1,4n-N}{6N}. \quad (7\text{-ilova})$$

Formuladagi J-guruhdagi jipslik, N-tajriba-sinov ishtirokchilari soni, n-maksimal darajada tanlangan beshta sifatning miqdori.

Biz talaba-psixologlar guruhlaridagi jipslikni aniqlashda har bir guruhning (9 ta guruh) natijalarini umumlashtirgan holda ular tomonidan belgilangan 5 ta yetakchi sifatning qiymatlarini umumlashtirdik va maxsus formulaga tatbiq etdik. Barcha guruhlardagi umumiy sifatni baholashlar umumlashtirilganda 5ta yetakchi baholangan sifatlarda quyidagi ko‘rinish oldi:

3.3.2-jadval

Talaba-psixologlar guruhidagi sifatning tanlash chastotalari ko‘rsatkichi (N=240)

№	Sifatlar	Qayd etish	№	Sifatlar	Qayd etish
1.	Batartiblilik	47	19.	O‘ziga talabchan	39
2.	Eruditsiyaga moyillik	35	20.	Tanqidiylik	25
3.	Ijtimoiy burchni anglaganlik	95	21.	Ma’naviy boy	99
4.	Ziyrak	47	22.	Topshiriqlarni tushuntirishga uquvli	43
5.	Ko‘p o‘qiganlik	97	23.	Vijdonli	41
6.	Mehnatsevar	43	24.	Tashabbuskor	46
7.	G‘oyaviy e’tiqodli	45	25.	E’tiborlilik	44
8.	Ishni nazorat qilishga qobiliyatli	27	26.	Javobgarlik tuyg‘usi	38
9.	Xushaxloq	37	27.	Qat’iyatlilik	35
10.	O‘z-o‘ziga tanqidiylik	12	28.	Mustaqillik	40
11.	Hozirjavob	33	29.	Muloqotchanlik	107
12.	Ijtimoiy faol	110	30.	Mulohazakorlik	49
13.	Kitob bilan ishlashga uquvli	41	31.	Kamtarlik	24
14.	Qiziquvchan	51	32.	Bilimdonlik	47
15.	Ishni rejlashirishga qobiliyatlilik	34	33.	Adolatlilik	31
16.	Maqsadga intiluvchan	47	34.	O‘ziga xoslik	50
17.	Jamoatparvar	112	35.	O‘ziga ishonganlik	42
18.	Quntli	27			

Oqibatda talaba-psixologlar guruhidagi jipslik indeksini topish bo'yicha jarayon quyida ifodalangan:

$$J = \frac{1,4n-N}{6N} = \frac{1,4 \cdot 510 - 240}{6 \cdot 240} = \frac{1,4 \cdot (95+97+112+99+107) - 240}{6 \cdot 240} = \frac{1,4 \cdot 510 - 240}{1440} = \frac{1,4 \cdot 510 - 240}{1440} = \frac{1,4 \cdot 510 - 240}{1440} = \frac{1,4 \cdot 510 - 240}{1440} = \frac{474}{1440} = 0,329 \approx 0,33$$

Jipslik = 0,33

indeksga teng bo'ldi. Qo'lga kiritilgan jipslik indeksini metodikaning me'yorlariga ko'ra ifodalasak, 0,3 bilan 0,5 chegarasida joylashgan bo'lsa, u holda guruh o'rtacha darajada rivojlangan degan xulosaga olib keldi.

Talaba-psixologlarning metodika bo'yicha natijalari asosida guruhlar qadriyatlarini yo'nalishlarining ahamiyat ko'rsatkichini aniqlandi. Buning uchun barcha guruhlardagi sifatlarning tegishli qadriyat yo'nalishlari bo'yicha o'rtacha qiymati hisoblab topildi (3.3.3.-jadval).

3.3.3.-jadval

Talaba-psixologlar guruhidagi qadriyatlar yo'nalishi ko'rsatkichlari

№	Qadriyatlar yo'nalishlari	Sifatlarning o'rtacha chastotasi	Ranjirovka
1.	Ta'limga munosabat	41,6	6
2.	Xulq-atvor va faoliyatning umumiy uslubi	64,4	3
3.	Bilimni tavsiflovchi sifatlar	65,8	1
4.	Aqliy sifatlari	43,4	5
5.	O'quv-tashkiliy ko'nikmalarni tavsiflovchi sifatlar	50,2	4
6.	O'rtoqlariga munosabat	64,8	2
7.	O'z-o'ziga munosabat	31,4	7

Talaba-psixologlar guruhidagi qadriyatlarini yo'nalishida bilimni tavsiflovchi sifatlar (65,8) o'rinish ko'rsatkichi bo'yicha birinchi o'rinni

oldi: ko'p o'qiganlik, qiziquvchanlik, bilimdonlik ustuvor qadriyatlar sifatida gavdalanmoqda.

Ikkinchi muhim qadriyat yo'nalishi sifatida «o'rtoqlariga munosabat» o'rin oldi: hozirjavob, jamoatparvar, vijdonli, muloqotchanlik, adolatlilik.

Uchinchi muhim qadriyat yo'nalishi sifatida ijtimoiy burchini anglaganlik, g'oyaviy e'tiqodli, xushaxloq, ijtimoiy faol, qat'iyatlilik sifatlarini o'zlarida mujassamlashtirgan «xulq-atvor va faoliyatning umumiy uslubi» e'tirof etildi.

Eng quyi qadriyat yo'nalishi esa «o'z-o'ziga munosabat» o'rin oldi. O'z o'ziga beradigan bahoning yuqori tus olishi, o'ziga yuqori talablar qo'yish, erkinlikni yoqlash, vazminlik, ishonch tuyg'usi bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)larning o'quv guruhidagi munosabatlarida aniqlandi.

O'rganilayotgan ob'yekt bo'yicha guruhdagi psixologik muhit o'rtacha ijobiy darajada, ya'ni ijobiydir. Guruhda o'rtacha darajada shakllangan. «Bilimni tavsiflovchi sifatlar», «o'rtoqlariga munosabat» va «xulq-atvor va faoliyatning umumiy uslubi» guruhning asosiy qadriyatlari ekan.

Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portreti ularning kasbiy kamolotini belgilovchi omil ekanligini to'liq tavsiflash uchun omilli tahlil usulidan foydalanildi. Ular navbatdagi paragrafda yoritiladi.

§ 3.4. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretining kasbiy kamolotni ta'minlashiga xizmat qiluvchi omillari

Talaba-psixologlar kasbiy kamolotida ijtimoiy-psixologik portretining ta'sirini aniqlash tadqiqot metodikalarini olingan natijalari ko'rsatkichlari bo'yicha omilli tahlil amalga oshirildi. Buning uchun talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretini tavsiflovchi kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillar, o'quv motivlari, qadriyatlar yo'nalganligi, rasmiy-dinamik xususiyatlari, shaxs xususiyatlari omillari, kasbiy kompetensiyalari,

guruhdagi mikropsixologik muhit va o'quv guruhidagi jipslikni belgilovchi qadriyatlar yo'nalganlik ko'rsatkichlariga murojaat qilindi (8-ilovada).

Bu jarayonda birinchi navbatda talaba-psixologlarning ijtimoiy-psixologik portretining kasb tanlash va kasbiy muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi omillar bilan kasbiy kompetensiyasi ko'rsatkichlari bo'yicha omilli tahlili aniqlandi (3.4.1-jadval).

3.4.1-jadval

Talaba-psixologlarning kasbiy tanlovlari bilan ijtimoiy-psixologik portretining tarkibiy tuzilmasi komponentlari omilli tahlili natijalari

№	Kasb tanlovlari, muvaffaqiyatlar va kompetensiyalarni belgilovchi mezonlar	Omillar				
		1	2	3	4	5
	Psixolog bo'lish qiziqarli va yoqimli	0,760	0,07	0,204	-0,137	0,567
	Insonlarga yordam berish istagi	0,638	-0,392	0,438	0,006	0,323
	O'zimni va o'zga insonlarni tahlil qilish	0,283	0,640	-0,230	0,002	0,484
	Insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish	-0,282	0,780	0,651	-0,140	0,288
	Vaziyat taqozosi bilan	0,342	0,213	-0,181	0,510	0,003
	Psixolog kasblar ichida yuqori nufuzga egaligi	0,611	0,341	0,678	0,327	0,181
	Kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik	0,554	0,532	0,702	0,464	0,004
	Psixolog faoliyati: ish vaqti, mas'uliyati, faoliyat turi va vazifalarining mosligi	0,640	0,723	-0,374	0,270	0,007
	Psixologning shaxsiy sifatleri: mas'uliyatlilik, maqsadga yo'nalgan, vakolatli, aqli, ish tartibi tizimli	0,427	-0,323	-0,105	0,534	0,002
	Psixologning tashqi ko'rinishi: imiji, kiyinish uslubini yoqtirish	-0,291	0,042	0,373	0,293	0,463
	Psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilish	0,177	-0,002	0,578	0,658	0,008
	Shaxsiy munosabatlari	0,041	-0,009	0,640	0,602	0,006
	Ota-onaning nufuzi	0,266	-0,217	0,148	-0,227	0,0005
	Hamkasblari bilan hamkorlik	-0,278	0,532	0,188	0,159	0,558
	Kirishimlilik	-0,278	0,003	0,007	0,002	0,582
	Yashash hududi	-0,117	0,394	0,642	0,005	0,295
	Shaxsiy jozibadorligi	0,651	0,246	0,241	-0,183	0,242
	Yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik	-0,186	0,731	0,280	0,636	0,295
	Kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik)	0,678	0,006	0,103	-0,120	0,005

	Tashkilotchilik qobiliyatlari	0,885	0.005	0.001	0.124	0.0003
	Xorijiy tilni bilishi	0,745	0.004	0.013	0.116	0.0005
	Psixologiyaning zamonaviy muammolaridan xabardorlik darajasi	0,835	0.004	0,005	-0,153	0,110
	Kasbiy faoliyat bo'yicha tayanch bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi	0,966	0.003	0.022	0.014	0.0007
	Psixologiyaning sohalari bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish	0,778	0,103	0.107	-0,150	0.0030
	Psixodiagnostika metodikalarini tanlash, tatbiq qilish, natijalarni tahlil va talqin qilish	0,658	0.607	0.014	0.004	0.0005
	Psixologik treningni tashkil etish, o'tkazish va natijalarini baholay olish qobiliyati	0,477	0,477	0,112	-0,155	0,101
	Psixologik maslahatni tashkil etish, amalga oshirish va tavsiyalar ishlab chiqish	0,871	0,621	0.103	-0,101	0.017
	Psixologik xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini bilishi va uni tashkil etish	0,983	0.08	0.006	0.003	0.0005
	Psixologik tadqiqotlar tashkil etish texnikasi	0,941	-0.06	0.005	0.152	0.002
	Psixologning kasbiy-etikaviy tamoyillarini bilishi	0,569	0.080,	0,123	0.145	0.003
	Psixolog mutaxassisiga xos xususiyatlarni kamol toptirish	0,880	0.006	0.006	0.111	0.0006

Omili tahlil natijasida 31 ta ko'rsatkichlar o'rtasida 5 ta omil aniqlandi. Bu omillar talaba-psixologlarning ayni damdagi ijtimoiy-psixologik portreti kasbiy kamolotini belgilovchi omil vazifasini o'taydi.

Birinchi guruh omillariga 20 ta yuqori yuklamali koeffitsientlar kiritildi. Yuqori yuklamali koeffitsientlarga ko'ra talaba-psixologlarning kasbiy tanlovlaridagi «psixolog bo'lish qiziqarli va yoqimli» (0,760), «insonlarga yordam berish istagi» (0,638), psixolog kasblar ichida yuqori nufuzga egaligi (0,611), kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik (0,554), psixolog faoliyati: ish vaqti, mas'uliyati, faoliyat turi va vazifalarining mosligi (0,640), psixologning shaxsiy sifatleri: mas'uliyatlilik, maqsadga yo'nalgan, vakolatli, aqlli, ish tartibi tizimli (0,427), shaxsiy jozibadorlik (0,651), kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik) (0,678), tashkilotchilik qobiliyatlari (0,885), xorijiy tilni bilishi (0,745) hamda kasbiy kompetensiyalardan psixologiyaning zamonaviy

muammolaridan xabardorlik darajasi (0,835), kasbiy faoliyat bo'yicha tayanch bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi (0,966), psixologiyaning sohalari bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish (0,778), psixodiagnostika metodikalarini tanlash, tatbiq qilish, natijalarni tahlil va talqin qilish (0,658), psixologik treningni tashkil etish, o'tkazish va natijalarini baholay olish qobiliyati (0,477), psixologik maslahatni tashkil etish, amalga oshirish va tavsiyalar ishlab chiqish (0,871), psixologik xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini bilishi va uni tashkil etish (0,983), psixologik tadqiqotlarni tashkil etish texnikasi (0,941), psixologning kasbiy-etikaviy tamoyillarini bilishi (0,569), psixolog mutaxassisiga xos xususiyatlarni rivojlantirish (0,880) bilan yaxlit omilli bog'liqlik hosil qildi. Ushbu omilni **«Psixolog: kasbiy faoliyat yaxlit tizim sifatida»** deb nomlashga sabab bo'ldi. Talaba-psixologning kasbiy tanlovlari, kasbiy muvaffaqiyati sabablari va kasbiy kompetensiyalari uyg'unlashishi kerakligini ko'rsatmoqda.

Ikkinchi guruh omilida 9 ta yuqori yuklamali koeffitsientlar kuzatildi. Ushbu yuqori yuklamali koeffitsientlarga o'zimni va o'zga insonlarni tahlil qilish (0,640), insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish (0,780), kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik (0,532), psixolog faoliyati: ish vaqti, mas'uliyati (0,723), faoliyat turi va vazifalarining mosligi (0,532), hamkasblari bilan hamkorlik (0,731), yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik (0,607), psixodiagnostika metodikalarini tanlash, tatbiq qilish, natijalarni tahlil va talqin qilish (0,644), psixologik treningni tashkil etish, o'tkazish va natijalarini baholay olish qobiliyati (0,477), psixologik maslahatni tashkil etish, amalga oshirish va tavsiyalar ishlab chiqish (0,621) kabi sifatlar kirdi. Ularni umumlashtirgan holda ikkinchi omilning **«Psixolog kasbi: amaliy faoliyat sifatida»** deb nomlash muhimdir. Omildagi barcha xususiyatlar psixolog amaliy faoliyatini belgilovchi tarkibiy tuzilmalardan iboratdir.

Uchinchi omil esa 7 ta yetakchi yuklamali koeffitsientga ega: insonlarga yordam berish istagi (0,438), insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish (0,651), psixolog kasblar ichida yuqori nufuzga egaligi (0,678)

kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik (0,702), psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilish (0,578), shaxsiy munosabatlari (0,640), yashash hududi (0,642). Ushbu omildan ko‘rinadiki, psixolog kasbi «faoliyat yo‘nalishlari uyg‘unligi»da kamol topadi. Uchinchi omil **«Psixolog: faoliyat yo‘nalishlari uyg‘unligi»** deb nomlandi.

To‘rtinchi omilda esa vaziyat taqozosi bilan (0,510), kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik (0,464), psixologning shaxsiy sifatleri: mas’uliyatlilik, maqsadga yo‘nalgan, vakolatli, aqlli, ish tartibi tizimli (0,534), psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilish (0,658), shaxsiy munosabatlari (0,602), yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik (0,636) kabi yuqori yuklamali koeffitsientlarda kuzatildi. Mazkur omil **«Psixolog: intilish, izlanish va o‘rganish»** deb nomlandi. Psixolog sifatida ba‘zan kamol topish uchun har qanday muhitda intilish, izlanish va o‘rganish tamoyillarini uyg‘unlashtirish lozim ekan.

Beshinchi omilni tashkil etuvchi yuqori yuklamali koeffitsientlar 5 tani tashkil etdi: psixolog bo‘lish qiziqarli va yoqimli (0,567), o‘zimni va o‘zga insonlarni tahlil qilish (0,484), psixologning tashqi ko‘rinishi: imiji, kiyinish uslubini yoqtirish (0,463), hamkasblari bilan hamkorlik (0,558), kirishimlilik (0,582). Beshinchi omilning mazmunini tashkil etuvchilarga asoslanib, uni **«Psixolog: men va ijtimoiy munosabatlar mutanosibli natijasi»** deb nomladik.

Ushbu 5 ta omillar talaba-psixologlarning kasbiy kamolotini belgilovchi omillar sifatida kasbiy ta’lim jarayonida e’tiborga olish lozim.

Empirik ko‘rsatkichlar asosida **«Talaba-psixologning ijtimoiy-psixologik portreti xaritasi»** shakllantirildi. Mazkur xaritaning umumiy mazmunini quyidagi 3.4.2-jadvalda ifodalangan.

TALABA-PSIXOLOGLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK PORTRETI XARITASI

№	Talaba-psixologning ijtimoiy-psixologik portretining tashkiliy tuzilmasi	Aks etganlik darajasi		
		Yuqori	Oʻrta	Quyi
I. RASMIY-DINAMIK VA SHAXS XUSUSIYATLARI KOMPONENTLARI				
1.1.	Rasmiy-dinamik xususiyatlari	noaniq tip, quyi emotsionalli aralash tip	flegmatik , yuqori emotsional aralash tip, xolerik , quyi faollikdagi aralash tip	sangvinik , melanxolik
1.2.	Shaxs xususiyatlari	muloqotchan, yuqori intellekt, oʻzini nazorat qilishi yuqori	dominantlik, masʼuliyatlilik, emotsional barqarorlik, axloqiy meʼyorlarga yuqori boʻysunuvchan, jasurlik, muomala qilishga ustalik, yangilikka sezgir, mustakil, keskinlik, taʼsirchanlik, muvofiqlashuvchan	taʼsirchanlik
1.2.1	Kommunikativ omillar	muloqotchan	dominantlik, muomala qilishga ustalik, jasur, mustaqil	shubhalanuvchan
1.2.2	Intellektual omillari	intellektuallik	muomala qilishga ustalik, xayoliy obrazlari boy, yangilikka sezgir	-
1.2.3	Emotsional omillari		emotsional barqaror, begʻam, jasurlik, xavotirlanish, zoʻriqish	emotsional sezgirlik
1.2.4	Shaxsni tartibga soluvchanlik omillari	Oʻzini-oʻzi tartibga soluvchi	axloqiy meʼyorlarga boʻysunuvchan	-
1.3.	Qadriyatlar yoʻnalganligi	oliy nufuzga erishish qadriyat yoʻnalishi	yuqori moddiy taʼminot, oʻz ustida ishlash qadriyati, faol ijtimoiy munosabat qadriyati	

1.4.	O'quv faoliyat motivlari	yuqori malakali mutaxassis bo'lish, chuqur va mukammal bilimga ega bo'lish, kelajakdagi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini ta'minlash; o'qishdan intellektual qoniqish olish; diplom olish, juda yaxshi o'qib, «a'lo» va «yaxshi» baholar olish; ota-ona va atrofdagilarni ma'qullashlariga erishish; o'quv fanlarining o'zlashtirishni susaytirmaslik	keyingi bosqichlarni muvaffaqiyatli o'qish; o'qituvchilarni hurmatiga sazovor bo'lish; hamisha kelgusi darslarga tayyor bo'lib turish; doimo stipendiya olish	guruhdagilardan ortda qolmaslik; o'qituvchilarni talablariga javob berish; kursdoshlariga ibrat bo'lish; yomon natijalar tufayli jamoa tanbehlaridan qochish
II. IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUNOSABATLAR KOMPONENTI				
2.1.	Guruhdagi mikropsixologik muhit	talabalar guruhning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etadilar. guruh faol, ishga layoqatli, yangi kelganlar guruhda do'stona va g'amxo'r munosabatni his etadi.	Guruh odatda quvnoq va shod kayfiyatda., Talabalar guruhda ularni himoya qilishini va qo'llab-quvvatlashini biladilar va his qiladilar, guruh ichidagi alohida mikroguruhlarining munosabatlari jamoa uchun umumiy masalalarda o'zaro tushunish, xushmuomalalik, hamkorlik bilan tavsiflanadi. Guruhdagi nizolar kamdan-kam hollarda paydo bo'ladi, jiddiy sabablarga ko'ra adolatli va xushmuomalalik bilan hal etiladi, Talabalarda ta'lim muassasasi va undan tashqarida ham birga bo'lish yoqadi. Talabalar o'z guruhini sevadi, uning yutuqlari xursand va muvaffaqiyatsizliklardan xafa bo'ladi	guruhdagi muhit tinch, ishchan, talabalar guruhda o'zlarini qulay his qilishadi, o'quvchilar bir-birlariga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'ladilar, guruh har bir kishining istaklarini hisobga olgan holda jamoat topshiriqlarini taqsimlashga jiddiy yondashadi
	Guruhdagi psixologik mikromuhit	o'rtacha ijobiy muhit		
2.2.	O'quv guruhidagi jipslik va qadriyatlarini yo'nalishlari	bilimni tavsiflovchi sifatlar; o'rtoqlariga munosabat; xulq-atvor va faoliyatning umumiy	aqliy sifatlarini; ta'limga munosabat; o'quv-tashkiliy ko'nikmalarni tavsiflovchi sifatlar	o'z-o'ziga munosabat

		uslub		
	Guruhiy jipslik	jipslik =0,33; talaba-psixolooglar o‘quv guruh o‘rtacha darajada rivojlangan		
III. KASBIY SHAKLLANISHINI TAVSIFLOVCHI KOMPONENTLARI				
3.1.	Kasb tanlash omillar	Psixolog bo‘lishning muhimligi; o‘zga kishilarga yordam berish istagi	o‘zini va o‘zga insonlarni o‘rganish; insonlar bilan muloqot qilish istagi; psixologlik nufuzli kasb ekanligi; kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik; mas‘uliyatlilik, aqlli, ish tartibi tizimli	Vaziyatga bog‘liq tanlangan; Psixologning kiyinish uslubini yoqtirish; psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilish
3.2.	O‘quv faoliyat motivlari	yuqori malaka mutaxassis bo‘lish, chuqur va mukammal bilimga ega bo‘lish, kelajakdagi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini ta‘minlash; o‘qishdan intellektual qoniqish olish; diplom olish, juda yaxshi o‘qib, «a’lo» va «yaxshi» baholar olish; ota-ona va atrofdagilarni ma’qullashlariga erishish; o‘quv fanlarining o‘zlashtirishni susaytirmaslik	keyingi bosqichlarni muvaffaqiyatli o‘qish; o‘qituvchilarni hurmatiga sazovor bo‘lish; hamisha kelgusi darslarga tayyor bo‘lib turish; doimo stipendiya olish	guruhdoshlaridan ortda qolmaslik; o‘qituvchilarni talablariga javob berish; kursdoshlariga ibrat bo‘lish; yomon natijalar tufayli jamoa tanbehlaridan qochish
3.3	Kasbiy muvaffaqiyatlarini belgilovchi omillar	kirishimlilik; yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik;	hamkasblari bilan hamkorlik; ota-onaning nufuzi; yashash hududi; shaxsiy jozibadorligi; kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik); tashkilotchilik qobiliyatlari; xorijiy tilni bilishi; shaxsiy munosabatlari	
3.4.	Kasbiy kompetensiyalari		psixologiyaning zamonaviy muammolaridan xabardorlik darajasi; tayanch bilimlarni o‘zlashtirish; nazariy bilimlarga egalik;	Psixodiagnostikada qo‘llaniladigan testlarni to‘liq tatbiq etish

			psixologik-trening tadbirlarni tashkil etish qobiliyati; psixologik xizmat ko'rsatish sohalarini, muatxassisning axloq qoidalaridan xabardorlik	texnologiyasiga egalik
3.4.	Kasbiy kamolotini belgilovchi yetakchi omillar (ijtimoiy-psixologik portretni ifodalovchi xususiyatlar asosida)	Psixolog kasbiy faoliyati izchil tuzilmagan ega ekanligi	Psixolog kasbiy faoliyati amaliy faoliyat sifatida; kasbiy faoliyat yo'nalishlarining uyg'unlashuvi psixolog kasbini ta'minlash omili; intilish, izlanish va o'rganish psixolog faoliyatining asosiy sharti; «Men» va «Men va ijtimoiy munosabatlar» mutanosibligida psixolog mutaxassisning kamol topishi.	

Talaba-psixologlarning ijtimoiy-psixologik portretini tashkil etuvchilarning ifodalanishida asosiy komponentlar sifatida uchta komponentga tayanildi:

- rasmiy-dinamik va shaxs xususiyatlari jihatlarini;
- ijtimoiy-psixologik munosabatlar jihatlarini;
- kasbiy shakllanishni tavsiflovchi jihatlarini.

Xaritada har bir jabha elementlari kiritilgan va ularning talaba-psixologlarning ijtimoiy-psixologik portretida darajasiga ko'ra tizimlashtirildi.

Individuallik va shaxs xususiyatlari tarkibiy jihatlariga talaba-psixologlarning ijtimoiy-tabiiy jabhalar kiritilgan (o'z navbatida tadqiqot mezonlari va metodikalarini sharhlashda bu haqida yoritilgan).

Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)larning asab tizimi, mijozlari, shaxs fazilatlarini, qadriyatlarini yaxlit tuzilma sifatida tadqiq etildi.

Tadqiqot natijalari o'quv guruhidagi psixologik muhit, o'quv guruhidagi jipslik va qadriyatlarini ijtimoiy-psixologik munosabatlar jabhasiga birlashtirildi. Ularning mazmunini ifodalovchi omillar, xususiyatlar va holatlar mutaxassis ijtimoiy-psixologik tabiatining ajralmas qismi deb baholandi. Kasb tanlashni belgilovchi omillarga o'quv faoliyat motivlari, kasbiy yutuqlarlarini belgilovchilar, kasbiy imkoniyatlari bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)lar kasbiy kamolotining yetakchi omillari ekanligi ilmiy asoslandi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida shakllantirilgan «Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portreti xaritasi» tadqiqotda o'rganilgan muammoning to'liq tavsifini o'zida aks ettirgan hamda mazkur tadqiqot ishi bilan tanishadigan o'quvchi so'zsiz dissertatsiya g'oyasi va uning qo'lga kiritgan yutuqlari bo'yicha yaxlit tasavvur hosil qiladi.

Mazkur tadqiqot ishining empirik o'rganish natijalariga tayanib bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)lar ijtimoiy-psixologik portretida mujassamlashgan to'qqizta mijoz turlari aniqlandi. Ularda noaniq hamda quyi hissiyotli aralash tip asosiy; flegmatik, yuqori emotsional aralash, xolerik va quyi faollikdagi aralash tiplar o'rtacha darajali mijoz tiplari; sangvinik va melanxolik quyi darajali mijoz tiplari differensiatsiyalashtirildi.

2. $Talaba-psixolog = 8,3a + 7,6B - 3,4I - 3,1L + 8,1Q_3$
psixologik profili aniqlandi. Uning tarkibiy tuzilmasi kommunikativ, intellektual, emotsional va shaxsning o'zini-o'zi tartibga solish omillaridan iborat.

3. O'quv guruhidagi psixologik muhit va jipslik hamda qadriyatlari ijtimoiy-psixologik qiyofasini shaxslararo munosabatlaridagi o'ziga xoslikni tavsifladi. Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)lar guruhidagi psixologik muhit o'rtacha ijobiy va ta'lim oluvchilarning jipsligi esa o'rtacha rivojlangan ekan.

4. Ta'lim oluvchilarning guruh ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishlari, guruhiy faollik, yangi kelganlar bilan do'stona munosabatda bo'lish, g'amxo'rlik ko'rsatish o'quv guruhidagi psixologik muhitining yuqori ahamiyatli xususiyatlar ekanligi aniqlandi

5. Psixolog kasbidagi joziba, yoqimlilik, o'zga insonlarga yordam qo'lini cho'zish, o'zini va boshqa insonlarni xususiyatlarini tadqiq etish, shaxslararo munosabatga moyillik, kasblar ichida oliy nufuzga egaligi kasb tanlashida asosiy; mutaxassis sifatida ta'lim olishga tayyorlik, mutaxassislik shaxsiy fazilatlari, hozirjavoblik, zehnlilik, tizimli ish tartibi o'rtacha va tasodifan, ish vaqti, faoliyat turi va vazifalarni yoqqanligi, tashqi qiyofasini ifodalovchi uslublari quyi sabablar ekanligi isbotlangan.

6. Bo'lg'usi mutaxassis (talaba psixolog)larni qo'lga kiritadigan ijobiy natijalarini muloqotchanlik, kasbiy bilim va tajribalarni yuqori saviyada egallaganligi belgilab berar ekan. Ularning ijtimoiy-psixologik portretida mujassamlashgan xususiyatlar kasbiy imkoniyatlarini umumiy tasvirini ifodalaydi. Umumiy kasbiy imkoniyatlarning tarkib topganlik holati o'rtacha holatda. Ekspert baholariga ko'ra talaba-psixologning sohasidagi zamonaviy muammolaridan xabardorligi, sohasi bo'yicha tayanch bilimlarni o'zlashtirganligi, fan sohalaridan nazariy tayyorligi, mutaxassislik axloq-odob qoidalaridan xabardorligi o'rtacha ekanligi ekspert baholarida kuzatildi. Kasbiy imkoniyatlarining eng oliy darajasini ifodalovchi xususiyatlar mavjudligi tadqiqotda isbotlanmadi.

XULOSALAR

1. Shaxs tuzilmasi, o'ziga xoslik va faoliyat sub'yekti, ijtimoiylashuvni tashkil etuvchilari, shaxs faoliyatining ijtimoiy-psixologik jabhalari ijtimoiy-psixologik portretni shakllantirishning asosiy mezonlari bo'lib xizmat qildi.

2. Jins, yosh, ta'lim, kasb kabi ijtimoiy xoslikni tavsiflovchi xususiyatlar, ijtimoiy ehtiyoj, faoliyat motivlari, o'zga insonlar bilan munosabati, o'zaro tushunishi kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar hamda yakkahol xususiyatlari ijtimoiy-psixologik qiyofani shakllantirishda metodologiya vazifasini o'tadi.

3. Psixolog kasbidagi joziba, yoqimlilik, o'zga insonlarga yordam qo'lini cho'zish, o'zini va boshqa insonlarning xususiyatlarini tadqiq etish, shaxslararo munosabatga moyillik, kasblar ichida oliy nufuzga egaligi kasb tanlashida asosiy; mutaxassis sifatida ta'lim olishga tayyorlik, mutaxassislik shaxsiy fazilatlari, hozirjavoblik, zehnlilik, tizimli ish tartibi o'rtacha va tasodifan, ish vaqti, faoliyat turi va vazifalarni yoqqanligi, tashqi qiyofasini ifodalovchi uslublari quyi sabablar ekanligi isbotlangan.

4. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik va kasbiy kamolotida qadriyatlar yo'nalganligi muhim tarkibiy tuzilma hisoblanadi. Tadqiqotda talaba-psixologlarda oliy nufuzga erishish va yutuqlarga yo'nalganlik ijtimoiy-psixologik portretining yuqori darajadagi qadriyat yo'nalishlari ekanligi tasdiqlandi.

5. Bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)lar ijtimoiy-psixologik portretida mujassamlashgan to'qqizta mijoz turlari aniqlandi. Ularda noaniq hamda quyi hissiyotli aralash tip asosiy; flegmatik, yuqori emotsional aralash, xolerik va quyi faollikdagi aralash tiplar o'rtacha darajali mijoz tiplari; sangvinik va melanxolik quyi darajali mijoz tiplari aniqlandi.

6. Kommunikativ, intellektual, emotsional va shaxsning o'zini-o'zi tartibga solish omillaridan iborat "talaba-psixolog = $8,3A + 7,6B - 3,4I - 3,1L + 8,1Q_3$ " psixologik profili shakllantirildi.

7. O'quv guruhidagi psixologik muhit va jipslik hamda qadriyatlari ijtimoiy-psixologik qiyofasini shaxslararo munosabatlaridagi o'ziga xoslikni aniqlandi. Bu bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog)lar guruhidagi psixologik muhit o'rtacha ijobiy va ta'lim oluvchilarning jipsligi esa o'rtacha rivojlanganligini tasdiqladi.

8. Bo'lg'usi mutaxassis (talaba psixolog)larni qo'lga kiritadigan ijobiy natijalarini muloqotchanlik, kasbiy bilim va tajribalarni yuqori saviyada egallaganligi belgilab berar ekan. Ularning ijtimoiy-psixologik portretida mujassamlashgan xususiyatlar kasbiy imkoniyatlarining umumiy tasvirini ifodalaydi. Umumiy kasbiy imkoniyatlarning tarkib topganlik holati o'rtacha holatda. Ekspert baholariga ko'ra talaba-psixologning sohasidagi zamonaviy muammolaridan xabardorligi, sohasi bo'yicha tayanch bilimlarni o'zlashtirganligi, fan sohalaridan nazariy tayyorligi, mutaxassislik axloq-odob qoidalaridan xabardorligi o'rtacha ekanligi ekspert baholarida kuzatildi. Kasbiy imkoniyatlarining eng oliy darajasini ifodalovchi xususiyatlar mavjudligi tadqiqotda isbotlanmadi.

9. Psixolog kasbiy faoliyati izchil tuzilma ekanligi; psixolog kasbi amaliy faoliyat sifatida; kasbiy faoliyat yo'nalishlarining uyg'unlashuvi psixolog kasbini ta'minlash omili; intilish, izlanish va o'rganish psixolog faoliyatining asosiy sharti; «Men» va «Men va ijtimoiy munosabatlar»ni muvofiqlashtirish kabi asosiy omillar bo'lg'usi mutaxassis (talaba-psixolog) kasbiy kamolotini tavsiflashi mumkinligini ijtimoiy-psixologik portretning tashkil etuvchilarini faktorli tahlilida aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/4545820>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabridagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni - <https://lex.uz/docs/4545884>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida» №472-son Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - <http://uzlidep.uz/news-of-uzbekistan/7998>

5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

7. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug' hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi / Sh.M. Mirziyoyev. –Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019. – 400 b.

Monografiya, ilmiy maqola, ilmiy to'plamlar va boshqa adabiyotlar

8. Abdullayeva R.M. Talabalardagi oila-nikoh ustanovkalarining psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomz.diss. avtoreferati – Toshkent, 2011. – 20b.

9. Абрамова Г.С. Введение в практическую психологию. – М.: Международная педагогическая академия, 1995. – 264 с.
10. Абрамова О. А. Социально-психологический портрет российского ИТ-предпринимателя // Социальная психология и общество. 2021. Т. 12. № 3. С. 188-204.
11. Авдеева И.О. Профессиография и ее роль в развитии профессионализма // Общество: социология, психология, педагогика, 2013. № 2. – С.40-44.
12. Авдеева Т. Ценностно-смысловые ориентации личности руководителя / Tatyana Avdeeva. – М.: LAP Lambert Academic Publishing, 2016. –148 с.
13. Айзенк Г.Ю. Структура личности / Пер. с англ.. – М.; СПб: КСП+; Ювента, 1999. – 463 с.
14. Активные методы в работе школьного психолога. / Отв. ред. И.В.Дубровина. – М., 1990. –166 с.
15. Актуальные проблемы социально экономического развития трудового коллектива производственного объединения: сб. ст. / МГУ им. М.В. Ломоносова. – М.: Изд - во МГУ, 2010. –207 с.
16. Албуханова-Славская К.А. Проблема личности в психологии // Психологическая наука в России XX столетия: проблемы теории и истории. –М.: ИП РАН, 1997. - С.270-373.
17. Аминов Н.А., Молоканов М.В. О компонентах специальных способностей будущих школьных психологов. // Психолог, журнал. 1992. Т. 13. №5. С. 104-110.
18. Аминов Н.А., Молоканов М.В. Социально-психологические предпосылки специальных способностей школьных психологов. // Вопр. психол. 1992. № 1-2. С. 74-83.

19. Ананев Б.Г. Психология и проблемы человекознания. – М. : Издательство «Институт практической психологии». Воронеж: НПО «МОДЕК», 1996. – 384 с.
20. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник / Г.М. Андреева. 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Аспект-Пресс, 2014. – 365 с.
21. Асмолов А.Г. Психология личности: принципы общепсихологического анализа. – М.: Смысл, 2001. – 416 с.
- s) yo‘q.

39. Turli ijtimoiy tadbirlarda odamlar bilan aloqada bo'lish men uchun oson:

- a) ha;
- b) ishonchim yuk;
- s) yo'q.

40. Menga quyidagi ish qiziqarliroq bo'lardi:

- a) yoshlarga maslahat berish va ularga ish tanlashga yordam berish;
- b) javob berishim qiyin;
- s) injener-iqtisodchi bo'lib ishlash.

41. Agar boshqa odam xaqqoniy bo'lmagan tarzda yoki egoistik ravishda ish tutsa, menga nohush bo'lsa ham bu haqda unga aytishni lozim topaman:

- a) ha;
- b) oraliq javob to'g'ri;
- s) yo'q.

42. Arzimas narsalar, masalan ko'chalar, magazinlarning nomini xotiramda saqlamayman:

- a) ha;
- b) oraliq javobni tanlardim;
- s) yo'q

43. Agar men bilgan narsani boshqa birov o'zgartirib gapirsa, u holda men quyidagi fikrga boraman:

- a) «u — yolg'onchi»;
- b) o'rtacha javob;
- s) «unga noto'g'ri ma'lumot berishgandir».

44. Aytishlaricha, xayajonlanishim kiyofam va ovozimdan yaqqol sezilib turadi:

- a) ha;
- b) o'rta javobni tanlardim;
- s) yo'q.

45. O'smirlik paytimda, fikrim ota-onamnikiga to'g'ri kelmasa, men:

- a) o'z fikrimda qolardim;
- b) a va s o'rtasidagi oraliq javob;
- s) ularning salobatini tan olib yon berardim.

46. Kamtarona yashashni afzal ko'raman, inson o'z muvaffaqiyatlari bilan o'ta faxrlanishi noto'g'ri:

- a) xa;
- b) o'rta javobni tanlardim;
- s) yo'q;

47. Biron ishni bajarar ekanman, hatto mayda narsalar hisobga olinmaguncha o‘zimni xotirjam his qilolmayman:

- a) ha;
- b) o‘rtacha javobni tanlardim;
- s) yo‘q

48. Ko‘pchilik odamlar qo‘llovchi tanqid uslubi menga yordam bergandan ko‘ra, menga ko‘proq xalaqit beradi:

- a) doimo;
- b) kamdan-kam;
- s) hech qachon.

49. Agar xo‘jalik sohasida ishlaganimda quyidagi ishlar bilan shug‘ullanish men uchun qiziqarli bo‘lardi:

- a) buyurtmachi va mijozlar bilan suhbatlashish;
- b) o‘rtacha javobni tanlayman;
- s) hisob-kitob yuritish va hujjatlar bilan ishlash.

50. «Yaqinda» so‘zi «hech qachon» so‘ziga mos kelganidek, «yaqin» so‘zini quyidagilardan biri bilan bog‘lar edim:

- a) hech qaerda;
- b) uzoq;
- s) yo‘qolsin.

51. Odamlar asossiz urushganda, men:

- a) jim bo‘laman;
- b) nima deyishni bilmayman;
- c) nafratimni bildiraman.

52. Biron ishning boshlanishi muvaffaqiyat xaqida dalolat bermasa-da, tavakkal qilish kerak deb o‘ylayman:

- a) ha;
- b) o‘rta javob to‘g‘ri;
- s) yo‘q.

53. Men ko‘pincha do‘stlarim bilan qachonlardir bo‘lib o‘tgan qiziqarli hodisalar haqida gaplashaman:

- a) ha;
- b) o‘rtaga yaqin;
- s) yo‘q.

54. Men aniqlikka rioya qiluvchi odamman va har narsa o‘z vaqtida bo‘lishini talab qilaman:

- a) ha;
- b) o‘rta javob to‘g‘ri;
- s) yo‘q.

55. Ozigina ziyraklilik va o'zgalarni ishontirish kerak bo'lib qolsa, odatda menga murojaat etishadi:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

56. Meni ko'proq qurol-yaroqning go'zalligidan ko'ra, boy mazmunga ega she'r zavqlantiradi:

- a) ha;
- b) ishonchim komil emas;
- s) yuk;

57. Ba'zan hazil tariqasida biron yengil gapni gapirib qo'yaman va atrofdagilar bunga qanday javob berishlarini kuzataman:

- a) xa;
- b) oraliq javob to'g'ri;
- s) yo'q.

58. Uzoq davom etuvchi sayohatda men quyidagini ma'qul ko'rardim:

- a) biron murakkab, lekin qiziqarli narsani o'qishni;
- b) nimani tanlashimni bilmayman;
- s) yo'ldoshim bilan gaplashib vaqt o'tkazishni.

59. Turistik sayohatlarda o'z ixtiyorim bilan harakatlanish emas, balki mutaxassislar tomonidan tuzilgan dasturdan foydalangan ma'qul deb hisoblayman:

- a) ha;
- b) o'rta yaqin javob;
- s) yo'q.

60. Meni maqtab, sha'nimga chiroyli gaplar aytishsa o'zimni noqulay his etib ketaman:

- a) ha, bu to'g'ri;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q, bu noto'g'ri.

61. Agar guruhda bahs boshlanib ketsa:

- a) bu bahsda kimning g'olib chiqishi menga qiziqarli bo'ladi;
- b) o'rta yaqin javob;
- s) men hammasi tezroq tugashini xohlardim.

62. Men ishlarimni boshqalarning aralashuvisiz o'zim rejalashtirishni ma'qul ko'raman:

- a) ha;
- b) o'rta yaqin;
- s) yo'q.

63. Men qat'iy aytishim mumkinki, rahbar doim ham haq bo'lmaydi, lekin u o'zining aytganida qat'iy turishga haqlidir:

- a) ha;
- b) ishonchim komil emas;
- s) yo'q.

64. Ba'zan arzimasi to'siqlar ham mening jahlimni chiqaradi:

- a) ha;
- b) o'rtacha javobni tanlardim;
- s) yo'q.

65. Agar kimgadir sovg'a sotib olish yoki yubiley tufayli pul yig'ish bilan bog'liq tadbirni amalga oshirishni so'rashsa men:

- a) rozi bo'lar edim;
- b) bunday taklifga ikkilanaman;
- s) afsuski hozir bandman, deb javob berardim.

66. «Taajjub» so'zining «g'aroyib» so'ziga bog'liqligidan kelib chiqib, «qo'rqinch» so'zini quyidagi so'zlardan biri bilan bog'lar edim:

- a) jasur;
- b) tashvishli;
- s) vahimali.

67. Men musiqa tinglayotgan bo'lsam-u, yonimda kattiq ovozda gaplashayotgan bo'lishsa:

- a) bu menga xalaqit bermaydi va e'tiborimni buzmaydi;
- b) oraliq javob to'g'ri;
- s) rohatimni buzadi va jahlimni chiqaradi.

68. Men beixtiyor tarzda rahbar rolida bo'lib qolaman, chunki kollektiv nimani qilishi kerakligini hammadan ko'ra yaxshi bilaman:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

69. Faqat qiziqarli bo'lgani uchun tavakkal qilish menga zavq baxsh etadi.

- a) ha;
- b) o'rta yaqin javob;
- s) yo'q.

70. Men vijdonan va mahorat bilan bajariladigan ish bilan shug'ullansam rohat olaman:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

71. Men o‘zimni muomalali (ko‘ngli ochiq) odam deb hisoblayman:

- a) ha;
- b) o‘rtaga yaqin javob javob;
- s) yo‘q.

72. Maktabda men quyidagi fanni ma‘qul ko‘rardim:

- a) ona tilini;
- b) aytishim qiyin;
- s) matematika yoki arifmetikani.

73. Ba‘zan odamlar mening orqamdan asossiz ravishda bo‘lmag‘ur gaplarni gapirishgan va bundan men xafa bo‘lganman:

- a) ha;
- b) javob berishim qiyin;
- s) yo‘q.

74. Men jon dilim bilan teatr, konsertlar va shu kabilarni sharhlovchi sifatida gazetada ishlay olardim:

- a) ha;
- b) ishonchim yo‘q;
- s) yo‘q.

75. Tarbiyada muhimi:

- a) bolani muhabbat va g‘amxo‘rlik bilan qurshab olish;
- b) o‘rta javobni tanlayman;
- s) bolada kerakli ko‘nikma va qarashlarni shakllantirish.

76. Hech narsa qilmagan bo‘lsam xam, xuddi meni biron chora kutayotganday hissiyot menda bo‘ladi:

- a) ha, tez-tez bo‘ladi;
- b) ba‘zan;
- s) hech qachon bo‘lmaydi.

77. O‘ylashimcha, jamiyatimiz eski odat va an‘analarni tashlab yuborib, yangilarini kiritib borsa maqsadga muvofiq bo‘lardi, deb hisoblayman:

- a) ha;
- b) o‘rta javob to‘g‘ri;
- s) yo‘q.

78. Men quyidagi usul orqali materialni yaxshi tushunib olaman:

- a) yaxshi yozilgan matnni o‘qish orqali;
- b) o‘rta javob to‘g‘ri;
- s) guruh bilan muhokama etish orqali.

79. O‘z fikrimni aytishdan avval, haqligim xaqida butkul ishonch hosil qilmagunimcha kutib turaman:

- a) doimo;
- b) odatda;
- s) agar bunga imkoniyat va zarurat bo'lsa.

80. Ko'p hollarda odamlar mening asabimga qattiq tegishadi:

- a) ha;
- b) o'rtacha javob to'g'ri;
- s) yo'q.

81. Agar oylik bir xil bo'lsa, men quyidagi sohalardan birida ishlashni hohlardim:

- a) advokat;
- b) tanlashda qiynalayapman;
- s) shturman yoki uchuvchi;

82. «Razmer» so'zining «uzunlik» so'ziga bog'liqligidan kelib chiqib, «insofsiz» so'zini quyidagi so'zlardan biri bilan bog'lar edim:

- a) qamoq;
- b) gunohkor;
- s) o'g'irlik qilgan.

83. O'z ishim ustida diqqatimni jamlab, atrofdagi odamlar shovqiniga e'tibor bermay ishlay olaman:

- a) ha;
- b) oraliq javob to'g'ri;
- s) yo'q.

84. Atrofdagilar mening fikrga boyligimni bilishadi va men xohlagan paytda biron muammoni hal etish bo'yicha taklif berishim mumkin:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

85. Meni har narsadan hayratlanuvchi odam deb hisoblashadi:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

86. Agar ikki qo'shni bolalar urishayotganini ko'rib qolsam, men:

- a) o'zlari hal qilib olishar, deb aralashmasdim;
- b) nima qilishimni bilmayman;
- s) ularning janjallari sababini aniqlashga harakat qilardim.

87. Odamlar bilan suhbatlashganda:

- a) o'z hissiyotlarimni jilovlashim mumkin;
- b) o'rta yaqin javob;
- s) men o'zimning tuyg'ularimni ochiq oydin bayon etaman;

88. Menimcha, quyidagi kasb sohibi bo'lish qiziqarli bo'lardi:

- a) injener-konstruktor;
- b) qaysini tanlashni xam bilmayman;
- s) dramaturg.

89. Odatda, man-manga berilgan odamlarga chidam bilan qarayman, garchand ular o'zlarini ko'z-ko'z qilib maqtanayotgan bo'lsalar xam:

- a) xa;
- b) o'rtacha javob to'g'ri bo'lardi;
- s) yo'q.

90. Agar menga majlisda uzoq vaqt davomida gapirmay va harakat qilmay o'tirish zarurati tug'lsa, biron narsani chizib o'tirish yoki stulda qimirlab o'tirish odatim yo'q:

- a) roziman;
- b) ishonchim yo'q;
- s) noroziman.

91. Men quyidagi ishni ma'qul ko'rardim:

- a) ish doimiy bo'lmasa-da, lekin ko'p pul ishlab olish imkoni bo'lsa;
- b) nimani tanlashni bilmayman;
- s) maoshi nisbatan katta bo'lmasa ham doimiy ishni.

92. Kasallik kelib chiqishida ruhiy sabablar xam jismoniyolari kabi ahamiyatli degan fikr me'yoridan ko'ra ancha oshirma:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

93. Qaror qabul qilishda men ko'proq quyidagiga asoslanaman:

- a) qalbimga;
- b) aqlimga va qalbimga ham teng;
- s) aqlimga.

94. Agar odamlar do'stlari davrasida ko'proq vaqt o'tkazganida, ular baxtliroq bo'lardilar:

- a) ha;
- b) o'rta javob;
- s) yo'q.

95. Ba'zan oynaga qaraganimda, o'ng tomonim qaerda va chap tomonim qaerda ekanligini aniqlash qiyin:

- a) to'g'ri;
- b) o'rta javob;
- s) noto'g'ri.

96. Meni nimalar kutishini o'ylasam asabiylasha boshlayman:

- a) ha;
- b) ba'zan;
- s) yo'q.

97. Mening hayotimda:

- a) saylanuvchi mansablarda kam ishlaganman;
- b) oraliq javob;
- s) saylanuvchi mansablarda ko'p ishlaganman.

98. «Yaxshiroq» so'zi «eng yomon» so'ziga to'g'ri kelganidek, «eng sekin» so'zi quyidagilarning qaysi biriga to'g'ri keladi:

- a) tez;
- b) eng yaxshi;
- s) juda tez.

99. Agar odamlar orasida biron xato harakatga yo'l qo'ysam bu haqda tezda unutaman:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

100. Men o'zimni yaxshiroq ko'rsata olaman:

- a) xotirjamlikni saqlash kerak bo'lgan qiyin vaziyatlarda;
- b) aniq emas;
- b) odamlar bilan til topishish zarur bo'lganda.

101. Menga yangi sharoitlar va safarlar bilan bog'liq ish yoqadi, garchi u bir oz xavfli bo'lsa-da:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

102. Men besaranjom va o'z ko'rinishiga e'tiborsiz odamni ko'rsam:

- a) bu meni tashvishga solmaydi;
- b) o'rtacha javob;
- s) ular menda ko'ngilsizlik va inkor etish hissini uyg'otadi.

103. Men doimo biron narsa bilan band bo'lgan g'ayratli odamlar qatoriga kiraman:

- a) ha;
- b) ishonchim kam;
- s) yo'q.

104. Men notanish joylarga tez moslashaman, qiynalmay shimol qayoqda-yu, janub qaerda, g'arb yoki sharq qaerdaligini aniq ayta olaman:

- a) ha;
- b) o'rtacha javobni tanlardim;

s) yo‘q.

105. Agar kimningdir menga nisbatan jahli chiqsa:

a) uni tinchlantirishga harakat kilaman;

b) nima qilishimni bilmayman;

s) bu mening g‘ashimni keltiradi yoki jahlimni chiqaradi.

106. Menga fotojurnalist sifatida ishlash yoqadi:

a) ha;

b) o‘rtaga yaqin javob;

s) yo‘q.

107. Vaqti-vaqti bilan men jismoniy zo‘riqish talab qiluvchi ishlar bilan shug‘ullanishni ma’qul ko‘raman:

a) ha;

b) oraliq javob;

s) yo‘q.

108. Meni qat’iy va mehnatsevar, lekin ba’zida omadi yurishmaydigan odam, deb hisoblashadi:

a) ha;

b) ishonchim komil emas;

s) yo‘q.

109. Shu kunlarda bizga kerak:

a) xotirjam odamlar;

b) bilmayman;

s) kelajakni yaxshi rejalashtiradigan.

110. Quyidagi vaziyatlarda qiyin masala yoki muammoni hal qilishim yengilroq:

a) agar buni boshqalar bilan muhokama qilsam;

b) o‘rtacha javob to‘g‘ri;

s) agar uni yakka o‘zim o‘ylab yechsam.

111. Gapirayotib, men quyidagiga moyillik sezaman:

a) miyamga kelgan fikrni darhol aytish;

b) o‘rta javob;

s) oldin yaxshilab fikrimni jamlab olishni.

112. Ba’zan mayda narsalar asabingga tega boshlaydi, hatto ularning arzimasligini bilgan taqdiringda ham:

a) xa;

b) o‘rta javob to‘g‘ri;

s) yo‘q.

113. Agar shunday imkoniyat bo‘lib qolsa, quyidagi soha egasi bo‘lishni xoxlardim:

- a) o'rmonchi bo'lishni;
- b) tanlashim qiyin;
- s) yuqori sinflar o'qituvchisi bo'lishni.

114. «Alanga» so'zining «issiq» so'ziga bog'liqligidan kelib chiqib, «atirgul» so'zini quyidagi so'zlardan biri bilan bog'lar edim:

- a) tikan;
- b) qizil yaproqchalar;
- s) hid.

115. Yovvoyi xayvonlarni ko'rsam, negadir vahimaga tushaman, garchand ular yaxshilab berkitib qo'yilgan bo'lsa ham:

- a) ha, shunday;
- b) ishonchim yo'q;
- s) yo'q, bu noto'g'ri.

116. Men o'zgalarni va ularning qarashlarini tanqid qilishdan o'zimni tiyaman:

- a) ha;
- b) ba'zan;
- s) yo'q.

117. Zamonaviy ommabop musiqadan ko'ra yengilroq klassik kuyni ma'qul ko'raman:

- a) xa, shunday;
- b) ishonchim yo'q;
- s) yo'q, bu noto'g'ri.

118. O'ylashimcha, erkin bo'lish jamiyatdagi axloq odob me'yorlariga rioya qilishdan ko'ra muhimroq:

- a) to'g'ri;
- b) ishonchim yo'q;
- s) noto'g'ri.

119. Ko'pchilikning diqqat markazida bo'lib qolsam, o'zimni salgina yo'qotib qo'yaman:

- a) ha;
- b) ikkalasining o'rtasi;
- s) yo'q.

120. Men ko'proq quyidagi mavzularni o'qishni yaxshi ko'raman:

- a) harbiy va siyosiy o'tkir nizolar bilan bog'liq hodisalar xaqida;
- b) qaysini tanlashimni bilmayman;
- s) xayolim va hissiyotimni qo'zg'atib yuboruvchi romanlarni.

121. Agar men biron nohaq maqolani ko'rib qolsam muallifga norozi javobimni aytgandan ko'ra, bu holni tezda unuta olaman:

- a) ha, shunday;
- b) shunday deyishga ishonchim yo‘q;
- s) yo‘q, bunday emas.

122. Ba’zi bir odamlarning ko‘chada yoki magazinda boshqalarga tikilib qarab turishi menga yoqmaydi:

- a) ha;
- b) o‘rta javobni tanlardim;
- s) yo‘q.

123. Menga hayvonlarni da’volovchi veterinarlik kasbi to‘g‘ri kelardi:

- a) ha;
- b) javob berishim qiyin;
- s) yo‘q.

124. Meni aybsiz tanqid qilishganda, menda:

- a) hech qanday aybdorlik hissi uyg‘onmaydi;
- b) o‘rtacha javob;
- s) o‘zimni sal bo‘lsa xam aybdor his etaman.

125. Men quyidagi ish bilan shug‘ullanishni ma’qul ko‘rardim:

- a) aniq va doimiy maoshga ega bo‘lgan ishni;
- b) o‘rta javob to‘g‘ri;
- s) harakatim va samaradorligimdan kelib chiqib kattaroq pul ishlash imkonini beruvchi ishni.

126. Men ijtimoiy hayotda ishtirok etishni, turli komissiyalarda ishlashni yaxshi ko‘raman:

- a) ha;
- b) o‘rtacha javobni tanlardim;
- s) yo‘q.

127. Ba’zan o‘z-o‘zimga rahmim va xo‘rligim kelgan paytlar bo‘lib qoladi:

- a) tez-tez;
- b) ba’zan;
- s) hech qachon.

128. Biron narsadan o‘ta asabiylashsam ham, men tezda yupanaman:

- a) ha;
- b) o‘rta javob;
- s) yo‘q.

129. Agar men biron foydali kashfiyot yaratganimda quyidagini ma’qul ko‘rardim:

- a) laboratoriyada bu kashfiyot ustida ishni davom etgirishni;
- b) tanlashim qiyin;

s) uni amaliyotga tatbiq etishga harakat qilardim.

130. «Belkurak» soʻzi «qazish» bilan qanday bogʻlik boʻlsa, «pichoq» soʻzi quyidagilar bilan shunday bogʻlangan:

- a) oʻtkir;
- b) kesmoq;
- s) charxlash.

131. Baʼzan ayrim fikrlar menga uyqu bermaydi:

- a) ha, bu toʻgʻri;
- b) ishonchim yoʻq;
- s) yoʻq, bu notoʻgʻri.

132. Eskirgan qonunlar quyidagi tarzda oʻzgartirilishi lozim:

- a) faqat batafsil muhokamadan soʻng;
- b) oʻrta javob;
- s) shu zahotiyoq oʻzgartirilishi kerak.

133. Haqiqatan ham, koʻpchilik odamlarga qaraganda mening doʻstlarim kam:

- a) ha;
- b) oʻrta javobni tanlardim;
- s) yoʻq.

134. Atrofdagilar meni yaxshi odam deb hisoblaganlari bilan baʼzan menga yengiltaksan deb aytishadi:

- a) ha;
- b) oʻrta javobni tanlardim;
- s) yoʻq.

135. Men oʻzimdan mavqei yuqori odamlar oldida (hayot va ish tajribasi katta, yoki lavozimi baland) oʻzimni kamtarona tutishga harakat qilaman:

- a) xa;
- b) oʻrtacha javobni tanlardim;
- s) yoʻq

136. Men quyidagicha musiqani yaxshi koʻraman:

- a) yengil, jonli, mazmunsiz boʻlsa ham;
- b) oʻrtaga yaqin javobroq;
- s) hissiyotga boy va sentimental.

137. Agar rahbariyat yoki oila aʼzolarim menga taʼna qilishsa, odatda bu faqatgina ish yuzasidan boʻladi:

- a) toʻgʻri;
- b) a va s ning oraliq javobi;
- s) notoʻgʻri.

138. Agar odam aytayotgan bo'lsa, men deyarli doimo uning yuziga qarab buni bilib olaman:

- a) ha;
- b) o'rta javob;
- s) yo'q

139. Men maza qilib ovqatlanaman va ovqatlanish chog'ida boshqalar kabi o'z harakatlarimni sinchkovlik bilan kuzatmayman:

- a) ha, shunday;
- b) ishonchim yo'q;
- s) yo'q, bunday emas.

140. Agar meni rahbar o'z oldiga chaqirsa, men:

- a) bu vaziyatdan o'zimga kerakli narsani so'rab olishga imkoniyat topaman;
- b) o'rtacha javob;
- s) biron narsani noto'g'ri qilib qo'ydimmi, deb xavotirlanaman.

141. Har qanday davlat anjumanlarida rang-baranglik va tantanavorlik saqlanishi lozim:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

142. Agar odamlar meni asabiylashgan va odob-axloq me'yorlariga rioya qilmaydigan deb hisoblashsa, bu menga yoqmaydi:

- a) juda ham;
- b) qisman;
- s) mutlaqo bezovta qilmaydi.

143. Ba'zan mendagi hasad hissi xatti-harakatlarimga ta'sir qiladi:

- a) ha;
- b) o'rtaga yaqin javob;
- s) yo'q.

144. Men doimo o'z hissiyotlarimni nazorat qila olaman:

- a) ha;
- b) o'rta javobni tanlardim;
- s) yo'q.

145. Ish davomiyligi va maoshi bir xil bo'lgan taqdirda men quyidagi kasb bo'yicha ishlashni ma'qul ko'rardim:

- a) duradgor yoki oshpaz;
- b) nimani tanlashni bilmayman;
- s) yaxshi restoranda ofitsiant bo'lib.

146. «Charchoq» so'zining «ish» so'ziga bog'liqligidan kelib chiqib «faxrlanish» so'zini quyidagi so'zlardan biri bilan bog'lar edim:

- a) tabassum;
- b) muvaffaqiyat;
- s) baxtli.

147. Ba'zi odamlar negadir mendan o'zlarini olib qochishadi, lekin nega shundayligini bilmayman:

- a) ha, to'g'ri;
- b) ishonchim yo'q;
- s) yo'q, bu noto'g'ri.

148. Agar harakatlarim atrofdagilarga ta'sir o'tkazsa, men o'zimni noqulay his etaman:

- a) ha, bu to'g'ri;
- b) ishonchim yo'q;
- s) yo'q, bu noto'g'ri.

149. Ijtimoiy tadbirlarda faqat kerak bo'lganda qatnashaman va boshqa hollarda ulardan qochaman:

- a) ha;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) yo'q.

150. Ba'zan odamlarning mehribon maslahatlarini qabul qilmayman, garchand shunday qilishim kerakligini bilgan taqdirimda ham:

- a) kamdan-kam;
- b) bunday bo'lmasa kerak;
- s) hech kachon.

151. Mening ko'p odamlar oldida yoki katta auditoriyada so'zga chiqishim qiyin:

- a) ha;
- b) o'rta javobni tanlardim;
- s) yo'q.

152. Har narsani ham astalik bilan bajarib bo'lmaydi, ba'zi hollarda kuch xam ishlatish zarur:

- a) qo'shilaman;
- b) o'rtacha javob to'g'ri;
- s) qo'shilmayman.

153. Agar mening tanbehim inobatga olinmay qolsa, men o'zimni quyidagicha tutaman:

- a) boshqa qaytarmaslikka harakat qilaman;
- b) javob berishga qiynalayapman;
- s) bergan tanbehimni boshqatdan takrorlayman;

154. Eng zerikarli kundalik ishni ham ohirigacha yetkazish kerak, garchand bunda zarurat bo'lmasa ham:

- a) roziman;
- b) ishonchim yo'q;
- s) rozi emasman.

155. Xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarda, men baland ovozda gapiraman, garchi bu odobsiz ko'rinsa va xotirjamlikni buzsa:

- a) ha;
- b) o'rtacha javob;
- s) yo'q.

156. Men hech kimni ko'rishga kayfiyatim yo'q vaqtlar bo'lib turadi:

- a) juda kamdan-kam hollarda;
- b) o'rta javobni tanlardim;
- s) ko'pincha;

157. Menimcha, zamonaviy dunyoda hal qilish muhimroq:

- a) axloqiy muammolar;
- b) bilmayman;
- b) dunyo mamlakatlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar.

158. Biron ish ustida ishlar ekanman, men buni quyidagicha bajarishni ma'qul ko'rardim:

- a) kollektivda;
- b) nimani tanlashni ham bilmayman;
- s) mustaqil ishlab.

159. Qabul qilingan qoidalarga muvofiq harakat qilish o'rniga o'z yo'lim bilan borishni afzal ko'raman:

- a) to'g'ri;
- b) bilmayman;
- s) noto'g'ri.

160. Men qattiq uxlayman, uyqumda gapirmayman:

- a) ha;
- b) o'rtacha javobni tanlardim;
- s) yo'q.

161. Menimcha quyidagi kasb sohibi bo'lish qiziq:

- a) rassom;
- b) qaysini tanlashimni bilmayman;
- s) teatr yoki kinostudiya direktori bo'lish.

162. Quyidagi so'zlarning qaysi biri qolgan ikkitasiga to'g'ri kelmaydi:

- a) sham;
- b) oy;

s) chiroq.

163. Boshqalarga mehribonlarcha munosabatda bo'lishimga qaramay, ular menga nisbatan kamroq, mehribonlik ko'rsatadilar:

a) tez-tez;

b) ba'zan;

s) xech qachon.

164. Kayfiyatim yomon bo'lganda o'z hissiyotimni atrofdagilardan yashirishga intilaman:

a) ha, bu to'g'ri;

b) o'rtacha holat bo'lsa kerak;

s) bu noto'g'ri.

165. Oldindan quvonib, hali bo'lmagan g'alaba nashidasini his etgandan ko'ra, ehtiyot bo'lib, zaruridan kamrog'iga umid qilib turish kerak:

a) qo'shilaman;

b) ishonchim yo'q;

s) qo'shilmayman.

166. Odamlar orasida turli vaziyatlarda, xuddi katta sahnaga chiqayotgandek hayajonlanishni his etaman:

a) tez-tez;

b) kamdan-kam;

s) bunday bo'lmagan bo'lsa kerak.

167. Begonalar bilan muloqot qilishda ehtiyot bo'lishingiz kerak masalan: kasallik yuqtirishingiz mumkin:

a) ha;

b) o'rtaq yaqin javob;

s) yo'q.

168. Agar mening tanishlarim men bilan yomon munosabatda bo'lib, o'zining yoqtirmasligini namoyon qilishsa, u holda:

a) bu menga hech qanday azob bermaydi;

b) o'rta javob to'g'ri;

s) mening ko'nglim (dux) tushib ketadi.

169. Men kerak bo'lsa, eski odatlarimni tark etishim va ularga boshqa qaytmasligim mumkin:

a) ha;

b) o'rta javob to'g'ri;

s) yo'q.

170. Qaysi bir nisbat qolgan ikkitasiga mos kelmaydi:

a) 3/7;

b) 3/9;

s) 3/11.

171. Ba'zan oldindan rejalab qo'ygan ishlarni bajarish vaqti kelganida ularni amalga oshira olmasligimni sezaman:

- a) qo'shilaman;
- b) o'rta javob to'g'ri;
- s) qo'shilmayman.

172. Uyatsiz so'zlarni aytish men uchun doimo yoqimsiz (o'sha damda hatto o'zga jins vakillari bo'lmasa ham):

- a) xa;
- b) o'rta javobni tanlardim;
- s) yo'q.

173. Men o'ziga xos va yorqin tarzda kiyinishdan ko'ra, boshqalar kabi, kamtarona kiyinishni ma'qul ko'rardim:

- a) qo'shilaman;
- b) ishonchim yo'q;
- s) qo'shilmayman.

174. Katta bo'lmagan jamoada o'zimni chetga olaman va boshqalarning gapirishiga imkon beraman:

- a) ha;
- b) o'rtacha javobni tanlardim;
- s) yo'q.

175. Iqtidorli va o'ziga xos odatga ega odamlar bilan muloqotda bo'lish:

- a) ko'pincha qiziqarli va mazmundor bo'ladi;
- b) oraliq javobni tanlayman;
- s) meni jahlimni chiqaradi, chunki suhbat bekorchi gaplardan iborat bo'ladi va chuqur mazmunga yetib bormaydi.

176. Agar odamlar mening munosabatimni suiste'mol qilishsa, men ulardan xafa bo'lmayman va buni tezda unutaman:

- a) roziman;
- b) ishonchim komil emas;
- s) rozi emasman.

177. Biron o'yinda ishtirok etayotgan bo'lsam-u, atrofdagilar menga o'z fikrlarini qattiq ovozda aytishsa, bunday vaziyat meni muvozanatdan chiqaradi:

- a) qo'shilaman;
- b) ishonchim yo'q;
- s) qo'shilmayman.

178. Alfavitdagi harflar ketma-ketligida AB ning GV bilan bog'liqligi, xuddi SR ning quyidagilar bilan bog'likdigi kabidir:

- a) PO;
- b) OP;
- s) TU.

179. Men shunday hayajonli tushlarni ko‘ramanki, uyqumdan uyg‘onib ketaman:

- a) tez-tez;
- b) kamdan-kam;
- s) deyarli hech qachon.

180. O‘ylashimcha, men haqimdagi quyidagi fikr to‘g‘ri bo‘lardi:

- a) muloyim va xotirjam;
- b) o‘rta javob to‘g‘ri;
- s) g‘ayratli va shijoatli.

181. Kechada yaxshi ko‘rgan ish bilan mashg‘ul bo‘lish, quvnoq davradan ko‘ra meni ko‘proq o‘ziga jalb etadi:

- a) qo‘shilaman;
- b) ishonchim yo‘q;
- s) qo‘shilmayman.

182. Mening qanday ishlayotganimni odamlar tomosha qilishlari menga yoqmaydi:

- a) xa;
- b) o‘rta javob to‘g‘ri;
- s) yo‘q.

183. Ayrim narsalar mening shunchalik jahlimni chiqaradiki, ular haqida mutlaqo gaplashgim kelmaydi:

- a) xa;
- b) oraliq javobni tanlayman;
- s) yo‘q.

184. Odamlar meni xotirjam, muvozanatli va har qanday vaziyatda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan, deb hisoblaydilar:

- a) ha;
- b) o‘rta javob to‘g‘ri;
- s) yo‘q.

185. Menda vaziyat taqozosi bilan biron narsani gapirib qo‘yish va keyinchalik afsuslanish holatlari kam bo‘ladi:

- a) qo‘shilaman;
- b) oraliq javob to‘g‘ri;
- s) qo‘shilmayman.

186. Quyidagi belgilardan qaysi biri XOOOXXOOOXXX... qatorni davom ettirishi kerak

- a) OXXX;
- b) OOXx;
- s) XOOO.

187. Men barcha savollarga chin ko'ngildan va birontasini ham qoldirmay javob berdim:

- a) ha;
- b) ishonchim komil emas;
- s) yo'q.

SO'ROVNOMANING JAVOBLAR VARAQASI

F.I.Sh. _____ YoShI _____ JINSI _____

TA'LIM MUASSASASI _____ KURSI _____

A	B	C	E	F	G	H	I	L	M	N	O	Q1	Q2	Q3	Q4
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
abc	abc	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c
17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32
a2b1c	a1bc	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c
33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48
a2b1c	a1bc	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c
49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	61	62	63	64
a2b1c	a1bc	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c
65	66	67	68	69	70	71	72	73	74	75	76	77	78	79	80
a2b1c	abc1	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c	a2b1c
81	82	83	84	85	86	87	88	89	90	91	92	93	94	95	96
a2b1c	abc1	a2b1c	a2b1c	a2b1c	ab1c2	a2b1c	ab1c2	ab1c2	a2b1c	ab1c2	a2b1c	ab1c2	ab1c2	ab1c2	a2b1c
97	98	99	100	101	102	103	104	105	106	107	108	109	110	111	112
ab1c2	abc1	a2b1c	a2b1c	a2b1c	ab1c2	a2b1c	ab1c2	ab1c2	a2b1c	ab1c2	a2b1c	ab1c2	ab1c2	ab1c2	a2b1c
113	114	115	116	117	118	119	120	121	122	123	124	125	126	127	128
ab1c2	abc1	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2
129	130	131	132	133	134	135	136	137	138	139	140	141	142	143	144
ab1c2	ab1c	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2
145	146	147	148	149	150	151	152	153	154	155	156	157	158	159	160
ab1c2	ab1c	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2	ab1c2
161	162	163	164	165		166			167		168				169
ab1c2	ab1c	ab1c2	ab1c2	ab1c2		ab1c2			ab1c2		ab1c2				ab1c2
	170	171	172	173		174			175		176				177
	ab1c	ab1c2	ab1c2	ab1c2		ab1c2			ab1c2		ab1c2				ab1c2
	178	179	180	181		182			183		184				185
	ab1c	ab1c2	ab1c2	ab1c2		ab1c2			ab1c2		ab1c2				ab1c2
	186														187
	ab1c														abc

Qadriyatlar yo‘nalishlari savolnomasi (I.G.Senin)

Ma'lumki, ko'pgina mutaxassislar shaxs yo'nalganligini tashxis etishdamezon sifatida muayyan hayotiy maqsadlarni, qadriyatlarni asos qilib oladilar. Sababi qadriyatlar yo'nalishlari tizimi shaxs yo'nalganligining asosiy mazmunini belgilaydi va uning atrof-olamga, odamlarga, o'ziga bo'lgan munosabatini, hayotiy faoliyat motivlarining mazmunini, shaxsining dunyoqarashini tashkil etadi. Qadriyatlarni ikki turga ajratish mumkin: 1) **maqsadli qadriyatlar** va 2) **vositali qadriyatlar**.

Muayyan hayotiy maqsadlar sari yo'nalgan qadriyatlarga maqsadli qadriyatlar deb ataladi. Boshqa so'z bilan aytganda, har bir shaxs o'ziga xos umumhayotiy g'oyalarga, o'zining yetakchi hayotiy maqsadlariga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, odamlar bilan yaqin aloqada bo'lish ba'zi kishilar hayotining asosiy mazmunini, maqsadini tashkil etadi, bunday kishilar ko'pincha, hayotning barcha sohalarida shaxslararo muomalada bo'lish imkoniyatini juda qadrlaydilar. Binobarin, bu maqsadli qadriyatlardan hisoblanadi. Shuningdek, biror bir kasb-korga yoki bilim sohasiga chin yurakdan mehr qo'yib, mehnat qilish va tinimsiz ilm olib rivojlanishni hayotning mazmuni deb bilish va shu kabilar ham ana shunday maqsadli qadriyatlarga kiradi.

Vositali qadriyatlar shaxsniig u yoki bu xulq-atvorini, xatti- harakatlarni tanlashida aks etadi. Ya'ni, vositali qadriyatlar (fe'l- atvor namunalari) kishining maqsadli qadriyatlariga, umumhayotiy g'oyalari gaerishish uslubini ifoda etadi.

Qadriyatlar to'g'risidagi mazkur nazariy qarash dastlab M.Rokich tomonidan ilgari surilgan bo'lib, keyinchalik barcha mutaxassislar tomonidan to'la qo'llab-quvvatlangan. Jumladan, Rossiyada I.G.Senin (1991). tomonidan ishlab chiqilgan va 2000 yilda Respublika tashxis Markazida modifikatsiya qilinib, o'zbek milliy muhitiga moslashtirilgan «Qadriyatlar yo'nalishlari savolnomasi»ning asosiy g'oyasi ham ushbu nazarga tayanadi va asosiy e'tibor bilan maqsadli qadriyatlarni tashxis etishga qaratilgan.

Metodika chop etilgandan so'ng ko'plab empirik ma'lumotlar olinib, yuqorisinf o'quvchlarining kasbiy yo'nalganligini aniqlashda muvaffaqiyat bilan ishlatildi. Olingan ma'lumotlar, to'plangan tajriba shundan dalolat beradiki, metodika o'quvchining ruhiy dunyosini chuqur tahlil etishga qaratilgan. O'z-o'zini baholash, o'zini tahlil etish tajribasiga ega bo'lmagan bazi bir o'quvchilar metodika savollariga tushunmay yoki yengil tushunib, yuzaki javob berish hollari ham uchraydi. Shu sababli tajribani o'tkazuvchi mutaxassis, avval metodikaning o'ziga xos tomonlarini o'rganishi kerak. Ikkinchidai, to'g'ri va to'liq tushuntira olishi, o'quvchilarning diqqatini o'ziga qarata olishi juda zarur va uchinchidan, har bir o'quvchining xatti-harakatlarini tajriba davomida kuzatib borishi, savolni tushunmay, uning ma'nosini to'liq anglay olmay turgan o'quvchilarga ko'maklashishi, dalda berib, diqqat bilan ishlashga da'vat etib turishi kerak. Har qanday savolnoma metodikalaridek ushbu metodika ham

o'quvchining tetiklik bilan, ogohona, har bir savolga haqqoniy, o'ziga nisbatan tanqidiy ruhda javob berilishini talab etadi.

Tavsiya etilayotgan savolnoma tarkibiga quyida keltirilgan 8 yo'nalishdagi maqsadli qadriyatlarga doir savollar kiritilgan.

1. Oliy nufuzga ega bo'lish, ya'ni muayyan ijtimoiy talablarga rioya qilish yo'li bilan jamoatchilik nazarida bo'lishga intilish, ijtimoiy talablarga rioya qilgan holda jamoatchilik yoqlaydigan, qo'llab-quvvatlaydigan faoliyatga intilish, o'z mavqeini tobora baland ko'taradigan faoliyat turini izlash va bajarish payida bo'lish.

2. Yuqori moddiy ta'minlanganlik, ya'ni farovon hayot omillariga tiriklikning asosiy mazmuni sifatida munosabatda bo'lish.

3. Ijodkorlik, ya'ni o'z ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, tevarakdagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga intilish.

4. Faol ijtimoiy munosabatlar, ya'ni ijtimoiy hamkorlik jarayonida iliq hissiy munosabatlarni o'rnatishga intilish, odamlar bilan ishlashni, hamkorlik qilishni yoqtirish xislati.

5. O'z ustida ishlash, ya'ni o'z shaxsiy xislatlarini anglab, doimiy ravishda o'z qobiliyatlarini va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga intilish.

6. Yutuqlarga yo'nalganlik, ya'ni o'z oldiga muayyan hayotiy maqsadlarni qo'yish va albatta ularga erishishga hayotning asosiy omili sifatida yondoshish xislati.

7. Ma'naviy qoniqish, ya'ni ma'naviy fazilatlar va ehtiyojlarni moddiy ehtiyojlardan yoki har xil ijtimoiy talablar, rasm- rusmlardan ustun qo'yish xususiyati.

8. O'zlikni saqlash, ya'ni o'z fikr va qarashlarini boshqa har qanday qarashlardan ajrata olish, ba'zan ustun qo'yish, o'zining betakrorligi va o'ziga xosligini, mustaqilligini muhofaza etish.

Shu bilan birga, insonning turli hayotiy sohalarda faoliyat ko'rsatib, ularda har xil ijtimoiy vazifalarni bajarishi nazarga olinganda, quyidagi 5 turdagi vositali qadriyatlar turkumini tashkil etadigan hayotiy sohalarni farq qilish mumkin:

- 6) Kasb-hunar olami;
- 7) o'quv-tarbiya sohasi;
- 8) oilaviy hayot;
- 9) ijtimoiy hayot;
- 10) qiziqishlar olami.

Har bir inson ushbu hayotiy sohalarni u yoki bu tarzda tanlar ekan, bu tanlovda maqsadli qadriyatlar xam ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Ya'ni, muayyan hayotiy soha shaxsning qadriyatlariga qanchalik muvofiq kelsa, shaxs uchun shunchalik katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, oilaga bo'lgan hurmat, sadoqat, ishonch, oilaning moddiy ta'minoti yoki ma'naviy yetukligi uchun javobgarlik kabi hodisalar shaxs uchun oilaviy hayotning naqadar ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi va h.k.

Shunday qilib, ushbu metodika bir tomondan, turli hayotiy sohalarda o'z aksini topgan muayyan maqsadli qadriyatlarning ustivorligini aniqlasa, ikkinchi tomondan shaxsning yo'nalish va aqidalariga bog'liq bo'lgan u yoki bu hayotiy sohaning shaxs uchun ahamiyatini o'lchashga yordam beradi.

Qadriyatlar yo'nalishlari savolnomasining tarjima etilgani, milliy muhitga moslashtirilgani, uning ishonchlilik darajasini tahlil etib, o'zbek psixologlariga taqdim etilgani kasbga yo'naltirish ishlarida to'plangan chet eldagi ilg'or tajribalar asosida amalga oshirilgan bo'lib, Respublikamiz ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgartirishlarga ijobiy hissa bo'lib qo'shildi, degan umiddamiz. Metodikaning shaxs yo'nalganligi to'g'risida ancha mukammal, keng qamrovli ma'lumot berishini nazarga olib, uni maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim psixologlariga tavsiya etish mumkin.

Metodikaning tuzilishi va uni o'tkazish jarayoni

Ushbu metodika jami 80 ta savoldan iborat bo'lib, savollar, bir tomondan, 8 ta qadriyat yo'nalishlaridan biriga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu savollar 5 ta hayotiy sohaga ham taalluqli qilib tuzilgan. Aniqroq qilib aytilsa, beshta hayotiy sohaning har birida sakkiz juft(16ta) dan savol mavjud ($16 \times 5 = 80$) bo'lib, ayni paytda bu savollar sakkiz yo'nalishdagi maqsadli qadriyatlarga tegishlidir. Va aksincha, har bir maqsadli qadriyat yo'nalishi besh xil hayotiy sohara qaratilgan besh juft (10 ta) savol orqali aniqlanadi ($10 \times 8 = 80$).

Javob varaqasi parallelogram shaklini eslatadigan 8×10 hajmli jadval (8 ta satr va 10 ta ustun)dan iborat bo'lib, savollar shunday tartibda joylashtirilganki, javob varaqasining har bir satri bittadan maqsadli qadriyat yo'nalishini aks ettiradi. Quyida ushbu satrlarning qaysi qadriyat yo'nalishlariga tegishli ekanligi ko'rsatilgan.

Qadriyat yo'nalishlari

1. Oliy nufuzga ega bo'lish
2. Yuqori moddiy ta'minlanganlik
3. Ijodkorlik
4. Faol ijtimoiy munosabatlar
5. O'z ustida ishlash
6. Yutuqlarga yo'nalganlik
7. Manaviy qoniqish

8. O'zlikni saqlash

Shuningdek, jadvalning dastlabki 5 ta (1 - 5) va keyingi 5 ta ustunlari (6 - 10) bir – birini takrorlagan holda beshta hayotiy sohani o'z ichiga oladi. Har bir hayotiy sohaga taaluqli ustunlarni quyidagi jadvaldan aniqlab olish mumkin:

Hayotiy sohalar	Ustunlar
Kasb-hunar olami	1, 6
O'quv-tarbiya sohasi	2, 7
Oilaviy hayot	3, 8
Ijtimoiy hayot	4, 9
Qiziqishlar olami	5, 10

Ushbu metodikani tadqiqot guruhlarida o'tkazish uchun tajribadan o'tuvchilarga bittadan javob varaqasi va savolnoma tarqatiladi va bajarilishi kerak bo'lgan vazifa tushuntiriladi.

Metodika yo'riqnomasi savolnomada keltirilgan bo'lib, unga binoan sinaluvchi savolni o'qiydi va unda yoritilgan fikrning o'zi uchun muhimlik darajasini 5 ballik tizim bo'yicha baholaydi va javob varaqasining tegishli katakchalarida qayd etib boradi. Javoblarni «pastga engashgan» satrlar bo'ylab emas, balki odatdagidek gorizontalar satrlar bo'ylab ya'ni katakchalarning tartib raqamlariga rioya qilgan holda qayd etish lozim bo'ladi. Demak, savolnomada savollar shunday izchillik asosida joylashtirilganki, biror joyda mazmunan bir-biriga yaqin savollar yonma-yon tushib qolmaydi. Bu esa test mazmunining yoki tashxis yo'nalishining sinaluvchi uchun oydinlashib qolishining oldini oladi.

Demak, yuqorida qayd etilganidek, tajriba o'tkazuvchi hap bir sinaluvchiniig nima ish bajarishi lozimligini to'liq tushuntira olishi va uzluksiz nazorat qilishi kerak. Sinaluvchi barcha savollarga javob berib bo'lgach javob varaqasi va savolnomani tadqiqotchiga topshiradi.

Natijalarni qayta ishlash

Javob varaqalarini qayta ishlashda tadqiqotchi quyidagi tartibga amal qiladi. Dastlab, birinchi «pastga engashgan» satrdagi (ya'ni 1, 3, 6, 10, 15,

21, 28, 36, 44, 52 kataklardagi) raqamlarni jamg'arib, jadvalning o'ng tomonidagi, ya'ni oxiridagi 1-nomerli katakchaga yozib qo'yadi. Xuddi shu amal ikkinchi satr uchun ham bajariladi, ya'ni satr yig'indisi o'ng tomondagi 2-nomerli katakchaga yozib qo'yiladi va hokazo. 8 ta «pastga engashgan» satrdagi ko'rsatkichlar yuqorida bayon qilinganidek mos ravishda 8 yo'nalishdagi maqsadli qadriyatlarining saviyasini aks ettiradi.

Maqsadli qadriyatlar bo'yicha olingan natijalarning miqdoriy ko'rsatkichlari nazariy jihatdan olinganda 10 dan 50 gacha oraliqda o'zgarib turishi mumkin. Biroq bir sinaluvchining maqsadli qadriyatlar bo'yicha ko'rsatkichlarining eng kichigi 15 va yuqorisi 32 ga teng bo'lsa, boshqa bir sinaluvchining bu ko'rsatkichlari 29-45 oralig'ida bo'lishi mumkin, ya'ni olingan yig'indilarning baland-pastligi faqat shu sinaluvchining sub'yektiv o'zini-o'zi baholashiga bog'liq bo'lib, ularni boshqasinaluvchilarning maqsadli qadriyatlari bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Sinaluvchi qaysi qadriyat bo'yicha eng yuqori ball to'plagan bo'lsa, mazkur qadriyat yo'nalishi sinaluvchi shaxsida ustunlik qilishidan dalolat beradi vaaksincha.

Besh turdagi hayotiy sohalarning shaxsdagi o'rnini aniqlash uchun dastlab har bir ustundagi ma'lumotlar alohida-alohida jamg'ariladi. So'ngra javob varaqasida ko'rsatilgan tartibda 1- va 6-, 2- va 7 -, 3-va 8-, 4 -va 9- hamda 5- va

10- ustun ma'lumotlarining yig'indi qiymatlari olinib, tegishli katakchalarga yozib chiqiladi. Mazkur 5 ko'rsatkichmos ravishda shaxsning besh hayotiy sohada tutgan o'rnini ifoda etadi.

Hayotiy sohalar bo'yicha olingan ko'rsatkichlar 16 dan 80 gacha oraliqda bo'lishi mumkin. Amalda esa yuqoridagi maqsadli qadriyatlariga xos bo'lgan barcha qonuniyatlar hayotiy sohalar ko'rsatkichlariga ham tegishlidir. Demak, sinaluvchining qaysi hayotiy sohasiga yaqinligini uning hayotiy sohalar bo'yicha to'plagan ballarining baland-pastligiga qarab aniqlash mumkin.

Ko'rinib turibdiki, bu metodikada ham javob varaqasining tuzilishi, metodika beradigan mazmunga bevosita aloqador. Ya'ni, javob varaqasining tuzilishi, javob berish tartibi uni qayta ishlab mazmunli ko'rsatkichlar olishga to'liq bo'ysundirilgan. Shu sababli ushbu javob varaqasining shakli o'ziga xos ko'rinishga ega. Shuning uchun ham metodikadan foydalanib, muhim va asosli ma'lumotlar olish istagida bo'lgan tadqiqotchi – psixologlar, albatta, birinchi navbatda, javob varaqasini bosmaxona sharoitida ayni o'zidek qilib ko'p nusxada chop ettirishlari yoki kseroks uskunasi metodik qo'llanmaga ilova qilingan nusxalaridan ko'chirma olishlari kerak bo'ladi.

Olingan natijalarning talqini

I. Maqsadli qadriyatlar bo'yicha

Oliy nufuzga egabo'lish. Ushbu ko'rsatkichdan yuqori ballga ega bo'lgan kishi hurmat-e'tibor qozonishga, boshqalarda o'ziga nisbatan yaxshi tasavvur paydo qilish ilinjida bo'ladilar. Ayniqsa, o'zi hurmat qilgan va eng ko'p ahamiyat bergan shaxslar oldida «uyalib qolmaslik» uchun o'z xatti-harakatlarida, qarashlarida ziyraklik, ehtiyotkorlik yuqori toifadagi kishilarga bog'liqlik kabi alomatlarini namoyon qiladi. Ko'pincha, bu yo'nalish bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan sinaluvchilar boshqalarning ular haqidagi shaxsiy fikrlarini bilishga juda qiziqadilar. Chunki bunday kishilar o'z xatti-harakatlarining jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishidan manfaatdor bo'ladilar.

Yuqori moddiy ta'minlanganlik. Bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori ball egalari asosan moddiy ahvollarini mumkin qadar ko'tarishga intilgan kishilar. Bunday kishilar ko'pincha, moddiy farovonlikni hayotning asosiy mazmuni deb biladilar. To'kin- sochin hayot ko'p hollarda bu toifadagi odamlarda o'zlariga yuqori baho berish, boshqa (ayniqsa, kamtarin hayot kechiradigan) kishilarni nazar-pisand qilmaslik kabi salbiy xislatlarni rivojlantiradi.

Ijodkorlik. Bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan shaxslar o'z ijodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarishning barcha sohalarida har xil o'zgarishlar, yangiliklar kiritishga intiladilar.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Bu qadriyat yo'nalishi bo'yicha yuqori ko'rsatkich kishini boshqalar bilan o'zaro iliq munosabatlarni o'rnatishga doir intilishlarini aks ettiradi. Odatda bunday kishilar insonlararo munosabatlarning barcha ko'rinishlarini qadrlaydilar, ko'pincha, boshqalar bilan hamkorlik kilish imkoniyatini hayotda eng qimmatli narsa deb biladilar.

O‘z ustida ishlash. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan kishilar o‘z xarakterlarining xususiyatlari, qobiliyatlari va boshqa shaxsiy fazilatlarini xaqida ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lishga qiziqadilar. Bunday kishilar odatda o‘zlarini har tomonlama rivojlantirishga, barcha fazilatlarini kamol toptirishga intilib, inson cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligiga ishonadilar va ularni to‘liq ruyobga chiqarishga erishishni hayotning mazmuni deb biladilar.

Yutuqlarga yo‘nalganlik . Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ballga ega bo‘lgan kishilar o‘zlarining turli hayotiy davrlarida aniq va sezilarli natijalarga, muayyan yutuqlarga erishishdan manfaatdor bo‘ladilar. Bunday kishilar odatda o‘z hayot yo‘nalishlarini obdon rejalashtirib, uning har bir bosqichida o‘z oldilariga muayyan maqsadlarni qo‘yadilar va bu maqsadlarga erishish yo‘lida qat’iy harakat qiladilar. Bundan tashqari, bunday kishilar ko‘plab hayotiy yutuqlari tufayli, ko‘pincha, mag‘pyp bo‘lib, o‘zlariga keragidan yuqori baho berishga moyil bo‘ladilar.

Ma‘naviy qoniqish. Bunday kishilar, odatda, o‘zlarini ruhiy ma‘naviy jihatdan qoniqtiradigan hayotiy sohalarni tanlashga intiladilar. Ular ko‘pincha, o‘zlariga qiziq bo‘lgan, ma‘naviy ozuqa, ichki qoniqish baxsh etadigan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishni juda zarur deb biladilar.

O‘zlikni saqlash . Bu ko‘rsatkich bo‘yicha yuqori ball odamning boshqalardan mustaqil bo‘lishga doir intilishlarini ifoda etadi. Bunday kishilar odatda hayotda eng muhim narsa deb, o‘z shaxsining betakrorligi va o‘ziga xosligini, o‘ziga xos hayot tarziga, dunyoqarashga ega bo‘lishni tushunadilar. Atrofdagilarning tasiriga kamroq berilib, mustaqil fikrlariga binoan ish yuritishga moyil bo‘ladilar, o‘ziga xos hayot tarziga ega bo‘ladilar.

Hayotiy sohalar buyicha

Kasbiy faoliyat. Bu ko‘rsatkichdan yuqori ballga ega bo‘lgan kishi o‘z kasbiy faoliyat sohasiga katta ahamiyat beradi. Bunday kishilar ko‘p vaqtini o‘z ishlariga sarflaydilar, ishlab chiqarishdagi barcha muammolarni hal etishga tezda kirishib ketadilar. Ular kasbiy faoliyatni hayotning asosiy mazmuni deb biladilar.

O‘quv -ta‘lim sohasi. Bu ko‘rsatkichdan yuqori ballga ega bo‘lgan kishi o‘qimishli bo‘lishga, o‘z dunyoqarashini kengaytirishga intiluvchan bo‘ladi. Bunday kishilar o‘qishni, yangi-yangi bilimlarni egallashni, hayotdan orqada qolmaslikni eng muhim narsa deb hisoblaydilar.

Oilaviy hayot. Bu ko‘rsatkichdan yuqori ballga ega bo‘lgan kishi o‘z oilasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha voqealarga katta ahamiyat berishi bilan ajralib turadi. Bunday kishilar oilaviy muammolarni hal etish yo‘lida ko‘p kuch va vaqt capflashga moyil bo‘ladilar, baxtli oila qurishni eng muhim narsa deb biladilar.

Ijtimoiy hayot sohasi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha yuqori ballga ega bo‘lgan kishilar jamiyat hayotiga doir muammolarga katta ahamiyat berishlari bilan ajralib turadilar. Odatda, bunday kishilar ijtimoiy-siyosiy hayotga tezda

kirishib ketadilar va o'zlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini insoniyat uchun juda muhim deb hisoblaydilar.

Qiziqishlar olami. Bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan kishilar hayotida ularning shaxsiy qiziqishlari asosiy o'rinni egallaydi. Odatda bunday kishilar bo'sh vaqtlarini to'laligicha muayyan qiziqish sohalari uchun sarflaydilar va bo'sh vaqtlarda biror bir soha bilan mashg'ul bo'lishni havas qilmagan kishilar hayotini zerikarli, ko'p jihatdan mazmunsiz deb hisoblaydilar.

Hayotiy cohalap doirasida maqsadli qadriyatlarning talqini

Kasbiy faoliyat

Oliy nufuzga ega bo'lish. Bu qadriyat odamning jamiyat tomonidan yuqori baholanadigan kasb sohasini tanlashga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalishdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan kishilar odatda o'zlari tanlagan kasbga nisbatan odamlar qanday fikrda ekanligini bilishga qiziqadilar va obro'liroq biror kasbga ega bo'lish orqali obro'-e'tibor qozonishga intiladilar.

Yuqori moddiy ta'minlanganlik. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan kishilar yuqori maoshni yoki boshka moddiy ta'minotni kafolatlaydigan kasbni tanlashga moyil bo'ladilar. Agar tanlangan kasb sohalari o'zlari kutgan darajada moddiy rag'batlantirishni ta'min etmasa, ular o'z mutaxassisliklarini o'zgartirishlari ham hech gap emas.

Ijodkorlik. Kishining o'z kasbiy faoliyatiga ijodiylik namunalarini kiritishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan kishilar mehnat faoliyatini odatdagi tarzda yuritishdan, har kun bir xil usulda ish qilishdan, tezda zerikib qoladilar. Shuning uchun doimiy ravishda o'z kasbiy faoliyatiga turli yangiliklar, o'zgarishlar kiritishga bo'lgan intilish ularga xos hislatlardandir.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishining o'z kasbdoshlari bilan iliq, do'stona muomalada bo'lishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalishdan yuqori ballga ega bo'lgan kishilar uchunkasbdoshlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamkorlik muhitining hukmronligi muhim ahamiyatga ega.

O'z ustida ishlash. O'z imkoniyatlarini kasbiy hayotda yuzaga chiqarish, kasbiy mahoratini tobora oshirish kabi intilishlarda o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan kishilar o'z kasbiy qobiliyatlari va ularni rivojlantirish imkoniyatlari haqida ko'proq ma'lumot olishga qiziquvchan bo'ladilar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. O'z kasbiy faoliyatlarida aniq va sezilarli natijalarga, yutuqlarga ega bo'lishga intilish va ko'p hollarda o'ziga ortiqcha baho berish xislati. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan kishiga o'zi bajargan ish jarayonidan emas, balki uning natijasidan qoniqishga moyillik xos fazilatlardandir. Shu bilan birga bunday kishilarga o'z ishlarining oqibatini aniq rejalashtirish ham harakterlidir.

Ma'naviy qoniqish. Kishining kasbi, faoliyatini ma'naviy qoniqish olib kelishiga qaratishi, qiziqarli, mazmunli ish yoki kasb egasi bo'lishga intilishida o'z

aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar o‘z mehnatini mazmunan chuqur anglashga intilib, o‘zlari bajargan ishning natijasidan emas, balki ko‘proq ishning borishidan, jarayonidan zavq oladilar. Bunday odamlarga o‘zlari qilgan ishdan xavotirlanmaslik, uning sifatli bajarilganiga ishonch bilan, ma‘lum ma‘noda mag‘rurlik bilan munosabatda bo‘lish xosdir.

O‘zlikni saqlash. Mehnat faoliyatida o‘ziga xos usuldan foydalanib, boshqalardan qanday bo‘lmasin farq qilishga intilishlarida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar o‘zlariga xosligini, betakrorligini chertib ko‘rsatish uchun noan‘anaviy, noyob va nodir mutaxassisliklarni tanlashga moyil bo‘ladilar.

O‘quv – ta‘lim sohasi

Oliy nufuzga ega bo‘lish. Kishining jamiyatda yuqori baholangan ma‘lumot darajasiga ega bo‘lishga intilishlarida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yichayuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar o‘zlarining yoki o‘zlari erishmoqchi bo‘lgan ma‘lumotlilik darajasi bilan boshqalardan ajralib turish, shaxsiy mavqelarini o‘z ustlarida yanada ko‘proq ishlash, keng qamrovli bilimdonlik evaziga ko‘tarish payida bo‘ladilar.

Yuqori moddiy ta‘minlanganlik. Yuqori maosh yoki boshqa moddiy daromad keltiradigan ma‘lumotga ega bo‘lishga intilishda o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish buyicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishi o‘z moddiy imkoniyatlarini ko‘tarishda bajarib turgan kasbidan qanoatlanmasa, yanada yuqori saviyadagi ma‘lumotga erishish istagi bilan xarakterlanadi.

Ijodkorlik. Kishining o‘rganayotgan bilim sohasida biror bir yangi narsatopishga, shu sohaga o‘zining hissasini qo‘shishga intilishda o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishi o‘zi o‘rganayotgan bilim sohasiga biror bir yangilik kiritish maqsadida uni chuqurroq o‘rganishga, yangi qirralarini o‘zlashtirishga moyil bo‘ladilar

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishining muayyan bir ijtimoiy guruh bilan uyg‘unlashishga, u bilan hamnafas bo‘lishga intilishida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar biror bir ijtimoiy guruhga taalluqli insonlar bilan qalin munosabatlarda bo‘lish uchun o‘z ma‘lumotlarini muayyan saviyaga yetkazishga intiladilar.

O‘z ustida ishlash. Kishining o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida bilim olishga, yangi kasbiy yoki bilim sohalarini o‘zlashtirishga, ma‘lumotini oshirishga intilishlarida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar o‘zlarining o‘qiy olish, o‘rgana olish qobiliyatlari va shu bilan o‘zlarini rivojlantirish imkoniyatlari bilan ajralib turadilar.

Yutuqlarga yo‘nalganlik. Ta‘lim jarayonida kishining muayyan natijalarga erishishga (o‘qishga kirish, dissertatsiya yoqlash, moddiy kamolotgayetishish) yoki boshqa hayotiy maqsadlarga erishishga intilishlarida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar ta‘lim jarayonining har bir bosqichini rejalashtirish, oqibatini o‘ylash, har bir bosqichda aniq maqsadlarni o‘z oldilariga qo‘yish xislati bilan ajralib turadilar. Shu bilan birga o‘zlariga yuqori baho berishga moyil bo‘ladilar.

Ma'naviy qoniqish. Kishining ma'lum bir bilim sohasini chuqurroq o'rganishga, ayniqsa, uning mazmuniga qiziqishida ifodalanadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar bilim olishga kuchli ehtiyoj sezadilar, o'z ma'lumot saviyalarini oshirishga, tegishli bilim sohasini chuqurroq egallashga intiladilar va shundan qoniqish oladilar.

O'zlikni saqlash. Kishining ta'lim olishda o'ziga xos, o'z shaxsiy xislatlariga mos tamoyillarga rioya qilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar ta'lim olishda o'z yo'nalishlariga ega bo'lib, boshqalardan nima bilandir farq qilish, o'z hayotiy prinsiplariga shaksiz amal qilish istagi bilan ajralib turadilar.

Oilaviy hayot

Oliy nufuzga ega bo'lish. Kishilar nazariga tushadigan oilaviy hayot kechirishga intilish. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar ko'pincha, o'z oilaviy hayot tarzlari xaqida boshqa kishilarning qanday fikrda ekanligini bilishga qiziquvchan bo'ladilar.

Yuqori moddiy ta'minlanganlik. O'z oilasiniig moddiy ta'minotini mumkin qadar oshirishga intilish xislati. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar odatda oilaning baxti, mustahkamligi, birinchi galda uning moddiy ta'minotiga bog'liq deb hisoblaydilar.

Ijodkorlik. Kishining o'z oilaviy hayotiga qandaydir o'zgarishlar, yangiliklar kiritishga doir intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishi doimiy ravishda o'z oilasidagi hayotni rang-barang qilishga intilishi bilan ajralib turadi (masalan, uyjihozlarining o'rinlarini yangilab turish, oilaviy dam olishning yangicha, noan'anaviy usullarini o'ylab topish va h.k.)

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishining oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlariga ahamiyat berishda o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z oila a'zolarining muayyan ijtimoiy vazifani bajarishlariga ahamiyat berishlari bilan ajralib turadilar.

O'z ustida ishlash. Kishining turli xarakter xislatlarini oilaviy hayot jarayonida ijobiy tomonga o'zgartirib borishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z shaxslarining xarakter xislatlari, qobiliyatlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadilar, oila talablaridan kelib chiqib u yoki bu faoliyat turlarini bajarishga tayyordirlar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. Kishining oilaviy hayotda aniqnatijalarga erishishga (masalan, o'z farzandlariga tszroq o'qish - yozishni o'rgatish, yangi uy-joy qurish, yanada mukammalroq oilaviy hayot sharoitini yaratishga) intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan kishilar ko'pincha boshqa kishilarning oilaviy hayotlari haqida ma'lumotga ega bo'lishga qizikadilar, boshqalarning oilaviy hayotda erishgan yutuqlariga nisbatan o'z oilalarida erishgan yutuqlarining qanchalik muhimligini bilishga intiladilar.

Ma'naviy qonikish. Kishining barcha oila a'zolari bilan ruhan yaqin bo'lishga, ularni tushunishga intilishida, o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar oilaviy hayotda chin

sevgini, oilaviy tinchlik, osoyishtalik, o‘zaro hurmatni juda qadrlaydilar va bularni oila baxtining eng muhim sharti deb hisoblaydilar.

O‘zlikni saqlash. Kishining shaxsiy qarashlari, istaklari, g‘oyalariga tayangan holda o‘z turmush tarzini yaratishga intilishida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar ko‘pincha, shaxsiy o‘zigaxosligini namoyon qilib, hatto o‘z oilalaridan ham mustaqil bo‘lishga (masalan, ta‘tilni yakka holda o‘tkazishga va h.k.) intiladilar.

Ijtimoiy hayot sohasi

Oliy nufuzga ega bo‘lish. Kishining siyosiy-ijtimoiy hayotida keng tarqalgan qarashlarga rioya qilishga, ularni qabul qilishga intilishlarida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar ijtimoiy–siyosiy mavzularda faol ishtirok etishlari mumkin, lekin ular odatda o‘z fikrlarini emas, balki ko‘pchilik qadrlagan, e‘tiqod qilgan shaxslarning g‘oyalarini ilgari suradilar. Shu bilan o‘zlarini yuqori toifadagi shaxslarga tenglashtirishga, ushalar doirasidagi kishilarga intilgan bo‘ladilar.

Yuqori moddiy ta‘minlanganlik . Kishining biror bir moddiy rag‘batlantirish evaziga ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullanishga intilishida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar moddiy manfaatdorlik, foyda olish mumkin bo‘lgan ijtimoiy faoliyat — tashkilotchilik, rahbarlik bilan shug‘ullanishga intiladilar.

Ijodkorlik. Kishining o‘z ijtimoiy faoliyat sohasini yoki tarzini o‘zgartirib, yangilab turishga intilishida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar odatda, ijtimoiy –siyosiy hayotda sodir bo‘layotgan qanday o‘zgarishlarga hozir javoblik bilan yondoshadilar. Ijtimoiy faoliyatda eskicha uslublardan vos kechishga, yangi-yangi yo‘nalishlarni o‘ylab topishga moyil bo‘ladilar.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishinipg muloqotga yo‘nalganligini faol ijtimoiy hayot orqali namoyon qilishga intilishida o‘z aksini topadi, bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar muayyan ijtimoiyguruh vakillari bilan yaqin munosabatlar o‘rnatishga, hamkorlik qilishga, targ‘ibot ishlariga yordam beradigan ijtimoiy mavqeiga ega bo‘lishga intiladilar.

O‘z ustida ishlash. Kishining ijtimoiy hayot sohasidagi qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirishga intilishlarida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar ijtimoiy hayot sohasidagi qobiliyatlari (muloqotchanlik, tashkilotchilik va h.) hamda ularni rivojlantirish yo‘llari to‘g‘risida ko‘proq malumot olishgaqiziqishlari bilan ajralib turadilar.

Yutuqlarga yo‘nalganlik. Kishining ijtimoiy-siyosiy hayotda aniq, natijalarga, yutuqlarga erishishga intilishida o‘z aksini topadi, lekin bu yo‘nalish ko‘pincha o‘ziga yuqori baho berish, o‘z taqdrini oshirish kabi istaklar

bilan yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Bu yo‘nalish bo‘yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishilar odatda, o‘z ijtimoiy faoliyatlarini aniq rejalashtiradilar, har bir bosqichda alohida–alohida maqsadlar qo‘yadilar va ularga qanday bo‘lmasin erishishga intiladilar.

Ma'naviy qoniqish. Kishining jamiyat hayotini chin ko'ngildan baxtiyor va go'zal qilish ishgagida ijtimoiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar odamlar bilan bog'liq faoliyatlari natijalaridan emas, balki ko'proq bu faoliyat jarayonidan zavq olishlari bilan ajralib turadilar.

O'zlikni saqlash. Kishining har xil ijtimoiy-siyosiy qarashlar ta'siriga berilmaslikka intilishida ifodalanadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqoriko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar juda kam uchraydigan ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni qadrlaydilar, ko'pincha esa bunday sinaluvchilar o'z ijtimoiy - siyosiy qarashlariga ega bo'ladilar.

Qiziqishlar olami

Oliy nufuzga ega bo'lish. Kishining bo'sh vaqtlarda o'zi sevgan mashg'ulotlari bilan band bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishi bo'sh vaqtini o'zi qadrlagan, unga namuna bo'ladigan shaxslarning fikr va g'oyalariga mos mashg'ulotlar ustida o'tkazadi yoki ular mashg'ul bo'lgan ishlarga taqlid qilib o'tkazadi yoki ular mashg'ul bo'lgan ishlarga taqlid qilib, o'zini rivojdantiradi, malakasini oshiradi.

Yuqori moddiy taminlanganlik. Kishining bo'sh vaqtlarda moddiy foyda keltiradigan hamda shaxs uchun qiziq mashg'ulotlar bilan band bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar bo'sh vaqtda sof amaliy ahamiyatga ega bo'lgan (masalan, parrandachilik, kaptarbozlik kabi qiziqish mahsulotlarini sotish, ayirboshlash mumkin bo'lgan) ishlar bilan band bo'ladilar.

Ijodkorlik. Kishining o'z qiziqish sohasiga ijodiylik namunalari, yangiliklar kiritishga keng imkoniyatlar ochadigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar doimo o'zlari qiziqqan sohaga ijodiy yondoshib, biron – bir o'zgarish, yangilik kiritishga harakat qiladilar.

Faol ijtimoiy munosabatlar. Kishining odamlarga yo'nalganlik xislatini o'z qiziqishlari vositasida yuzaga chiqarishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'naliy bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar jamoatchilik asosida amalga oshiriladigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga, o'zlariga hamfikir insonlarni izlashga va ular bilan hamkorlik qilishga moyil bo'ladilar.

O'z ustida ishlash. Kishining o'z qobiliyatlari va imkoniyatlaridan mumkin qadar samarali foydalanishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar turli sohalarni o'zlashtirish, hap xil mashg'ulotlarda o'z kuchlarini sinab ko'rishga harakat qiladilar.

Yutuqlarga yo'nalganlik. Kishining o'z qiziqishlari doirasida aniq maqsadlarni ko'zlab, ularga erishishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar o'z qiziqishlari sohasida real natijalarga erishish, erishgan yutuqlarining muhimlik darajasini his etish va shundan rag'batlanib, yangi marralarni belgilashga moyil bo'ladilar.

Ma'naviy qoniqish. Kishining bo'sh vaqtlarda biron-bir sevgan mashg'uloti bilan chin ko'ngildan, berilib shug'ullanishga, uning mazmunini chuqurroq

anglashga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqoriko'rsatgichga ega bo'lgan kishilar, odatda, o'zlari bajargan ishlarning natijasidan emas, balki ko'proq mashg'ulotning o'zidan, jarayonidan zavqlanadilar, ruhiy ozuqa oladilar.

O'zlikni saqlash. Kishining shaxsiy xislatlarini chertib ko'rsatadigan sohalari bilan mashg'ul bo'lishga intilishida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatichga ega bo'lgan kishilar qodir, noan'anaviy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga, kam uchraydigan narsalar, asarlar yaratishga intilib, o'ziga xos tafakkur tarzi, kasb-korga bo'lgan qobiliyatlarini tobora chuqurlashtirishga moyil bo'ladilar.

Kishining har xil istak va xohishlarini aks ettiradigan savollar diqqatingizga havola etiladi. Har bir savolni yaxshilab o'qing va uning mazmunini o'zingizga qiyoslab ko'ring. Javob variantlari quyidagicha:

1. Men uchun hech qanday ahamiyati yo'q.

2. Unchalik muhim emas.

3. Muhim ahamiyatga ega.

4. Muhim, zarur.

5. Juda muhim, ehtiyojli zarur.

Bilingki, bu yerda yaxshi yoki yomon, to'g'ri yoki noto'g'ri javoblar. Eng to'g'ri javob chin ko'ngildan, xolisona berilgan javobdir. Shu sababli barcha savollarga o'ylab, haqqoniy javob berasiz, degan umiddamiz.

1. Biror ishimga atrofdagilarning yuqori baho berishi.

2. Ish joyim orqali har xil kamyob narsalarga ega bo'lish.

3. Barchaning hurmatiga sazovor bo'lish uchun o'qib, ilm olish.

4. Ish faoliyatimda ixtirochi bo'lish, yangilikka intilish.

5. Ko'p o'qish, ko'proq ma'lumotga ega bo'lish evaziga farovon hayot manbaiga erishish,

6. Oilam a'zolarining meni hurmat qilishlari.

7. Hamkasblarim bilan bajarilayotgan ish xususida tez-tez maslahat olib, suhbatlashib turish.

8. O'rganayotgan bilim sohamda biror bir yangilik yaratish.

9. Oilamning boy-badavlat hayot kechirishi.

10. Atrofdagilarning nazariga tushadigan darajada ijtimoiy — siyosiy voqealardan xabardor bo'lish.

11. Kasbiy mahoratimni doimiy ravishda oshirib borish.

12. Har xil odamlar bilan faol muloqotda bo'lish uchun yuqori ma'lumot darajasiga ega bo'lish.

13. Uy sharoitimning ko'rinishini doimo o'zgartirib, yangilab turish.

14. Jamoat ishlarida faol qatnashib, moddiy mukofotlar olish.

15. Havas va qiziqishlarim bilan atrofimdagilarni hayratga solish. 16. Kasbiy faoliyatimda katta yutuqdarga erishish.

17. Olgan bilimlarimni tinimsiz rivojlantirish, keng doiradagi ilmiy ma'lumotga ega bo'lish.

18. Oilada yetakchi bo'lish, muloqotchanlik muhitini yaratish.

19. Jamiyat hayotiga har xil yangiliklar kiritish, odamlarda yangicha ong, yangicha fikrni shakllantirish.

20. Bo'sh vaqtlarimda daromad keltiradigan ishlar bilan shug'ullanish.

21. Obro'-e'tibor keltiradigan kasb sohasida ishlash.

22. Biror ishni boshlagach, unga chin qalbdan, berilib ishlash.

23. Biror sohada ta'lim olib, katta muvaffaqiyatlarga erishish. 24. Oilamda har xil tushunmovchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun boshqa oilalardagi voqealarni sinchkovlik bilan o'rgansh.

25. Ijtimoiy hayotning yanada qizqarli bo'lishi uchun odamlarni bir-biriga birlashtirish, hamjihatlikni yo'lga qo'yish.

26. Bo'sh vaqtimda ilgari mavjud bo'lmagan biror yangi narsani ixtiro etish.

27. Ish sharoitidan foydalanib, shaxsiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish.

28. Ilmiy darajalar va unvonlarga ega bo'lib, obro'-e'tibor qozonish.

29. Boshqa kasblardan ijobiy farq qiladigan o'ziga xos kasb sohasida ishlash.

30. Chin yurakdan berilib o'qish, ilm olish.

31. Farzandlarimning har tomonlama rivojlanishi, tengdoshlaridanustun bo'lishi.

32. Jamoat ishlari bilan shug'ullanib, tashkilotchilik qobiliyatimni rivojlantirish.

33. Qiziqishlarim doirasida o'rtoqlarim bilan birgalikda birorbir to'garakka, klubga a'zo bo'lish.

34. Kasbiy faoliyatimda har xil ish uslublarini sinab ko'rish.

35. O'qigan soham bo'yicha qo'shimcha moddiy ta'minlanish imkoniyati (masalan, har xil pullik mukofotlar, grantlar yoki tanqis mollar uchunalohida imtiyozlar).

36. Turmush o'rtog'imning obro'-e'tiborli oiladan bo'lishligi.

37. .Oddiy kishilardan farq qilish uchun tinmay o‘qib, ilm olish. 38.Farzandlarimni ma’naviyati butun va to‘g‘ri so‘z insonlar qilib

tarbiyalash.

39. Aniq maqsadlar bilan jamiyat hayotida faol ishtirok etish.

40. Bo‘sh vaqtlardagi qiziqishlarimda butun qobiliyatlarimni namoyonqilib, o‘z ustimda ishlash.

41. Odamlar bilan tez-tez muloqotda bo‘lish imkoniyati bo‘lgan kasbsohasida ishlash.

42. Ilm-fanda yangi, qiziqarli kashfiyotlar qilish, ilmiy unvonlar

olish.

43. Turmush o‘rtog‘im oladigan maoshining yuqori bo‘lishi.

44. Biror tashkilotga rahbarlik qilib, obro‘-e’tiborli bo‘lish.

45. Ko‘pchilikning fikriga qarshi bo‘lsa ham oilaviy hayotda o‘z

qarashlarimga tayanish.

46.Jamoat ishida faol ishtirok etib, ma’naviy ozuqa olish. 47.Qiziqishlarim doirasidagi maqsadlarimga tezroq erishish.

48.Kasbiy vazifamni yuqori saviyada bajarish.

49. Turli ilmiy muammolarni hal etishga qaratilgan anjumanlarda faol qatnashish.

50. Oilani boshqarish, bola tarbiyalashning har xil usullarini o‘ylab topish.

51. Jamiyatda o‘z o‘rnimni topib, badavlat yashash.

52. Havas va qiziqishlarim doirasida erishgan yutuqlarim bilan mag‘rurlanib yurish.

53. Ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashimda o‘zgalarning ta’siriga berilmaslik, o‘z qarashlarimga ega bo‘lish.

54. Bo‘sh vaqtlardagi mashg‘ulotlarim bilan butunlay berilib shug‘ullanish.

55. Kasbiy faoliyatimda aniq maqsadlar sari intilib, tez orada ularga erishish.

56. O‘qish, talim olish jarayonida aqliy qobiliyatlarimni rivojlantirish.

57. Oilam a'zolarining to'y-ma'rakalarda, turli bayram va marosimlarda faol qatnashishi.

58. Jamiyatimiz taraqqiyotiga, uning iqtisodiy va ma'naviyyuksalishiga yangi taklif va g'oyalarim bilan hissa qo'shish.

59. Shaxsiy qiziqishlarimni moddiy boylik keltiradigan faoliyatga qaratish.

60. Mening havas va qiziqishlarim o'zimga xos xislat vaqobiliyatlarimni aks ettirish.

61. Qaysi kasb egasi bo'lmayin, u mazmunli, odamlar uchun foydali, halol bo'lsin,

62. Ilmiy daraja yoki unvon olish uchun aniq reja asosida harakat qilish.

63. Ahil hayot kechirish uchun turmush o'rtog'imniig fel-atvorini tushunish va unga moslashish.

64. Jamiyat hayotida faol qatnashish, tajribali odamlar bilan hamkorlik qilish.

65. Bo'sh vaqtlarimda har xil qiziqarli, ijodiy ishlar bilan shug'ullanish.

66. Ish faoliyatimda o'zimning uslubimga ega bo'lish.

67. Ma'naviy dunyomni boyitish uchun ilm bilan shug'ullanish.

68. Oilaviy hayotimni obdon rejalashtirish

69. Jamoat ishlari jarayonida odamlarni o'z fikrlarimga iqror etishni, ishontira olishni o'rganish.

70. Bo'sh vaqtlarda do'stlar bilan xamkorlikda qiziqqan mashg'ulotlarim bilan band bo'lish.

71. O'qish va ta'lim olishda boshqa kishilar bilmagan, «tesha tegmagan» bilimlarni egallash.

72. Oilaga nisbatan halol va sadoqatli bo'lish.

73. Ijtimoiy va tashkilotchilik faoliyatimda katta yutuqlarga erishish.

74. Havas va qiziqishlarimning doimiy ravishda ko'payib, rivojlanib turishi.

75. Farzandlarimda mustaqil dunyoqarash, o'zlariga

xos fe'l-atvorning mavjud bo'lishi.

76. Jamiyat hayoti uchun foydali inson bo'lish.

77. Bo'sh vaqtlarimdagi mashg'ulotlarimni obdan o'ylab, aniq, rejalashtirish va muvaffaqiyatlarga erishish.

78. Jamoatchilik orasida o'zimga xos mavqega, o'z fe'l-atvorimga ega bo'lish.

79. Bo'sh vaqtimning ko'proq qismini yoqtirgan mashg'ulotlarim bilan o'tkazish.

80. Yaqin - atrofda hech kim shug'ullanmagan, o'ziga xos va noyob mashg'ulotlar bilan band bo'lish.

JAVOB VARAQASI

Familiya_____Ismi_____

1										
2	3									
4	5	6								
7	8	9	10							
11	12	13	14	15						
16	17	18	19	20	21					
22	23	24	25	26	27	28				
29	30	31	32	33	34	35	36			
1	37	38	39	40	41	42	43	44		
	2	45	46	47	48	49	50	51	52	1
		3	53	54	55	56	57	58	59	2
			4	60	61	62	63	64	65	3
				5	66	67	68	69	70	4
1-6					6	71	72	73	74	5
	2-7					7	75	76	77	6
		3-8					8	78	79	7
			4-9					9	80	8
				5-10					10	

O'quv faoliyati motivlarini o'rganish metodikasi

Yo'riqnoma. Hurmatli o'qituvchi, o'quv faoliyati motivlari ro'yxatini diqqat bilan o'qing. O'quv motivlari ahamiyatini ikki xil baholang. Birinchisida, o'quvchilaringizni huquqshunoslik fanini o'rganishi uchun ahamiyatli bo'lgan motivlardan faqat beshtasini tanlang. Keltirilgan qatorlardagi ahamiyatli motivlarni «X» bilan belgilang. So'ngra esa o'quv motivlarini ahamiyatiga ko'ra o'rin bering, ya'ni o'quvchilaringizni huquqshunoslik fanini o'rganishi uchun motivlarning ahamiyatiga ko'ra o'rin (ranglashtiring) bering. Masalan, eng ahamiyatli motivning to'g'risidagi katakchaga 1, keyingilarini ham ahamiyatiga qarab o'rinlar bering.

1. Fan bo'yicha zarur bilimlarni o'zlashtirish.
2. Baho olish.
3. Muvaffaqiyatli o'qib, imtihonlarni «yaxshi» va «a'lo» ga topshirish.
4. O'qituvchidan maqto'v eshitish.
5. Chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lish.
6. Navbatdagi darslarga doim tayyor bo'lish.
7. O'quv mashg'ulotlarini qoldirmaslik.
8. Sinfdoshlaridan orqada qolmaslik.
9. Fanni kelajakda hayotiy masalalarda foydalanish muvaffaqiyatini ta'minlash.
10. O'qituvchining talablarni bajarish.
11. O'qituvchilar hurmatini qozonish.
12. Kursdoshlariga namuna bo'lish.
13. Ota-ona va atrofdagilarning tahsiniga sazovor bo'lish.
14. Yomon o'zlashtirganlik uchun jazo va muhokamadan qochish.
15. Intellektual qoniqish olish.

**«Talaba-psixologlar umumiy kasbiy kompetensiyalarini
o‘zi va ekspert baholash»**

Hurmatli respondent, Sizga talaba-psixologlarning kasbiy kamoloti uchun zarur umumiy kompetensiyalarni baholash bandlari tavsiya etilmoqda. Sizningcha, ushbu kompetensiyalari bugungi kun talaba-psixologlarda shakllanayotganligini baholang. Baholashni 5 balli tizim bo‘yicha amalga oshiring. 5-yuqori daraja, 4-yaxshi daraja, 3-o‘rta daraja, 2-quyi daraja va 1-juda quyi darajani ifodalaydi. Javoblarni mos bandlar bo‘yicha so‘rovnmoa varaqasiga qayd qiling.

№	Kompetensiyalar	Baho mezonlari				
		1	2	3	4	5
1.	Psixologiyaning zamonaviy muammolaridan xabardorlik darajasi					
2.	Kasbiy faoliyat bo‘yicha tayanch bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasi					
3.	Psixologiya fanidagi nazariy bilimlarga ega					
4.	Psixologiyaning sohalari bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lish					
5.	Psixodiagnostika metodikalarini tanlash, tatbiq qilish, natijalarni tahlil va talqin qilish					
6.	Psixologik treningni tashkil etish, o‘tkazish va natijalarini baholay olish qobiliyati					
7.	Psixologik maslahatni tashkil etish, amalga oshirish va tavsiyalar ishlab chiqish					
8.	Psixologik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarini bilishi va uni tashkil etish					
9.	Psixologik tadqiqotlar tashkil etish texnikasi					
10.	Psixologning kasbiy-etikaviy tamoyillarini bilishi					

TALABALAR GURUHIDAGI MIKROMUHITNI BAHOLASH
(V.M. ZAVYALOVA)

Yo'riqnoma: Ushbu kartani to'ldirishingizni so'raymiz. Talabalar guruhining mikroiqlimini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni taklif etadi. Xarita qutbiy hukmlar tamoyiliga asoslanadi. Chap tomonda - psixologik iqlimni ijobiy tomondan, o'ng tomonda-salbiy tomondan ochib beruvchi hukmlar. Qutb hukmlari orasida 3-2-1-0-1-2-3 sonlari bor. Sizning vazifangiz: birinchidan, sizning talabalar guruhidagi munosabatlarning odatiy portretini va undagi odatiy kayfiyatni aks ettiradigan qutbli hukmlardan birini (chap yoki o'ng) tanlang; ikkinchidan, har bir ko'rsatkichning ifodalanish darajasiga mos keladigan doira bilan raqamlardan birini belgilang.

Yuqori darajadagi ifodalangan - 3

O'rtacha darajada ifodalangan- 2

Quyi darajada ifodalangan -1

Agar ikki qutbli hukmlardan qaysi biri talaba guruhingizning odatiy mikroiqlimini aks ettirishini aniqlash qiyin bo'lsa, 0 raqamini belgilang. Misol uchun, birinchi qatorga murojaat qilsangiz, guruhingiz odatda quvnoq va quvnoq kayfiyatda ekanligini bilasiz.

Guruh _____ kurs _____ sana _____

1.	Guruh odatda quvnoq va shod kayfiyatda.	3 2 1 0 1 2 3	Guruhdagi kayfiyat odatda tushkun, mahzun bo'ladi.
2.	Guruh faol, ishga layoqatli	3 2 1 0 1 2 3	Guruh passiv, sust
3.	Guruhdagi muhit tinch, ishchan.	3 2 1 0 1 2 3	Guruhdagi vaziyat asabiy va keskin.
4.	Talabalar guruhda o'zlarini qulay his qilishadi.	3 2 1 0 1 2 3	Talabalar guruhda o'zlarini noqulay his qiladilar.
5.	Talabalar guruh kerak bo'lsa ularni himoya qilishini va qo'llab-quvvatlashini biladilar va his qiladilar.	3 2 1 0 1 2 3	Talabalar qiyin paytlarda guruhni qo'llab-quvvatlashga ishonishmaydi.
6.	O'quvchilar bir-birlariga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'ladilar.	3 2 1 0 1 2 3	Guruhdagi munosabatlar antipatiya bilan ajralib turadi
7.	Kollektiv barcha a'zolariga adolatli munosabatda bo'lib, barchaga munosib narsalarni beradi.	3 2 1 0 1 2 3	Jamoa afzal va e'tiborsiz bo'linadi. Guruhning alohida a'zolarini baholashda noxolis.

8.	Jamoa ichidagi alohida mikroguruhlarining munosabatlari jamoa uchun umumiy masalalarda o‘zaro tushunish, xushmuomalalik, hamkorlik bilan tavsiflanadi.	3 2 1 0 1 2 3	Guruhlar bir-biri bilan jamoa ziddiyati doirasida, ularning a‘zolari o‘z manfaatlari yo‘lida o‘zlarini berkitib oladilar, boshqalarni tushunishni istamaydilar.
9.	Guruhdagi nizolar kamdan-kam hollarda paydo bo‘ladi, jiddiy sabablarga ko‘ra adolatli va xushmuomalalik bilan hal etiladi.	3 2 1 0 1 2 3	Nizolar tez-tez paydo bo‘ladi, qiyinchilik bilan hal etiladi, qiynalib.
10.	Muhim davrlarda guruh «hamma bir kishi uchun bir kishi hamma uchun» tamoyiliga asosida jipslashadi.	3 2 1 0 1 2 3	Jamoadagi qiyin davrlarda shov-shuvlar, janjallar, o‘zaro tanbehlar kuzatiladi.
11.	Yangi kelganlar guruhda do‘stona va g‘amxo‘r munosabatni his etadi.	3 2 1 0 1 2 3	Guruh yangi kelganlarga nisbatan befarqlik yoki yomon niyatni ko‘rsatadi.
12.	Talabalarda ta’lim muassasasi va undan tashqarida ham birga bo‘lish yoqadi	3 2 1 0 1 2 3	Talabalar birgalikda bo‘lishga intilmaydi, har kim o‘z manfaatlari bilan yashaydi.
13.	Talabalar o‘z guruhini sevadi, uning yutuqlari xursand va muvaffaqiyatsizliklardan xafa bo‘ladi	3 2 1 0 1 2 3	Talabalar o‘z guruhini qadrlamaydilar. Ular uning yutuqlariga befarq, osongina boshqa guruhga o‘tishga rozi.
14.	Talabalar o‘qishni jiddiy qabul qiladilar, kasb sirlarini yegallashga intiladilar.	3 2 1 0 1 2 3	O‘qish ustuvor hisoblanmaydi, akademik muvaffaqiyatlarga intilish rag‘batlantirilmaydi.
15.	Guruh bekorchilar va dangasalarga talabchan va chidamsiz.	3 2 1 0 1 2 3	U dangasa va dars qoldiradiganlarga befarq
16.	Talabalar guruhning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etadilar.	3 2 1 0 1 2 3	Talabalar guruhning ijtimoiy hayotida passiv.
17.	Guruh har bir kishining istak va	3 2 1 0 1 2 3	Topshiriqlar «agar

	mayllarini hisobga olgan holda jamoat topshiriqlarini taqsimlashga jiddiy yondashadi.		faqat menga» tamoyili bo'yicha taqsimlanadi.
18.	Talabalar guruh ishida ishtirok etish uchun tayyor.	3 2 1 0 1 2 3	Talabalar guruh ishida ishtirok etish uchun tayyor emas
19.	Guruhning faollari vakolat va ishonchga ega.	3 2 1 0 1 2 3	Guruhning faollariga jamoaning qo'llab-quvvatlashi va hurmatidan bahramand bo'lmagan odamlar kiradi.
20.	Guruh va guruh rahbari o'rtasidagi munosabatlar yaxshi niyat, tushunish, hamkorlik bilan tavsiflanadi.	3 2 1 0 1 2 3	Guruhning guruh rahbari bilan munosabati antipatiya, ziddiyat bilan tavsiflanadi.

Natijalarni qayta ishlash

Psixologik mikroiqlimni (PM) aniqlash uchun barcha ijobiy fikrlarni, keyin salbiylarni qo'shish va katta miqdordan kichikroq miqdorni chiqarish kerak.

1. 50-60 ball-PMning yuqori darajasi;
2. 40-49 ball-PM ning o'rta darajadagi ijobiy darajasi;
3. 21-39 ball-PM ning o'rtacha yoqlanganlik darajasi;
4. 11-20 ball - PM ning o'rtacha-past darajadagi yoqimlilik;
5. 0-10 ball – PM ahamiyatsiz
6. PMning noqulayligi ijobiy darajadagi miqdorga o'xshash salbiy belgiga ega ballar bilan tavsiflanadi.
7. PM profili o'rganib komponentlarini eng yuqori ahamiyatga egalari ifodalanadi .

O'QUV GURUHIDAGI JIPSLIKNI O'RGANISH METODIKASI

Yo'riqnoma: Hurmatli tinglovchilar, sizlarga o'quv faoliyati, axloqiy va hissiy-tuyg'usini ifodalovchi, ammo tasodifiy joylashtirilgan 35 ta shaxs sifatleri taqdim etiladi. Siz ro'yxatdagi sifatlardan guruhingiz a'zolari uchun eng muhim va xos deb hisoblagan beshtasini tanlang va javoblar varag'ida belgilang. Buning uchun tanlangan sifatning to'g'risida «+» belgisini (jadvalning «qayd etish» ustunida) qo'yishingiz mumkin (1-jadvalga qarang).

O'quv guruhidagi jipslikni o'rganish metodikasi

1-jadval

Guruhning qadriyatlari va yo'nalganliklari aniqlash metodikasi stimullari va uning javoblarini qayd etish jadvali

№	Sifatlar	Qayd etish	№	Sifatlar	Qayd etish
1.	Batartiblilik		19.	O'ziga talabchan	
2.	Eruditsiyaga moyillik		20.	Tanqidiylik	
3.	Ijtimoiy burchini anglaganlik		21.	Ma'naviy boy	
4.	Ziyrak		22.	Topshiriqlarni tushuntirishga o'quvli	
5.	Ko'p o'qiganlik		23.	Vijdonli	
6.	Mehnatsevar		24.	Tashabbuskor	
7.	G'oyaviy e'tiqodli		25.	E'tiborlilik	
8.	Ishni nazorat qilishga qobiliyatli		26.	Javobgarlik tuyg'usi	
9.	Xushaxloq		27.	Qat'iyatlilik	
10.	O'z-o'ziga tanqidiylik		28.	Mustaqillik	
11.	Hozirjavob		29.	Muloqotchanlik	
12.	Ijtimoiy faol		30.	Mulohazakorlik	
13.	Kitob bilan ishlashga o'quvli		31.	Kamtarlik	
14.	Qiziquvchan		32.	Bilimdonlik	
15.	Ishni rejlash tirishga qobiliyatlilik		33.	Adolatlilik	
16.	Maqsadga intiluvchan		34.	O'ziga xoslik	
17.	Jamoatparvar		35.	O'ziga ishonganlik	
18.	Quntli				

Natijalarni qayta ishlash:

Tekshiriluvchilarning natijalarini maxsus kalit yordamida qayta ishlanadi. 2-jadvalda metodikaning kaliti, ya'ni yettita guruh sifatlariga tegishli band raqamlari keltirilgan. Metodika kaliti yordami har bir sifat bo'yicha tekshiriluvchilarning tanlagan sifatlari miqdori aniqlanadi va tajriba-sinov natijalarini qayd etishning umumiy jadvali shakllantiriladi (3-jadval). Unda guruhning barcha a'zolari tomonidan tanlangan sifatlar joylashtiriladi. Umumiy jadvaldagi ko'rsatkichlarga tayanib, o'quv guruhi a'zolari o'rtasidagi jipslikni, yagona qadriyatlar yo'nalishini va psixologik muhit aniqlanadi.

Metodikaning kaliti

№	Shkalalar	Sifatlarning raqamlari
1.	Ta'limga munosabat	1, 6, 16, 18, 25
2.	Xulq-atvor va faoliyatning umumiy uslubi	3, 7, 9, 12, 27
3.	Bilimni tavsiflovchi sifatlar	2, 5, 14, 21, 32
4.	Aqliy sifatlari	4, 20, 24, 30, 34
5.	O'quv-tashkiliy ko'nikmalarni tavsiflovchi sifatlar	8, 13, 15, 22, 26
6.	O'rtoqlariga munosabat	11, 17, 23, 29, 33
7.	O'z-o'ziga munosabat	10, 19, 28, 31, 35

Tadqiqotimizda ishtirok etgan tinglovchilar guruhidagi jipslikni maxsus formuladan foydalanib aniqlaymiz:

$$J (\text{jipslik}) = \frac{1,4n-N}{6N}.$$

Formuladagi N-tajriba-sinov ishtirokchilari soni, n-maksimal darajada tanlangan beshta sifatlarning miqdori. O'z navbatida guruhning jipsligini ifodalovchi koeffitsientdan guruhdagi qadriyatlar yo'nalganligi darajasini tavsiflashga ham xizmat qiladi.

Tajriba-sinov natijalari qayta ishlangandan so'ngra olingan ko'rsatkichlar metodikaning me'yoriy qiymatlari yordamida talqin etiladi. Agar tajriba-sinovda $S \geq 0,5$ ko'rinishdagi qiymat olinsa, guruhda kollektivizm yetakchilik qilishini; agar Sning qiymatlari — 0,3 bilan 0,5 chegarasida joylashgan bo'lsa, u holda guruh o'rtacha darajada rivojlangan va $S < 0,3$ bo'lsa, guruhda kollektivizm yetarlicha rivojlanmaganligini anglatadi.

№	Shkalalar	Sifatlarning oʻrtacha chastotasi	Takrorlanish sifatlar koʻrsatkichi
1.	Taʼlimga munosabat	1, 6, 16, 18, 25	$47+43+47+27+44=208/5=41,6$ (0,85)
2.	Xulq-atvor va faoliyatning umumiy uslubi	3, 7, 9, 12, 27	$95+45+37+110+35=322/5=64,4$ (1,34)
3.	Bilimni tavsiflovchi sifatlar	2, 5, 14,21, 32	$35+97+51+99+47=329/5=65,8$ ()
4.	Aqliy sifatleri	4, 20, 24, 30, 34	$47+25+46+49+50=217/5=43,4$
5.	Oʻquv-tashkiliy koʻnikmalarni tavsiflovchi sifatlar	8, 13, 15, 22, 26	$95+41+34+43+38=251/5=50,2$
6.	Oʻrtoqlariga munosabat	11,17, 23, 29, 33	$33+112+41+107+31=324/5=64,8$
7.	Oʻz-oʻziga munosabat	10, 19, 28, 31, 35	$12+39+40+24+42=157/5=31,4$

8-ilova

Hurmatli respondent, Sizga talaba-psixologlarning kasb tanlash, kasbiy muvaffaqiyatlar sababi va kasbiy faoliyat ko'rsatish ob'yektlari baholash bo'yicha mezonlar taqdim etiladi. Sizningcha, ushbu mezonlarni 5 balli tizim bo'yicha baholashini amalga oshiring. 5-yuqori daraja, 4-yaxshi daraja, 3-o'rta daraja, 2-quyi daraja va 1-juda quyi darajani ifodalaydi. Javoblarni mos bandlar bo'yicha so'rovnmoa varaqasiga qayd qiling

Psixolog kasbini tanlash sabablari

№	Baholash mezonlari	Baho mezonlari				
		1	2	3	4	5
1	Psixolog bo'lish qiziqarli va yoqimli					
2	Insonlarga yordam berish istagi					
3	O'zimni va o'zga insonlarning tahlil qilish					
4	Insonlar bilan muloqot qilishni yoqtirish					
5	Vaziyat taqozosi bilan					
6	Psixolog kasblar ichida yuqori nufuzga egaligi					
7	Kasbiy tayyorgarlik bosqichiga tayyorlik					
8	Psixolog faoliyati: ish vaqti, mas'uliyati, faoliyat turi va vazifalarining mosligi					
9	Psixologning shaxsiy sifatleri: mas'uliyatlilik, maqsadga yo'nalgan, vakolatli, aqlli, ish tartibi tizimli					
10	Psixologning tashqi ko'rinishi: imiji, kiyinish uslubini yoqtirish					
11	Psixologlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi uyushmalar haqida bilish					

Kasbiy kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

№	Baholash mezonlari	Baho mezonlari				
		1	2	3	4	5

1.	Shaxsiy munosabatlari					
2.	Ota-onaning nufuzi					
3.	Hamkasblari bilan hamkorlik					
4.	Kirishimlilik					
5.	Yashash hududi					
6.	Shaxsiy jozibadorligi					
7.	Yuqori kasbiy bilim va tajribaga egalik					
8.	Kognitiv qobiliyatlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok, xayol, kreativlik)					
9.	Tashkilotchilik qobiliyatlari					
10.	Xorijiy tilni bilishi					
11.	Shaxsiy munosabatlari					

Kasbiy faoliyatini amalga oshirish mumkin bo'lgan kasbiy faoliyat ob'yektlari

№	Baholash mezonlari	Baho mezonlari				
		1	2	3	4	5
1.	Maktabgacha ta'lim muassasasi					
2.	Umumiy o'rta ta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji					
3.	Tibbiyot muassasalari					
4.	Psixologik xizmat markazlar					
5.	Huquqni muhofaza qilish organlari					
6.	Xususiy firmalar					
7.	Mehribonlik uylari					
8.	Shaxsiy psixologik xizmat markazi					
9.	Boshqa muassasalar: korxonalar					

Shaxs yo‘nalishini aniqlash metodikasining savolnomasi

(V.Smekal va M.Kuchera)

«Shaxsning yo‘nalganligini aniqlash» metodikasi.

Test 27 ta savoldan iborat bo‘lib, uchta javob variantiga ega (A, V, S). Biz quyida shaxslarning uch yo‘nalishdagi faoliyat motivlariga ega bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar.

1. O‘ziga yo‘nalganlik. Bu oliy nufuzga ega bo‘lish motivlarining ustunlik qilishi, o‘z shaxsining xislatlarini to‘liq idora qilish va tahlil qila olishga intilishda namoyon bo‘ladi. O‘ziga yo‘nalgan kishi ko‘proq o‘z hissiy kechinmalari, fikru xayollari bilan band bo‘lib, atrofdagilar bilan kam qiziqadi; xatti-harakatlarining boshqalar tomonidan tan olinishiga, qadrlanishiga, qo‘llab-quvvatlanishiga ehtiyoj sezadi; tanqidni uzoq eslab yuradi, tanqiddan, insonlarning nazaridan yiroqda yurishni yoqtiradi. Barcha xatti-harakatlarining jamoatchilik tomonidan baholanishiga juda sezgir, xato xatti-harakat qilib qo‘yishdan qo‘rqadi. Kasbiy faoliyatiga kelsak, jamiyatda yuqori baholanadigan kasb sohasini tanlashga va shu sohada o‘z mehnati, kasbiga sodiqligi bilan obro‘ - e’tibor qozonishga intiladi.

Agar o‘ziga yo‘nalgan kishi keng ma’naviyatli, fahm-farosatli inson bo‘lsa, undan xudbinlik kayfiyatidagi xulq-atvorni kutish qiyin. Bunday kishilar, ko‘pincha, chuqur mulohazali, o‘tkir zehnli insonlar bo‘lishadi. Obrazli qilib aytganda, «pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa – bировga» degan maqolga qat’iy amal qiladigan, bir oz kamgap ko‘rinsalarda, ichki dunyolarida o‘zlari bilan tinimsiz «gaplashib», o‘zlarini «tergab» turadigan, sermulohaza kishilardir. Shu jihatdan, bunday xulq-atvor ularni boshqalarga, ayniqsa, insonlarga yo‘nalgan kishilar uchun ko‘rimsiz, yopiq (yoki «sovuq») basharali qilib ko‘rsatishi mumkin.

2. Insonlarga yo‘nalganlik – bu hap qanday sharoitda ham insonlar bilan yaqin va iliq muomalada bo‘lishga intilish xususiyati. Bunday kishilar shaxslararo munosabatlarning barcha tomonlariga katta ahamiyat beradilar. Ko‘pincha, ular uchun hayotda eng qadrlil narsa – boshqalar bilan munosabatda, hamkorlikda bo‘lish imkoniyatidir. Kuchli darajada insonlarga yo‘nalganlik doim xushchaqchaq, insonlar nazarida bo‘lish, hap tomonlama muloqotda bo‘lish, cheksiz sohalarda alohida, yaqin, munosabatda bo‘lishdir. Bunday kishilar uchun insonlarsiz dunyo mazmunsiz bo‘lib, kundalik hayotda o‘z mehnat yoki o‘qish jamoalari bilan bog‘liq bo‘lishga, iliq hissiy munosabatlarni davom ettirishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Kasbiy faoliyatda o‘z kasbdoshlari bilan qalin munosabatda bo‘lishga, hamjihat bo‘lishga intilishlarida bu yo‘nalganlik o‘z aksini topadi.

3. Faoliyatga yo‘nalganlik - mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etishga qiziqish, topshirilgan vazifani imkon qadar puxta qilib bajarishga intilish xususiyati, bunday kishi mehnatni tashkil etishning odatdagi usulidan tezda zerikib qoladi va shu sababli doimiy ravishda ish jarayonini o‘zgartirib, mukammallashtirib borish orzusi bilan yuradi. Vazifani to‘liq va

mukammal bajarishga moyillik, javobgarlik hissi, shu bilan birga ishdan, mehnat faoliyatidan zavq olish, mehnatni qadrlash, unga vujudi bilan kirishib ketish, mehnatga e'tiqod va shu sababli o'z sohasini chuqur va mukammal o'rganishga moyillik bu yo'nalishdagi kishilarga xos xislatlardandir. Bunday kishilar ish yuzasidan asosli va chuqur hamkorlik qilishga intiladilar. Insonlar uchun foydali bo'lgan umumiy maqsadga erishish yo'lida o'z fikrlarini ilgari surishga qodir bo'lib, qat'iy va ma'lum bir kasb doirasida mustaqil va ijodiy fikrlari bilan ajralib turadilar.

Ushbu test 30 savoldan iborat bo'lib ularning har biriga uch variantda javob berishingiz mumkin (A, V, S tarzda).

Savolni diqqat bilan o'qing. Javoblar orasidan Sizning ichki dunyoingizga eng yaqin bo'lgan javobni tanlang (faraz qilamiz - «V»). Endi javob varaqasining tegishli satrida «V» harfini tanlab, uning chap yoniga («to'g'ri keladi» degan so'zlar ostiga) belgi («+») qo'ying.

O'sha savolni yana bir marta o'qing. Endi qolgan ikki javob varianti («A» va «S») orasidan Sizning nazaringizda eng kam to'g'ri keladiganini yoki Siz uchun qimmatini eng past bo'lishini tanlang. (faraz qilamiz «A») So'ngra javob varaqasining yana o'sha satridan «A» arfini tanlab, uning o'ng yoniga («to'g'ri kelmaydi» so'zlari ostiga) belgi («+») qo'ying. Uchinchi javob variantiga esa (bizning misolda-«S») hech qayerda belgilanmaydi.

Demak, har bir satrga ikkitadan «+» belgisini qo'yishimiz kerak bo'ladi: birinchisi-A, V yoki S variantlaridan birining «to'g'ri keladi» ustunidagi katakchasiga, ikkinchisi- shu variantlarning «to'g'ri kelmaydi» katakchasiga. Birorta savolni javobsiz qoldirmang. Savollar ustida uzoq o'ylanib o'tirmang. Ba'zan bir vaqtning o'zida ikkita yoki uchta variant javoblari tengdek tuyulishi mumkin: diqqat qiling va esda saqlang, eng to'g'ri javob xayolga birinchi kelgan javobdir.

1. Men, qachonki:

- a) qilayotgan ishimni atrofdagilar qo'llab -quvvatlashsa;
 - b) biror ishni o'zimga ma'qul, ko'nglimdagidek bajarsam;
 - s) atrofida yaxshi do'stlarim borligini his etsam,
- o'zimda katta qanoatlanish hosil qilaman.

2. Bordi-yu kelajakda sportchi (futbolchi, voleybolchi) bo'lganimda edi:

- a) o'yin taktikasiga ishlov beruvchi kishi-trenir bo'lishni istardim;
- b) mashhur o'yinchi bo'lishni istardim;
- s) komanda kapitani bo'lib tayinlanishimni istardim.

3. haqiqiy pedagog quyidagi xususiyatga ega bo'lishi kerak:

- a) o'quvchilarga alohida-alohida yondoshib, har biri bilan qiziqsin;
- b) o'quvchilarda predmetga nisbatan shunday qiziqish uyg'otsinki, ular shu predmet doirasida ko'proq bilim olishgan intilsin;

s) o'quv jamoasida shunday muhit yaratsinki, unda har kim qo'rqmay o'z fikrini ochiq-oydin bayon eta olsun.

4. Men: a) o'zlari bajargan ishdan zavq oladigan kishilarni juda yoqtiraman;

b) jamoada ko'pchilik bilan mehnat qilishni yoqtiradigan kishilarni yaxshi ko'raman;

s) topshirilgan ishni boshqalarga nisbatan yaxshiroq bajarishga intilgan kishilarni yoqtiraman.

5. Agar mening do'stim:

a) insonlarni tushunadigan, kerak bo'lganda qo'lidan kelguncha yordam bera oladigan bo'lsa;

b) har doim so'zining ustidan chiqa oladigan, sadoqatli bo'lsa;

s) aqlli va har narsaga qiziqadigan inson bo'lsa, qanoatlanish hosil qilardim.

6. Eng yaqin do'st shunday kishiki, u:

a) men bilan yaxshi munosabatlarda bo'lsa;

b) eng qiyin paytda ham ishonchni oqlaydigan bo'lsa;

s) katta hayotiy tajribaga va ko'p yutuqlarga erishgan bo'lsa.

7. Men:

a) ishimning o'ngidan kelmasligining;

v) o'rtoqlarim bilan munosabatimni buzilishini;

s) atrofdagilarni meni tanqid qilishlarini juda istamagan bo'lardim.

8. Eng ayanchli ahvol shundaki, agar o'qituvchi:

a) ba'zi o'quvchilarni yoqtirmasligini, ularni ustidan kulishini va kinoyasini yashira olmasa;

b) jamoada raqobatchilik kayfiyatini yaratsa;

s) o'zi dars bergan fanni yaxshi bilmasa.

9. Bolaligimda eng yaxshi ko'rganim:

a) ko'proq o'rtoqlarim bilan o'ynash edi;

v) qum to' dasidan uychar yasab, zavqlanish edi;

s) biron narsa uchun meni maqtashlari edi.

10. Quyidagi ta'rifi berilgan kishilarga o'xshashni juda-juda hoxlardim:

a) hayotda katta lavozimlarda ishlagan kishi;

v) o'z ishiga chinakam berilgan kishi;

s) do'stonaligi va oq ko'ngilligi bilan ajralib turgan kishi.

11. Menimcha, maktabning birinchi galdagi vazifasi:

a) hayotdagi to'siqlar, muammolarni hal qilishni o'rgatish;

v) o'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

s) insonlar bilan o'zaro hamkorlik qilishga yordam beradigan sifatlarni tarbiyalash.

12. Bo'sh vaqtim ko'proq bo'lganda, nazarimda undan quyidagicha foydalangan bo'lar edim:

a) do'stlarim bilan suhbatlashardim;

v) ko'proq dam olib, hordiq chiqargan bo'lardim;

s) o'zim sevgan ishlar bilan, mustaqil o'qish, o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan bo'lardim.

13. Katta yutuqlarni qo'lga kiritishim mumkin, agar:

a) chehrasi iliq bo'lgan kishilar bilan ishlasam;

- v) bajarayotgan ishim menga qiziqarli bo'lsa;
- s) qilgan ishim yaxshi rag'batlantirilishi mumkin bo'lsa.

14. Menga juda yoqadi, agar:

- a) insonlar meni qadrlashsa;
- v) biror ishni yaxshilab oxiriga yetkazib bajarsam;
- s) vaqtimni do'stlar orasida qiziqarli o'tkazsam.

15. Agar men haqimda gazetaga yozishga qaror qilishsa, men istardimki:

- a) biror sohada erishgan yutuqlarimni maqtab yozishsin;
- v) men bajargan ishlar haqida gapirilsin;
- s) albatta men o'qiyotgan yoki ishlayotgan jamoa haqida gapirilsin.

16. Men juda yaxshi o'qigan bo'lardim, agar o'qituvchi:

- a) meni tushunsa va o'zligimni nazarga olib, to'g'ri munosabat qila olsa;
- v) predmetlarga nisbatan qiziqish uyg'ota olsa;
- s) dars mavzularini bahs-munozarali qilib yorita olsa.

17. Men uchun eng yomoni:

- a) g'ururimning poymol qilinishi;
- v) zarur ishimning o'ngidan kelmasligi;
- s) do'stlarimdan ajralib qolishim.

18. Menimcha, hayotda eng qadrli narsa:

- a) muvaffaqiyat;
- v) o'zaro kelishuvda, hamkorlikda ishlash imkoniyati;
- s) kundalik hayotda ijodkorlik, hurfiylik.

19. Men yoqtirmaydigan kishilar:

- a) o'zini boshqalardan past ko'ruvchilar;
- v) badjahl, tez-tez janjal chiqaruvchi kishilar;
- s) har qanday yangilikka qarshi chiqadigan insonlar.

20. Men uchun quvonch bag'ishlaydi:

- a) hamma uchun muhim bo'lgan ish bilan shug'ullanish;
- v) yor-do'stlarimning ko'p bo'lishi;
- s) insonlarni hayratda qoldirish, hammaga yoqish.

21. Menimcha, rahbar kishi quyidagi xususiyatga ega bo'lishi shart:

- a) qo'l ostidagilarga juda yaqin bo'lishi, ularni tinglay bilishi;
- v) obro'-e'tiborli, viqor-salobatli bo'lishi;
- s) o'ziga va boshqalarga talabchan bo'lishi.

22. Bo'sh vaqtimda havas bilan shunday kitoblarni o'qigan bo'lardimki, ular:

- a) do'st orttirish, insonlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish sirlari haqida yozilgan bo'lsin;
- v) mashhur va ko'pqirrali insonlarning hayoti to'g'risida yozilgan bo'lsin;
- s) fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari to'g'risida yozilgan bo'lsin.

23. Musiqa sohasida qobiliyatim bo'lganda edi:

- a) dirijor bo'lgan bo'lardim;
- v) bastakor bo'lardim;
- s) qo'shiqchi bo'lardim.

24. Istardimki:

- a) qiziqarli bir konkurs o‘ylab topib, uning rejasini tuzsam;
- v) biror bir konkursda g‘olib chiqsam;
- s) o‘zim konkurs tashkil etib uni olib borsam.

25. Birinchi navbatda bilishim zarur:

- a) nima ish bajarishim kerakligini;
- v) maqsadga erishish yo‘llarini;
- s) maqsadga erishish uchun atrofdagi insonlardan qanday foydalanish kerakligini.

26. Inson shunga intilishi kerakki:

- a) boshqalar undan xursand bo‘lsinlar;
- v) unga buyurilgan ish, avvalo, vijdonan, chin ko‘ngildan bajarilsin;
- s) qilgan ishi uchun u hech kimdan gap eshitmasin.

27. Bo‘sh vaqtimda yaxshi dam olaman:

- a) do‘stlarim bilan suhbatlashganda;
- v) qiziqarli filmlar tomosha qilib, hordiq chiqarganda;
- s) o‘zim sevgan ish bilan mashg‘ul bo‘lganda.

Javoblar varaqasi

F.I.Sh. _____

Savol raqami №	Eng ko‘p to‘g‘ri keldi	Eng kam to‘g‘ri keldi	Savol raqami №	Eng ko‘p to‘g‘ri keldi	Eng kam to‘g‘ri keldi
1			15		
2			16		
3			17		
4			18		
5			19		
6			20		
7			21		
8			22		
9			23		
10			24		
11			25		
12			26		
13			27		
14					

Natijalarni qayta ishlash

« Eng ko‘p to‘g‘ri keldi » javob 2 ball, «eng kam to‘g‘ri keldi» — 0, qolgan tanlanmagan javobga - 1 ball beriladi. Barcha 27 ball bo‘yicha to‘plangan ballar har bir yo‘nalish turi uchun alohida jamlanadi.

Savol raqami №	Yo‘nalganlik		
	O‘ziga	Odamlarga	Faoliyatga
1			
2			
3			
4			
5			
6			
7			
8			
9			
10			
11			
12			
13			
14			
15			
16			
17			
18			
19			
20			
21			
22			
23			
24			
25			
26			
27			
Yig‘indi			

Savol №	O'ziga	Odamlarga	Faoliyatga	Savol №	O'ziga	Odamlarga	Faoliyatga
1	A	S	V	15	V	S	A
2	V	S	A	16	A	S	V
3	A	S	V	17	A	S	V
4	S	V	A	18	A	V	S
5	V	A	S	19	A	V	S
6	S	A	V	20	S	V	A
7	S	V	A	21	V	A	S
8	A	V	S	22	V	A	S
9	S	A	V	23	S	A	V
10	A	S	V	24	V	S	A
11	V	S	A	25	A	S	V
12	V	A	S	26	S	A	V
13	S	A	V	27	V	A	S
14	A	S	V				

MUNDARIJA

<u>I BOB. TALABA-PSIXOLOGLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK PORTRETI MUAMMOSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI</u>	5
<u>§ 1.1. Ijtimoiy-psixologik portretni shakllantirish psixologik muammo sifatida</u>	5
<u>§ 1.2. Jahon psixologiyasida ijtimoiy-psixologik portret tuzish muammosining tadqiq etilganlik holati</u>	12
<u>§ 1.3. Talaba-psixolog ijtimoiy-psixologik portreti muammosining psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik darajasi</u>	18
<u>Birinchi bob bo'yicha xulosalar</u>	26
<u>II BOB. TALABA-PSIXOLOGLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK PORTRETIDA KASB TANLASH MOTIVLARI, O'QUV MOTIVLARI VA QADRIYATLARI AHAMIYATINING EMPIRIK KO'RSATKICHLARI</u>	27
<u>§ 2.1. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretini tadqiq etish mezonlari va metodikalari tavsifi</u>	27
<u>§ 2.2. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretida kasb tanlash motivatsiyalarining ahamiyatini o'rganish natijalari</u>	38
<u>§ 2.3. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portreti tuzilishida o'quv motivlarining o'rni</u>	57
<u>§ 2.4. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretida qadriyatlarning o'rni</u>	65
<u>Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar</u>	74
<u>III BOB. TALABA-PSIXOLOGLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK PORTRETINING KASBIY SHAKLLANISHDAGI AHAMIYATINI EMPIRIK O'RGANISH</u>	76
<u>§ 3.1. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portreti va kasbiy shakllanishini tavsiflovchi psixologik xususiyatlari</u>	76
<u>§ 3.2. Talaba-psixologlarning kasbiy kompetensiyalari va ijtimoiy-psixologik munosabatlari</u>	93
<u>§ 3.3. Talaba-psixologlar guruhidagi shaxslararo munosabat xususiyatlari</u>	97
<u>§ 3.4. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretining kasbiy kamolotni ta'minlashiga xizmat qiluvchi omillari</u>	102
<u>Uchinchi bob bo'yicha xulosalar</u>	112
<u>XULOSALAR</u>	114
<u>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</u>	116
<u>ILOVALAR</u>	133

